

O'QUV-USLUBIY  
MAJMUA

TOSHKENT DAVLAT  
YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI YURIDIK  
KADRLARNI XALQARO  
STANDARTLAR BO'YICHA  
PROFESSIONAL O'QITISH  
MARKAZI



HUQUOSHUNOSLIK

2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YURIDIK KADRLARNI XALQARO STANDARTLAR BO'YICHA  
PROFESSIONAL O'QITISH MARKAZI**

**HUQUQSHUNOSLIK**

qayta tayyorlash va malaka oshirish  
yo'nalishi

**“DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI”**

moduli bo'yicha

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

- |                      |               |  |
|----------------------|---------------|--|
| <b>Tuzuvchilar:</b>  | S.Murataev    | – TDYU Davlat va huquq nazariyasi kafedrasи mudiri, y.f.n.           |
|                      | F.Maxmudov    | – TDYU huzuridagi Professional o‘qitish markazi direktor o‘rinbosari |
| <b>Taqrizchilar:</b> | F.Muxitdinova | – TDYU Davlat va huquq nazariyasi kafedrasи professori, y.f.d.       |
|                      | O.Xusanboev   | – TDYU Davlat va huquq nazariyasi kafedrasи dotsenti, y.f.n.         |

*O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat yuridik universiteti kengashining  
202\_\_-yil \_\_\_\_\_\_\_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## **MUNDARIJA:**

<b>I. ISHCHI DASTUR</b> .....	4
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI</b> .....	13
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR</b> .....	22
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI</b> .....	91
<b>V. KEYSLAR BANKI</b> .....	94
<b>VI. GLOSSARIY</b> .....	100
<b>VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	114
<b>VIII. TAQRIZLAR</b> .....	117

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarorilarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

### Modulning maqsad va vazifalari

Tinglovchilarda davlat va huquqning nazariyasi kelib chiqishi va ilmiy asoslari bo‘yicha ilmiy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Shuningdek, davlat va huquqning nazariyasining dolzarb muammolari doirasida fanni o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish, muammoli vaziyatlarga nisbatan qonunchilikni izlash va qo’llash ko‘nikmalarini shakllantirish, mantiqiy savollarga huquqiy asoslantirilgan javob berish ko‘nikmasini shakllantirish hamda mustaqil ta’lim orqali tinglovchilar bilimlarini mustaqil o‘zlashtirishga ko‘maklashish modulning maqsad va vazifalarini tashkil etadi.

## **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Davlat va huquq nazariyasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **Tinglovchi:**

- davlat va huquqning xususiyatlarini to‘g‘ri anglash;
- jamiyatda bo‘layotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga huquqning ilmiy jihatlari bilan bog‘lay olish;
- huquqshunoslik kasbiga bo‘lgan talabni tahlil qilish va talabalar e’tiboriga yetkazishni;
- qo‘llash bilan bog‘liq muammolar va ularni hal etish yo‘llarini **bilishi** kerak;

### **Tinglovchi:**

- huquq normalarini sharhlash va asl mazmun mohiyatini anglab yetish;
- huquqning shakllanishi va qo‘llanishiga ta’sir qiluvchi omillarni farqlay olish;
- huquq ustuvorligi va huquqiy tartibotni tushuntirishda modellashtirish uslubidan foydalanish;
- davlat va huquqning muammolarga doir keyslar tuzish, ulardan amaliyotda qo‘llash **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim;

### **Tinglovchi:**

- huquqning davlat siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish;
- davlat va huquqning rivojlanish istiqboliga oid ilmiy izlanishlarni tahlil qilish;
- huquq nazariyasidagi muammolarni aniqlash, tahlil etish, baholash va umumlashtirish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

### **Tinglovchi:**

- huquqni qo‘llash amaliyotiga, o‘quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish;
- davlat va jamiyat munosabatlarida huquqning ijobiy yaratuvchanlik ta’sir qilishiga oid takliflar tayyorlash;

- talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy, siyosiy madaniyatini va huquqiy ongini oshirish, ularda vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish **kompetensiyalarini** egallashi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o’tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Davlat va huquq nazariyasi” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida multimedya va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o’tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kolokvium o’tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo’llash nazarda tutiladi;
- masofaviy ta’limga moslashtirilgan zarur texnik va axborot texnologiyalari vositalaridan keng foydalilanadi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Davlat va huquq nazariyasi” moduli o‘quv rejadagi “Oila va biznes huquqi”, “Yuridik xizmat” kabi modullar bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar davlat va huquq nazariyasi muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o‘quv yuklamasi Soatlari		
		Jami	Auditoriya o‘quv yuklamasi	
			Nazariy	Amaliy
1.	Davlat va huquqning kelib chiqishini masofaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish	4	2	2
2.	Davlat funksiyalari to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirishdagi yondashuvlar	4	2	2
3.	Ijtimoiy munosabatlar va huquqiy masalalar mohiyatini ochib berishda kazuslardan foydalanish	4	2	2
4.	Zamonaviy norma va huquq ijodkorligi – normativ-huquqiy hujjatlar tahlili	4	2	2
5.	Huquqiy xulq-atvor, huquqbazarlik va yuridik javobgarlik tushunchalarini shakllantirish	4	2	2
6.	Mamlakatda qonuniylilikni ta’minlashda huquq ustuvorligi va huquqiy tartibot masalalari	4	2	2
7.	Davlat va huquqning rivojlanish istiqbollari	2	2	
<b>Jami</b>		<b>26</b>	<b>14</b>	<b>12</b>

## BAHOLASH MEZONI

Mazkur modul yuzasidan tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari nazorati belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. Davlat va huquqning kelib chiqishini masofaviy ta'lif texnologiyalari asosida o'qitish**

Davlatning kelib chiqishiga ta'sir qilgan omillarni hujjatli filmlarda namoyish qilish. Huquq tushunchasiga oid mutafakkirlarning sara fikrlarini taqdimot orqali namoyish qilish va sharhlash. Insoniyat rivojining 2500-3000 yillik tarixidagi davlat va huquq masalalari yuzasidan umumiy kuzatuv tahlilini o'tkazish.

### **2-mavzu. Davlat funksiyalari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirishdagi yondashuvlar**

Davlat tushunchasiga bir qator olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni keltirish va tahlil qilish. Davlatchilik belgilari, funksiyalari va vazifalariga oid "maqsadlar daraxti" metodidan foydalanib tushuntirish. Qadimgi davr, o'rta asrlar, yangi davr va eng yangi davrdagi hamda zamonaviy davrdagi davlatlarning umumiyligi va farqli jihatlarini taqdimotdagi jadval ko'rinishida tahlil qilish.

### **3-mavzu. Ijtimoiy munosabatlар ва huquqiy masalalar mohiyatini ochib berishda kazuslardan foydalanish**

Ijtimoiy munosabatlarga misol sifatida reallikka asoslangan voqealarni keltirish va tahlil qilish. Huquq bilan tartibga solinadigan va insonning shaxsiy erkinligiga kiruvchi masalalar doirasini kazuslarda tahlil qilish.

### **4-mavzu. Zamonaviy norma va huquq ijodkorligi – normativ-huquqiy hujjatlar tahlili**

Zamonaviy norma va huquq ijodkorligi. Huquq shakllari tushunchasi va turlarini lex.uz va norma.uz qonun hujjatlari bazasidagi real normativ-huquqiy hujjatlar misolida o'rganish. Huquq manbaalarining ierarxiyasi va yuridik kuchiga oid taqdimotlarni namoyish qilish.

## **5-mavzu. Huquqiy xulq-atvor, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik tushunchalarini shakllantirish**

Mavzuga oid materiallarni talabalarga 2-3 hafta oldin taqdim qilish va tegishli yo‘l-yo‘riqlar berish. Kazusli vaziyat asosida talabalar o‘rtasida rollarni taqsimlash. Ularning mustaqil kazusdagi rollariga oid ssenariylarini tayyorlashni topshirish. Baholash mezonlari bilan tanishtirish va rolli mashg‘ulotni o‘tkazish.

## **6-mavzu. Mamlakatda qonuniylikni ta’minlashda huquq ustuvorligi va huquqiy tartibot masalalari**

Huquq ustuvorligiga oid taqdimot va materiallarni tayyorlash. Huquqiy tartibot tushunchasini jahon yangiliklari misollarida tushuntirish. Huquq ustuvorligiga oid xalqaro tashkilotlar va reyting agentliklari to‘g‘risida ma’lumotlar berish va ularning milliy huquq tizimiga ta’sirini tushuntirish.

## **7-mavzu. Davlat va huquqning rivojlanish istiqbollari**

Davlat va huquq rivojiga oid so‘nggi yillarda himoya qilinayotgan mavzular bilan tanishtirish. Huquqshunos kadrlarning kasb faoliyati shakllariniga oid statistik ma’lumotlar bilan tanishtirish. Jahonda huquqshunoslik kasbiga bo‘lgan talabni tahlil qilish va talabalar e’tiboriga yetkazish.

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

Quyidagi shakllarda ta’lim berish ko‘zda tutilgan:

- binar ma’ruza, debatlar, vebinar;
- devorsiz maktab;
- Online ma’ruza;
- trening, videotrening
- mini-ma’ruzalar va suhbatlar;
- aqliy hujum, viktorina, bumerang va tanishuv usullarida;
- diskussiya i disputlar (dalil va argumentlar asosida fikrini asoslashga o‘rganadi, tinglash va eshitishga moslashadi);
- kichik guruhlarda idrok xaritasida ishlash (hamkorlikda ishlashga o‘rganiladi).

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. Rahbariy adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagisi ma’ruzasi. –T.:“O‘zbekiston”, 2017.B-48
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. - 76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 52-son, 583-modda
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 19-son, 209-modda
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 49-son, 578-modda
5. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 49-son, 611-modda

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 07.02.2017 yildagi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 14.02.2017 yildagi F-4849-son farmoyishi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 7-son, 88-modda

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Odilqoriev X.T., Tulteev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyası: Darslik / X.T.Odilqoriev tahriri ostida. – T.: Sharq, 2009. – 592 b.
2. Islamov Z.M. Teoriya gosudarstva i prava (Chast 1. Teoriya gosudarstva). Uchebnik. – T.: TGYUI, 2013. – 325 s.
3. Hayitboev F.P., Najimov M.K. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYU, 2018. – 229 b.
4. Axmedshaeva M.A. Davlat va huquq rivojining hozirgi zamon tendensiyalari. – T.: TDYU, 2019. –235 b.

### **IV. Xorijiy adabiyotlar**

1. Нисневич Ю.А.Государство XXI века: тенденции и проблемы развития. – М. : КНОРУС, 2012. - 288 с.
2. Hart H.L.A. The Concept of Law. 3rd edition. – Oxford: Oxford university press, 2012. –333 p.
3. Brian Y.Bix.Washington University, St. Louis, B.A. Harvard University, J.D. Balliol College, Oxford University, D.Phil. Natural Law: Modern Tradition Natural Law: Online publication date: Sep. 2012 Online publication date: Sep. 2012. Edited by Jules L.Coleman, KennehtEinarHimma, and Scott J.Shapiro.
4. Марченко М.Н.Тенденции развития права в современном мире. Москва: Проспект, 2015.-376 с.
5. Радко Т.Н., Лазарев В.В., Морозова Л.А. Теория государства и права. – М.: Проспект, 2018. – 568 с.

6. Axmedshayeva M.A. Davlat va huquq rivojining hozirgi zamon tendensiyalari. – Toshkent: TDYuU, 2019. –235 b.
7. Марченко М.Н.Проблемы общей теории государства и права (Право):в 2 т.-2-изд.-Москва:Проспект, 2019.Т.2:-648 с.
8. Scott Veitch, Emilius Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence. Themes and Concepts. Second ed. – London: Routledge publication, 2012.– 305 p.

#### **V. Elektron ta’lim resurslari**

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.senat.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.my.gov.uz>
5. <http://www.parliament.gov.uz>
6. <http://www.ziyonet.uz>

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

### **Materialni og'zaki bayon qilish metodi**

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'yash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining tinglovchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, tinglovchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

### **Suhbat metodi**

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jaraeni: ular e'tiboriga havola etilaётган savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob'ektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'yash va savollarga to'g'ri javob tayerlashdan iborat. O'qituvchining rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoён bo'ladi. Suhbat metodi èrdamida bilimlarni o'zlashtirishda tinglovchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar. 3. Darslik (umuman, kitob) bilan

### **"SWOT-tahlil" metodi**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S- (strength)	• Kuchli tomonlari
W- (Weakness)	• Zaif kuchsiz tomonlari
O- (opportunity)	• Imkoniyatlati
T-(Threat)	• To'siqlar

### “Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi


**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi

- 1 • Trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi
- 2 • Trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirishgach, har bir guruh umumiy muammoni tahlil qilihlari zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materallarni targating;
- 3 • Har bir guruh o'ziga berilan muammosini atroficha tahlil qilib o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
- 4 • Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqsimotlarini o'tkazadilar, Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruruviy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yuklanadi

### "Keys-stadi" metodi

"Keys-stadi" - inglizcha so'z bo'lib, ("case" – aniq vaziyat, hodisa, "stadi" – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqe-a-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).



## “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

## “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

## **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bўlgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

### **“Insert” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish

tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>	<b>3-matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, tinglovchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izoh-lanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib,

baholaydi.

### **“Blits-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

#### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

## **“Munozara” metodi**

Ta’lim tizimida tizimlarda nutq o‘qitish, o‘z fikrini mustaqil va asosli bayon qilib, xulosalar chiqarish vositasi sifatida g‘oya muhim o‘rin egallaydi. Bu bajariladigan ishning bir turi bo‘lib, o‘zaro tortishish jarayonini keltirib chiqaradi va unga aniqlik kiritadi. Tinglovchilar tomonidan “o‘z so‘zi” o‘ziga xos uslub asosida izchil, savol fikr yuritiladi.

Munozara vaqtida tinglovchilar o‘zlariga ishongan holda savollarni munozara qilishadi. Munozara uchun shunday sharoit yaratishi kerakki, unda tinglovchilar o‘z fikrlarini ishonch bilan ochiq aytish, kamchiliklari uchun aybga qo‘ymasliklariga ishongan holda bayon etishlari lozim.

**Masalan: Ma’muriy ixtiyoriylik ma’muriy hujjat qabul qilishga qanday ta’sir qiladi?**

### **MUNOZARA USULIDA QUYIDAGI MAQSADLARDA FOYDALANISH MUMKIN**

- 
- Yangi bilimlarni shakllatrirish
  - Og’izaki va yozma nutq ko’nikmalarini rivojlantirish
  - Mavzu yuzasidan fikr almashish asosida tegishli bilimlarga ega bo’lish

## **“Pinbord” metodi**

Pinbord inglizchadan: pin – mustahkamlash, board –doska ma’nosini bildiradi. Bu usulda munozara yoki suhbat amaliy usul bi-lan bog‘lanib ketadi. Metod maqsadi rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazi-fasini bajarish. Bunda tinglovchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi,

o‘z fikrini nafaqat og‘zaki, balki yozma ra-vishda bayon etish mahorati, mushohada qilish va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

### **“Portfolio”metodi**

“Portfolio” – ( ital. rortfolio – portfel, ingl.hujjatlar uchun pap-ka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘in-disi sifatida aks etadi. Jumladan, tinglovchi yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshi-rish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta’limiy faoliyat	Tinglovchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Tinglovchilar guruhi, tinglov-chilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O‘qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

### **Muammoli metod**

Muammoli metodning mohiyati mashg‘ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo‘lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo‘li shu bilan birga o‘quv yo‘li hamdir.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1. Davlat va huquqning kelib chiqishini masofaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish

**Reja:**

1. Jamiyat tushunchasi.
2. Jamiyat mavjud bo‘lishi shakllarining xilma-xilligi.
3. Jamiyat rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.
4. Davlatgacha bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy normalar va ijtimoiy hokimiyat.
5. Davlat – jamiyat mavjud bo‘lishining bir shakli sifatida.
6. Davlat va huquqning vujudga kelishi to‘g‘risidagi nazariyalar.
7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida jamiyat, davlat va huquq masalalari.

**Tayanch so‘zlar:** jamiyat, ijtimoiy munosabatlар, ijtimoiy qonuniyatlar, ibtidoiy jamoa, teologik nazariya, ijtimoiy shartnomalar, ruhiy nazariya.

Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o‘zgarmay kelgan holatlarni o‘zgrтирib yubordi. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo‘ldi.

Endilikda esa ta’lim tizimida ta’lim olishning an’anaviy shakllari o‘rniga masofaviy ta’lim elementlari kirib keldi.

Zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘sishma ravishda yangi o‘qitish shakli - masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi.

Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integrasiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzlucksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagи boshqa «vertikal o‘quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo‘ladi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxassisligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayonida ayni vaqtida qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovasion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikasiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

Masofaviy o'qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikasiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtida va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuaidir.

Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Davlat va huquq hodisalari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi mahsuli hisoblanadi. Davlat va huquq jamiyat ichida yuzaga keladi va rivojlanadi. Shu bois davlat va huquq hodisalarini o'rganishda jamiyat va uning rivojlanish bosqichlari, turli hududlarda namoyon bo'lish shakllari, uning rivojiga ta'sir qiluvchi omillar, jamiyat siyosiy tizimi bilan bog'liq masalalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat so‘zining lug‘aviy ma’nosini tahlil qiladigan bo‘lsak, u “jam bo‘lish”, “uyushish” kabi tushunchalarni anglatadi. O‘z navbatida, jamiyat tushunchasiga tor va keng ma’noda yondashish mumkin. Tor ma’noda jamiyat – bu kishilarning ma’lum bir maqsad yo‘lida birlashgan uyushmasidir. Masalan, oila, siyosiy partiyalar, mehnat jamoalar, ijodiy uyushmalar va boshqalar.

**Jamiyat** – bu tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar mahsuli.

Jamiyat – bu kishilar o‘rtasidagi o‘zaro turli xil (iqtisodiy, oilaviy, ma’naviy, jamoaviy, diniy va boshqa) munosabatlar va aloqalarning murakkab tizimi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida jamiyatga quyidagicha ta’rif beriladi, ya’ni jamiyat – bu tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida moddiy boyliklar yaratishning muayyan usullari va muayyan ishlab chiqarish munosabatlari bilan xarakterlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Har qanday jamiyat o‘ziga xos bir butun ijtimoiy tizim bo‘lib, u muayyan darajada ijtimoiy munosabatlarning uyushganligi, tartibga solinganligi bilan farqlanadi. Jamiyat uchun boshqaruv (ijtimoiy hokimiyat)ning va kishilar xulq-atvorini umumiyligida yordamida tartibga solish (ijtimoiy normalar)ning muayyan tizimi xos ekanligini aytib o‘tish mumkin.

Jamiyatda, avvalambor, biologik qonunlar emas, balki ijtimoiy qonunlar harakatda bo‘ladi.

Aytish lozimki, jamiyatning o‘zi individlarning oddiy majmuasi emas. Jamiyat – bu moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, ayrboshlash, taqsimlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va munosabatlarning mahsuli, murakkab ijtimoiy tizimdir.

Jamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy munosabatlar mahsuli sifatida qarash quyidagilarni tushunishga yordam beradi:

birinchidan, unga tarixiy-huquqiy nuqtai nazardan yondashish turli xil ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalarni ajratib ko‘rsatishga;

ikkinchidan, ijtimoiy hayotning o‘ziga xos (iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy) tomonlarini aniqlashga;

uchinchidan, ijtimoiy munosabat sub’ektlari (shaxs, oila, millat, davlat va boshqalar)ni aniq ifodalashga.

Jamiyatning muhim jihat shundan iboratki, u insonlarning o‘zaro aloqalar tizimini ifodalaydi.

Inson jamiyat bilan o‘zaro aloqada bo‘la turib rivojlanadi, o‘zining ijtimoiy mohiyatiga ega bo‘lgan xususiyatlarini rivojlantiradi (kengaytiradi, o‘stiradi) hamda jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy va siyosiy institutlar ob’ektiv zaruriyatdan kelib chiqqan holda biologik, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sabablarga ko‘ra shakllanadi. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy institutlardan tashkil topadi va shunga mos ravishda turli ijtimoiy yoki siyosiy vazifani bajaruvchi tashkilotlar, organlar, muassasalar, birlashmalar shakllanadi.

Jamiyatning birinchi tabiiy bo‘g‘inini tashkil etuvchi institut – bu oiladir. Oila tabiat qonunlariga ko‘ra yuzaga keladi va qon-

qarindoshchilik asosida uyushgan kishilardan tashkil topadi. Urug‘ esa bir nechta oilaning qon-qarindoshchilik asosida birlashishi va mulkni idora qilishi, umumiy, qarindoshchilik qoidalari asosida shakllanadi. Bir necha urug‘larning qo‘shilishi oqibatida qabila, keyinchalik umumiy til, urf-odat kabi birlik asosida millat kelib chiqqan.

Siyosiy institutlarning eng dastlabkisi davlat hisoblanadi. Davlat bilan bir vaqtda huquq ham yuzaga kelgan. Jamiat taraqqiyoti natijasida davlat bilan birga nodavlat tashkilotlar: kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, turli-tuman ijtimoiy birlashmalar shakllanib borgan.

Kishilik jamiatining ajralmas qismi va muhim elementi ijtimoiy hokimiyat hisoblanadi. Hokimiyat jamiatga hayot baxsh etib turuvchi, tizimga solib turuvchi elementdir. Hokimiyat – bu ikki yoki undan ko‘p sub’ektlar o‘rtasida buysunuvga asoslangan munosabatlar tizimidir. Hokimiyat jamiatda shakllangani bois ijtimoiy hokimiyat deb ham yuritiladi. Ijtimoiy hokimiyatning sub’ektlari sifatida oilada ota hokimiysi, urug‘da oqsoqol, qabilada sardorlar hokimiysi haqida aytib o‘tish mumkin.

Jamiat shaxslarsiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Kishilar jamiatning tuzilishida va uning rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Jamiat kishilarning bir-birlari bilan jamoa sifatida yashashga bo‘lgan tabiiy ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan. Jamiat o‘zining vujudga kelgandan boshlab bugungi kunga qadar rivojlanishida murakkab, turli shakllar va tarixiy bosqichlardan o‘tgan. Uning yetuklik darajasi, ichki tuzilishi (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tizimi) o‘zgarib borgan.

Ibtidoiy jamoa uzoq davr mobaynida urug‘chilik ko‘rinishida bo‘lgan va rivojlanishining mazkur bosqichida u ijtimoiy yoki boshqa qatlamlarga bo‘linmagan. Asta-sekin jamiat tuzilishi murakkablasha borgan sari, ya’ni iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishi bilan o‘zlarining manfaatlari, qiziqishlari va xususiyatlariga ega bo‘lgan ijtimoiy birlashmalar, guruhlar shakllana boshlagan.

Jamiatni ijtimoiy, siyosiy institutlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Kishilar – ijtimoiy mavjudot bo‘lib, ular ehtiyoj, manfaat va maqsadlariga ko‘ra birikmasdan yashay yoki mehnat qila olmaydi. Bugungi kundagi jamiat o‘ta murakkab ko‘rinishda bo‘lib, ularning ko‘pchiligi muayyan bir davlat asosida kishilarni birlashtirgan.

Davlat shakllanishi jarayoni qancha muddat bo‘lishidan qat’i nazar, barcha hollarda bu ob’ektiv jarayon bo‘lib, eng avvalo, u jamiatning ichki rivojlanishi, uning turli ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy, madaniy-tarixiy, etnik, ruhiy, axloqiy-diniy, ekologik-geografik va boshqa shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Ushbu jarayonning muayyan sabablarga ko‘ra qayd etilgan omillar doirasi o‘zgargan, biroq doimo bu sharoitlarning muayyan jamlanishi va omillardan birining yetakchi rol o‘ynashi bilan kechgan.

Davlat jamiat rivojining muayyan bosqichida undan ajralib chiqqan. O‘z navbatida, “jamiat” va “davlat” tushunchalari aynan bir tushunchalar emas va ularni, albatta, farqlash lozim. Jamiat tushunchasi davlat tushunchasidan kengroq, negaki jamiatda davlatdan boshqa tashkilotlar, ya’ni siyosiy partiyalar,

siyosiy harakatlar va boshqa jamoat birlashmalari mavjud bo‘ladi. Davlat jamiyatning faqat siyosiy qismi, uning bir elementidir.

Jamiyat bilan davlatning tarixiy davrlari ham farqlanadi. Jamiyat davlatga nisbatan ancha oldin shakllangan va o‘z rivojining boy tarixiga ega. Davlat vujudga kelishi bilan uning jamiyat bilan o‘zaro ta’sirining murakkab va ziddiyatli tarixi boshlanadi.

Jamiyatni tashkil etish shakli va boshqaruvchi tizim sifatida davlat ko‘pchilik fuqarolar manfaati yo‘lida muayyan funksiyalarni bajarish, ular o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni hal qilish, manfaatlarni muvofiqlashtirish, inqirozli vaziyatlarni hal qilish xususiyatiga ega.

**Davlatning jamiyat mavjud bo‘lishining bir shakli sifatidagi o‘rnini belgilashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:**

davlat jamiyat bilan bir vaqtida yuzaga kelgan emas;

davlat ijtimoiy rivojlanishning mahsuli sifatida vujudga kelgan;

davlat tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida shakllangan;

davlatning yuzaga kelishiga bir qator omillar, xususan, geografik, diniy, ruhiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar sabab bo‘lgan.

Adabiyotlarda davlatning kelib chiqish sabablari to‘g‘risida turli nazariyalar ilgari suriladi. Bu boradagi fikrlarning xilma-xilligi quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, davlatning kelib chiqish jarayoniga ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy, tabiiy-iqlimiylar, axloqiy-diniy, milliy-tarixiy, ma’naviy-madaniy, ruhiy, ekologik va boshqa omillar ta’sir etgan;

ikkinchidan, mazkur masala yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar turli tarixiy davrlarda yashagan va, tabiiyki, insoniyat tomonidan to‘plangan turli hajmdagi bilimlardan foydalangan;

uchinchidan, davlatning vujudga kelish jarayonini tushuntirishda olimlar o‘z qarashlarining isboti sifatida ko‘pincha dunyoning o‘zlariga ma’lum bo‘lgan hududlarnigina misol tariqasida keltirgan. Masalan, german qabilalarida davlatning kelib chiqishida harbiy omil muhim bo‘lsa, Sharq xalqlarida esa davlat suv inshootlarini barpo etish jarayonida shakllangan.

to‘rtinchidan, boshqa fanlar yutuqlaridan ruhlangan mutafakkirlar ko‘pincha bu natijalarni ijtimoiy fanlarga qo‘llashga uringan, xususan, u yoki bu fan yutuqlariga asoslanib, davlatning vujudga kelish jarayoniga boshqacha qaray boshlagan va shu bilan jamiyat rivojlanishiga boshqa omillarning ta’sir ko‘rsatishini e’tibordan chetda qoldirgan;

beshinchidan, nazariyalar mualliflarining qarashlariga ularning falsafiy va g‘oyaviy yondashuvlari ham muayyan darajada ta’sir qilganligini aytib o‘tish joiz.

Demak, muayyan nazariya orqali barcha xalqlarda davlatning yuzaga kelishini izohlash mumkin emas.

O‘z navbatida, davlat kelib chiqishining “osiyocha” va “yevropacha” yo‘llari mavjudligini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

**“Osiyocha” yo‘l.** Osiyoda dastlabki davlatlar bundan besh ming yillar oldin Nil, Tigr, Hind, Ganga, Yanszi, Yevfrat kabi yirik daryolarning havzalarida yuzaga kelgan.

**Ushbu hududlarda davlat vujudga kelishining asosiy omillari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:**

- sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi natijasida yirik irrigasion tarmoqlarni tashkil etish yuzasidan ommaviy ishlarni yo‘lga qo‘yishning zarurati;
- mazkur ishlarga aholini keng miqyosda jalb etilishi;
- irrigasion ishlarga jalb etilgan kishilar ustidan yagona va markazlashgan rahbarlikni amalga oshirishning zarurati va boshqalar;

**“Yevropacha” yo‘l.** Yevropada davlatlarning vujudga kelishida asosiy omil bo‘lgan xususiy mulkning shakllanishi jamiyatda mulkiy tengsizlikning va shu asosda turli xil tabaqalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Shu bilan birga, turli xalqlarda davlatning vujudga kelishida yuqoridagi omillar bilan bir qatorda boshqa omillar ham muhim o‘rin tutgan. Davlatlarning kelib chiqishi quyida ko‘rsatib o‘tiladigan turli xil nazariyalar doirasida tadqiq etiladi.

**Teologik nazariya.** Teologik (diniy) nazariya (yunoncha theos – xudo, logos – tushuncha, ta’limot, xudo to‘g‘risidagi ta’limotni anglatadi. Diniy ta’limotlar davlat va huquqning vujudga kelishi to‘g‘risidagi ilk ta’limotlardir. Davlatchilik va huquq shakllanishi bilan uni diniy, ilohiy tarzda tushunish yuzaga kelgan.

Avreliy Avgustin (354–430), Al-Mavardi (974–1058), Ibn Rushd (1126–1198), Foma Akvinskiy (1225–1274), Ibn Xaldun (1332–1406) kabi mutafakkirlar hamda yahudiylilik, xristianlik va islom dini vakillari tomonidan davlat va huquqning kelib chiqishi diniy asosda tushuntiriladi<sup>1</sup>.

Ushbu nazariya vakillarining fikricha, butun olam, shu jumladan davlat va huquqning kelib chiqishi ham xudoning irodasi bilan bog‘liq. Podsho va din vakillari xudoning irodasini ifodalovchilardir. Shuning uchun ham fuqarolar ularning amriga so‘zsiz bo‘ysunishlari lozim bo‘ladi.

Ushbu nazariya XII–XIII asrlarda yuqori mavqega ega bo‘ldi. Bu davrda G‘arbiy Yevropada esa “ikki qilich” nazariyasi keng ommalashgan. Unga ko‘ra cherkov bitta qilichni o‘zida saqlagan bo‘lsa, ikkinchi qilichdan foydalanish huquqini hukmdorlarga jamiyatdagi masalalarni hal qilish uchun taqdim etadi. Shu bois Yevropa davlatlari monarxlari hokimiyati qonuniy bo‘lishi uchun katolik cherkovi boshlig‘i Rim papasidan yorliq olishlari lozim bo‘lgan. Shu bilan diniy tashkilot bo‘lgan cherkovning dunyoviy davlat ustidan ustunligi ta’minlangan.

**Patriarxal nazariya.** Mazkur nazariyaning asoschilari Aristotel, Aflatun va Konfusiy hisoblanadi. Lekin ushbu nazariya XVII–XVIII asrlarda Genri Men,

<sup>1</sup> Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошқ.; проф. Х.Т.Одилқориев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. –Б.44.

Mixaylovskiy kabi olimlarning asarlari orqali keng tarqaldi. Mazkur nazariya namoyandalarining fikricha, davlat oilaning rivojlanishi asosida vujudga kelgan. Ibtidoiy oilaga ota boshchilik qilib, keyinchalik davlat vujudga keladi va ota hokimiyati merosiy bo‘ladi. Aflatun o‘zining “Davlat” deb nomlangan mashhur asarida oiladan o‘sib chiqqan yuksak adolatli davlatni tasvirlaydi. Unda podsho hokimiyati otaning o‘z oila a’zolari ustidan hukmronligiga o‘xshatiladi.

Patriarxal nazariya g‘oyalari XVII asrda ingliz olimi Filmerning “Patriarx” asarida rivojlantirildi. U mazkur asarida hokimiyatning xudodan olingani, keyin uning to‘ng‘ich o‘g‘li – Patriarxga, undan keyingina o‘z avlodlari – qirollarga berilganini isbotlaydi. Mazkur nazariyada davlat katta oila sifatida tavsiflanadi. Hukmdorning hokimiyatiga millat otasining hokimiyati sifatida qaraladi. Hukmdor xuddi oila boshlig‘i kabi jamiyat a’zolari haqida qayg‘urishi, o‘z navbatida, oila a’zolari otaga qanday bo‘ysungan bo‘lsa, davlat boshlig‘iga ham shunday sodiq va itoatkor bo‘lishlari lozim.

**Ijtimoiy shartnomalar nazariysi.** Mazkur nazariya XVII–XVIII asrlardan boshlab keng tarqalgan bo‘lsada, u dastlab Hindiston va qadimgi Xitoy mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan. Ushbu nazariya vakillarining (J.Lokk, T.Gobbs, B.Spinoza, A.Radishchev, J.Russo, G.Grosiy) fikricha, davlat hokimiyati kishilarining o‘zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganliklarining ifodasidir. Bunda davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlar tizimi vujudga kelib, o‘z navbatida, ularda shartnomalarini bajarmaganliklari uchun javobgarlik tug‘iladi.

Davlatning vujudga kelishi to‘g‘risidagi shartnomalar nazariysi tabiiy huquq nazariyasi negizida vujudga kelib, o‘rta asrlarda shakllanib kelayotgan yangi tabaqa uchun hukmdorning mutlaq hokimiyatini cheklash, insonning hokimiyatdan mustaqil erkin iroda egasi ekanligini asoslashga xizmat qildi.

Mazkur nazariyaning mazmuni inson huquqlari ular tug‘ilganidan yuzaga keladi degan g‘oyani o‘z ichiga qamrab oladi. Rim huquqshunoslari fuqarolar huquqlari va xalqlar huquqlari bilan birga tabiiy huquqni ham ajratib ko‘rsatgan. Bugungi kunda tabiiy huquqlar har qanday davlat uchun umummajburiy norma sifatida e’tirof etiladi va ularning bu boradagi majburiyatlarini xalqaro huquq normalari bilan belgilab qo‘yilgan.

Ijtimoiy shartnomalar nazariyasining ko‘pgina g‘oyalari demokratik davlatlarning konstitusiyalarida o‘z ifodasini topgan. Shu ma’noda davlatning asosiylarini hisoblanadigan konstitusiyalarni muayyan darajada ijtimoiy shartnomalar deb ta’riflash mumkin. Chunki unda inson va fuqarolarning asosiylarini va erkinliklari bilan bir qatorda ularning burchlari ko‘rsatib o‘tiladi. O‘z navbatida, davlatning jamiyat va fuqarolarga nisbatan huquq va majburiyatlarini ham konstitusiyalarda mustahkamlanadi. Bir so‘z bilan aytganda, demokratik davlatda davlat va fuqaro o‘zaro huquq va majburiyat orqali bog‘langan bo‘ladi.

**Materialistik nazariya.** Ushbu nazariyaning asosiylarini F.Engels (“Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi” asari) K.Marksning asarlari masalan, “Kapital”da ifodalangan. Ularning fikricha, davlat, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, bir-biriga qarama-qarshi sinflarning yuzaga kelishi natijasida vujudga kelgan. Bunda davlat iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron bo‘lgan tabaqalarning quyi tabaqalarni bostirib turish vositasi sifatida maydonga

chiqadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra murosasiz sinfiy qarama-qarshiliklar faqat muayyan tarixiy sharoitlardagina davlat vujudga kelishi sababi sifatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shuningdek, umumiyl ishlarni ado etish, jamiyatni boshqarishni takomillashtirish, mehnat taqsimotining bir shakli sifatida ushbu boshqaruvni ixtisoslashtirish zarurati davlatning vujudga kelishi sabablari sifatida keltirib o‘tiladi.

**Zo‘ravonlik nazariyasi.** Mazkur nazariya vakillari (Ye.Dyuring, L.Gumplovich, K.Kautskiy (XIX asr)) davlatning vujudga kelishiga harbiy-siyosiy omillar sabab bo‘lgan deb hisoblaydi. Ya’ni zo‘ravonlik nazariyasining asosida davlat va huquqni kelib chiqishining bosh sababi – bosqinchilik, zo‘ravonlik va bir qabilani ikkinchi qabila tomonidan zulmga duchor etish degan g‘oya yotadi. Bunda davlat bosib olingan hududlar (xalqlar)ni boshqarish uchun zo‘rlov apparati vazifasini o‘taydi. Ta’kidlash joizki, Yevropadagi ayrim xalqlar, xususan, german qabilalari va vengerlarda davlatning kelib chiqishida aynan harbiy-siyosiy omillar muhim rol o‘ynagan.

**Psixologik (ruhiy) nazariya.** Mazkur nazariya XIX asrlarda yuzaga kelgan bo‘lib, uning asosiy g‘oyalari G.Tard, L.Petrajiskiy va boshqalarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ularning fikricha, kishilarning ruhiyati jamiyatning, shu jumladan axloq, huquq, davlatning rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omildir.

Psixologik nazariya vakillari jamiyat va davlatni insonlarning ruhiy uyushmasi sifatida ham talqin etadilar. Unga ko‘ra, huquqning negizi bo‘lib individual ong hisoblanadi. Ularning fikricha, davlat hokimiyati biror-bir kishining irodasi emas, balki fuqarolarning davlatga bog‘liqligi to‘g‘risidagi ruhiy tasavvurlaridan kelib chiquvchi kuchdir.

**Irrigasion nazariya.** Ushbu nazariyaning asosiy namoyandasini nemis olimi K.Vittfogel hisoblanadi. Uning fikricha, davlat Sharq xalqlarida yirik irrigasion inshootlarini barpo etish zarurati asosida kelib chiqqan. Mesopatamiya, Misr, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlarda yirik irrigasion qurilish ishlarini tashkil etish uchun kuchli, markazlashgan boshqaruv apparati tashkil etilgan. Mazkur nazariya vakillarining fikricha, geografik va iqlim omillari ham davlatning kelib chiqishiga ta’sir o‘tkazadi. Shu bois noqulay bo‘lgan shart-sharoitlarda qishloq xo‘jaligini tashkil etish muammolarini hal etish Sharqdagi ayrim hududlarda davlatning kelib chiqish jarayonini tezlashtirgan.

### *Nazorat savollari:*

1. Davlat jamiyatning bir qismi ekanligiga amaliy misollar keltiring.
2. Jamiyatning rivojlanishiga yordam beruvchi omillarni sanab bering.
3. Davlat va huquq vujudga kelishiga oid ko‘plab nazariyalar mavjudligini tushuntirib bering.
4. Osiyodagi qadimgi davlatlarning paydo bo‘lishini izohlovchi nazariyalarni tahlil eting.

## **2. DAVLAT FUNKSIYALARI TO‘G‘RISIDAGI BILIMLARNI**

### **SHAKLLANTIRISHDAGI YONDASHUVLAR**

#### **Reja:**

1. Davlat funksiyalari tushunchasi.
2. Davlat funksiyasining davlat maqsadi va vazifalari bilan o‘zaro nisbati.
3. Davlat funksiyalarini turli asoslarga ko‘ra tasniflash.
4. Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllari.
5. Davlat funksiyalarining rivojlanishi va o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar.

**Tayanch tushunchalar:** davlat, funksiya, vazifa, qaror, qonun, mudofaa.

---

Ma’lumki, davlat funksiyalari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish uning mazmun-mohiyati, jamiyatda tutgan o‘rni va ijtimoiy vazifasini yanada chuqurroq anglab olishga xizmat qiladi. Har qanday davlatning mohiyati, eng avvalo, uning faoliyatida, funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Davlatning faoliyat sohalari xilma-xil bo‘lganligini hisobga olib, uning faoliyati bosh yo‘nalishlarini alohida ajratish zarurati kelib chiqqan. Ana shu bosh yo‘nalishlarda davlat mohiyati mujassam bo‘ladi, amalga oshiriladi va rivoj topadi hamda ular davlatning mavjud bo‘lish tarzini ifoda etadi.

Davlat funksiyalari uning vazifalari va mohiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, davlatning mohiyati o‘zgarib borgan sari funksiyalari ham shunga mos ravishda o‘zgarib boradi.

---

**Davlat funksiyalari** – *bu davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyatining asosiy (bosh) yo‘nalishlaridir.*

---

Davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishishi uchun ma’lum bir vazifalarni hal qilishi lozim, bu esa, o‘z navbatida, ushbu vazifalarni bajarishga qaratilgan tegishli funksiyalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Falsafada **funksiya** deganda biron-bir ob'ekt xususiyatlarini ma'lum munosabatlar tizimidagi tashqi ifodasi tushuniladi. Funksiya – vakolat doirasidan kelib chiquvchi faoliyatdir. Chunki “funksiya” lotin tilidan olingan bo'lib, “faoliyat” degan ma'noni anglatadi.

**Davlat funksiyalarining quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:** davlat funksiyalarida mamlakat ichki va xalqaro maydondagi amaliy faoliyati namoyon bo'ladi; davlat funksiyalari uning tarixiy taraqqiyotidagi maqsad va vazifalariga mos ravishda yuzaga keladi va rivojlanib boradi; davlat funksiyalarida jamiyat hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalardagi o'zgarishlar va islohotlar aks etadi.

O'z navbatida, davlat funksiyasini uning alohida organlari funksiyalaridan farqlash lozim. Davlat mexanizmiga kiruvchi barcha davlat organlari va tashkilotlarining har biri o'z vakolatlari doirasida davlat faoliyatining muayyan sohalarida o'z funksiyalarini amalga oshiradi.

## **2. Davlat funksiyasining davlat maqsadi va vazifalari bilan o'zaro nisbati**

Davlat funksiyalari haqida gapirganda uning maqsadi va vazifalariga ham alohida to'xtalib o'tish lozim. Chunki davlat funksiyalari davlat maqsadi va vazifalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, davlat o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi uchun ma'lum bir vazifalarni hal qilishi lozim, bu esa tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Shuni qayd etish lozimki, “maqsad”, “vazifa”, “funksiya” tushunchalari bir-biridan ajralmas bo'lib, ular davlatning mohiyatiga mos ravishda shakllanadi.

---

**Maqsad** bu muayyan davlatning taraqqiyotidagi keyingi bosqichda erishmoqchi bo'lgan holati bo'lsa (masalan: fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy demokratik davlat barpo etish), **vazifa** esa ushbu maqsadga erishish uchun hal etilishi lozim bo'lgan masalalar, **funksiya** – vazifalar yechimiga yo'naltirilgan faoliyat yo'nalishidir.

## **Davlat maqsadining quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:**

- davlat faoliyatini yo‘naltiruvchi va tartibga soluvchi, uning bajarishi lozim bo‘lgan vazifalari ketma-ketligi va xarakterini belgilab beruvchi bevosita motivi bo‘lib maydonga chiqadi;
- muayyan vazifalarni bajargandan keyin kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan davlatning obrazi va modeli sifatida namoyon bo‘ladi;
- davlat faoliyatini rejalashtirish va taraqqiyotning muqobil yo‘nalishlarini tanlash imkonini beradi;
- davlat faoliyatini mantiqiylilik va tizimlilik asosida amalga oshishini ta’minlaydi;
- maqsadga erishish amaldagi hayotiy vaziyat va maqsad o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish jarayoni hisoblanadi.

## **Davlatning vazifalari quyidagi xususiyatlarga ega:**

- funksiyaning mavjud bo‘lishi (amalga oshishi)ni taqozo etadi;
- uning amalga oshishidan oldin yuzaga keladi;
- funksiyaga nisbatan ob’ektiv xarakterga ega;
- funksiyaning mazmunini belgilab beradi;
- funksiyaning shakl va metodlariga ta’sir qiladi;
- funksiyasiz davlatning birorta ham vazifasi hal etilmaydi;
- bitta funksiya orqali davlatning bir qator vazifalari bajarilishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

Davlat va jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida ular oldiga ma’lum bir vazifalarning qo‘yilishi tegishli funksiyalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi, chunki davlatning funksiyalari amalga oshirilmagan taqdirda uning vazifalari ham amalga oshmay qoladi. Vazifa bir tomondan ma’lum xususiyatga ega bo‘lmagan biror-bir maqsadga erishish zaruratini, ikkinchi tomondan esa ma’lum faoliyat turini amalga oshirish zaruratini taqozo etadi.

Vazifa va funksiyalarning o‘zaro nisbatida funksiyalar emas, balki vazifalar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Vazifa bir tomondan biror-bir maqsadga erishish, ikkinchi tomondan esa ma’lum faoliyat turini amalga oshirish zaruratini

o‘z ichiga oladi. Davlatning funksiyalari uning vazifalariga bog‘liq bo‘ladi, chunki vazifalar funksiyalarning mavjudligini va ularning mazmunini belgilaydi, ularni amalga oshirish shakl va usullariga ta’sir ko‘rsatadi. Funksiyalar mazmuni davlatning qanday faoliyat olib borayotganligi, shu muhitda boshqaruva harakatlarini qay yo‘sinda yuritayotganligi, uning tegishli organlari nima bilan shug‘ullanayotganligini ko‘rsatadi.

### **3. Davlat funksiyalarini turli asoslarga ko‘ra tasniflash**

Yuridik adabiyotlarda davlat funksiyalarini tasniflashda bir xil yondashuv mavjud emas. Bunga sabab taraqqiyotning turli bosqichlarida turgan davlatlar mavjud ob’ektiv sharoitdan kelib chiqqan holda o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarning mohiyatiga mos ravishda faoliyat yuritishidir.

Davlat funksiyalari asosan quyidagi to‘rt asosiy guruhga tasniflanishini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- a) faoliyat doirasi bo‘yicha;
- b) amal qilishining davomiyligi bo‘yicha;
- v) ijtimoiy ahamiyati bo‘yicha;
- g) amalga oshirish shakllari bo‘yicha.

**Davlat funksiyalari faoliyat doirasi bo‘yicha ichki va tashqi funksiyalarga bo‘linadi.**

---

**Ichki funksiyalar** davlatning ichki vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan bo‘lib, davlatning jamiyat hayoti ustidan rahbarligini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini namoyon qiladi.

**Tashqi funksiyalar** esa xalqaro-huquqiy munosabatlarning sub’ekti sifatida ishtirok etayotgan davlatning davlatlararo miqyosdagi vazifalarni hal qilishi bilan bog‘liqdir.

---

- Davlatning asosiy ichki funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:**
- iqtisodiy funksiya;
  - ijtimoiy funksiya;

- siyosiy funksiya;
- huquq-tartibotni ta'minlash funksiyasi;
- tinchlikni ta'minlash funksiyasi;
- ekologik funksiya va boshqa funksiyalar.

**Iqtisodiy funksiya** – bu davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish borasida asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, ushbu sohada boshqaruvni amalga oshirish va tartibga solib turishdan iboratdir. Bundan tashqari, davlat budgetini shakllantirish, jamiyatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini aniqlash, turli xil mulk shakllarini tenglik sharoitida amal qilinishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabilar ham davlatning iqtisodiy sohadagi funksiyasi doirasiga kiradi.

**Ijtimoiy funksiya** – bu aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, insonlarga munosib turmush tarzini yaratish, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash va madaniyatni rivojlantirish va boshqalar.

**Siyosiy funksiya** – bu davlat (jamiyat)ning siyosiy hayotini boshqarish, davlat organlarini shakllantirish hamda ularning faoliyatini tashkil etishdan iborat.

**Huquqiy tartibotni muhofaza qilish funksiyasi** – davlatning jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlash, inson va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kabilarga qaratilgan.

**Tinchlikni ta'minlash funksiyasi** – bu davlat tomonidan aholining tinchtotuv yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, turli millatlarni va ijtimoiy guruhlarni murosai madorada saqlab turish, ularning orasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish hamda bartaraf etishdan iborat.

**Davlatning ekologik funksiyasi** – uning jamiyat talab va ehtiyojlarini yanada to'liqroq ta'minlash va jamiyat a'zolarining yashash, mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish vazifalarini hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tiklash va ko'paytirish borasidagi faoliyatidir. Ichki tuzilishiga ko'ra, davlatning ekologik funksiyasi o'zaro bog'liq uch yo'nalishda amalga oshiriladi: a) atrof tabiiy muhit

ob'ektlarini saqlash; b) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; v) tabiiy resurslarni tiklash. Davlatning ekologik funksiyasi jamiyatning iqtisodiy va ekologik manfaatlarini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy resurslarni tiklash, ko'paytirish, fuqarolar uchun qulay tabiiy atrof muhitni yaratish maqsadlariga qaratilgan.

**Davlatning asosiy tashqi funksiyalariga quyidagi larni kiritish mumkin:**

- boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik funksiyasi;
- mudofaa funksiyasi.

**Boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik funksiyasi** – bu davlatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatidir. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy darajasi barcha taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmushini integrasiyalashtirish, har bir davlatning alohida ichki muammolari hamda butun jahon hamjamiyati muammolarini yanada samarali hal qilish uchun ularning umumiy sa'y-harakatlarini birlashtirishni ob'ektiv ravishda taqozo etadi. Bunday hamkorlik integrasiya masalalariga keng va o'zaro foydali yondashuvni, nafaqat muayyan bir mamlakat, balki hamkorlikning boshqa ishtirokchilari manfaatlariga ham javob beradigan rasional yechimlarni umumiy harakatlar bilan topa bilishni nazarda tutadi.

**Davlatlararo iqtisodiy hamkorlikda** xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni kooperasiyalashtirish va ixtisoslashtirish, eng yangi texnologiyalarni ayirboshlash va joriy etish, tovar aylanishini muvofiqlashtirish, moliya-kredit aloqalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni umumiy muvofiqlashtirishni Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashtirilgan muassasalari amalga oshiradi. Shuningdek, iqtisodiy hamkorlik davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar asosida ham amalga oshiriladi.

**Davlatlarning siyosiy sohadagi** hamkorligi davlat hokimiyatining barcha tarmoqlarida, ya'ni parlamentlararo, hukumatlararo miqyosda amalga oshiriladi. BMT hozirgi zamon davlatlarining siyosiy manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi asosiy xalqaro organ hisoblanadi. Nizolarni, shu jumladan qurolli mojarolarni

tartibga solish masalalari bilan BMTning doimiy faoliyat yurituvchi organi – Xavfsizlik kengashi shug‘ullanadi. Unga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, davlatlararo munosabatlarning turli sohalarida hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha keng huquqlar berilgan.

Jahonda siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash ishiga mintaqaviy xalqaro tashkilotlar Shanxay hamkorlik tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti va boshqalar ham munosib hissa qo‘shmoqda. Siyosiy xususiyatga ega bo‘lgan ko‘pgina masalalarni davlatlar bevosita diplomatik yo‘l bilan ikki yoki ko‘p tomonlama muzokaralar asosida hal qiladi.

**Madaniy va ilmiy-texnik hamkorlik** turli shakllarda va davlatlararo miqyosda amalga oshiriladi. BMTda bunday hamkorlikni muvofiqlashtirish bilan ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha ixtisoslashgan muassasalar (YUNESKO), Xalqaro atom energetikasi xalqaro agentligi (MAGATE) va boshqa tashkilotlar shug‘ullanadi. Madaniy va ilmiy-texnik rivojlanishning alohida masalalari esa davlatlar va nohukumat tashkilotlari o‘rtasidagi ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama shartnomalar asosida hal qilinadi. Xalqaro va ilmiy-texnik hamkorlik doirasida ilmiy ma’lumotlar, san’at asarlari, musiqa va sahna madaniyati yutuqlarini almashish, o‘zaro mutaxassislar tayyorlash, fan va madaniyat masalalariga doir turli konferensiyalar va festivallar, olimlar, madaniyat arboblari va sportchilar o‘rtasida bevosita aloqalar o‘rnataladi.

**Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik** yer yuzida normal ekologik vaziyatni saqlash bo‘yicha ko‘pgina davlatlarning sa’y-harakatlarini birlashtiradi. Ushbu faoliyat keng qamrovli xususiyatga ega bo‘lib, insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ekologik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. U BMTning ixtisoslashgan muassasalari yo‘nalishida hamda mintaqaviy va boshqa davlatlararo organlar doirasida faol amalga oshiriladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun davlatlarning tibbiyot, biologiya, kosmonavtika va elektronika sohalaridagi eng so‘nggi yutuqlari qo‘llaniladi. Davlatlarning tashqi faoliyati xalqaro huquqiy normalarga asoslanadi hamda jahon hamjamiyatiga kiruvchi barcha xalqlarning tub manfaatlari va milliy xususiyatlarini hisobga oladi.

**Mudofaa funksiyasi.** Davlatning mamlakatni tashqi tazyiqlardan mudofaa qilish funksiyasi davlat faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Davlatning mudofaa funksiyasi iqtisodiy, siyosiy, diplomatik va harbiy usullar bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon davlatlarining aksariyati mudofaa doktrinasini qabul qilgan bo‘lib, uning mohiyati boshqa davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan uyushtirilishi mumkin bo‘lgan agressiyani bartaraf etish uchun maqbul darajada yetarli bo‘lgan kuch va vositalarni yaratishdan iborat. Harbiy qarshilik masalalariga bunday yondashuv xalqlar hayotida urushlar ro‘y berishi ehtimolini jiddiy kamaytiradi va kelgusida ularning sekin-asta yo‘qolib borishi istiqbolini nazarda tutadi. Mamlakat mudofaasi funksiyasi tushunchasi keng qamrovli va ko‘p qirralidir. U mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, tinchlik davri va harbiy davrda qurolli kuchlarning jangovar qudratini saqlash bo‘yicha davlat tadbirlarining butun tizimini o‘z ichiga oladi.

Davlatning mudofaa faoliyati uning mudofaa doktrinasiga asoslanadi va quyidagi asosiy yo‘nalishlardan tashkil topadi: mamlakatning mudofaa qudratini mustahkamlash, qurolli kuchlarni muntazam takomillashtirish, ularning jangovar qobiliyati va tayorgarligi darajasini oshirib borish, davlat chegaralarini qo‘riqlash, fuqarolar mudofaasini tashkil qilish, qurolli kuchlar zaxirasini harbiy tayyorlash va boshqalar.

**Davlat funksiyalari amal qilish davomiyligi bo‘yicha doimiy va muvaqqat (vaqtinchalik)ga bo‘linadi.**

**Doimiy funksiyalar** qatoriga davlat mavjudligining va rivojlanishining barcha bosqichlariga xos bo‘lgan funksiyalar (masalan: iqtisodiy funksiya) kiritilsa, **muvaqqat funksiyalarga** esa davlat o‘z oldiga qo‘ygan muayyan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotadigan funksiyalar kiritiladi (masalan, tabiiy yoki texnogen halokat va ularning oqibatlarini bartaraf etish va boshqalar).

**Ijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra davlat funksiyalari asosiy va asosiy bo‘lmagan funksiyalarga bo‘linadi.**

Davlatning asosiy va asosiy bo‘lidan funksiyalari o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, davlat taraqqiyotining muayyan bosqichida u yoki bu funksiyalar ijtimoiy ahamiyati yuzasidan ustuvor ahamiyat kasb etadi. Albatta, bunday tasniflash shartli ahamiyat kasb etadi. Muayyan davlatning har bir funksiyasi shu davlat uchun ob’ektiv zaruratdir. Davlat faoliyatining barcha turlari teng darajada muhim, biroq bu fikr, turli bosqichlarda birinchi navbatda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olish imkoniyatini istisno qilmaydi. Mana shu ustuvor yo‘nalishlar davlatning asosiy faoliyat yo‘nalishlari, funksiyalariga aylanadi.

**Amalga oshirishning huquqiy shakllari bo‘yicha davlat funksiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin:** huquq ijodkorligi; ijro etish; huquqni muhofaza qilish.

#### **4. Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllari**

Davlat o‘z funksiyalarini amalga oshirishda muayyan shakl va usullardan foydalanadi. Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllarining huquqiy va huquqiy xarakterga ega bo‘lidan turlari mavjud.

---

**Davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakllari bo‘yicha quyidagilarga bo‘lish mumkin:**

- huquq ijodkorligi;
  - ijro etish;
  - huquqni muhofaza qilish.
- 

**Huquq ijodkorligi** bu normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va ularni qabul qilish bo‘lib, mazkur faoliyatsiz davlatning boshqa funksiyalarini amalga oshirib bo‘lmaydi.

**Huquqni ijro etish** funksiyasi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan qoidalarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Bunda qonunchilikda belgilangan talablarni kundalik hayotda bajarishga va boshqaruv xarakteriga ega bo‘lgan turli xil masalalarni hal qilishga qaratilgan ishlar amalga oshiriladi.

**Huquqni muhofaza qilish** faoliyatiga huquq-tartibotni saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash, huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha chora ko'rish, yuridik ishlarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish kabilarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, dalat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy bo'lмаган шакллари ham mavjud.

Davlat funksiyalarini amalga oshirishning ushbu shakllariga quyidagilar kiradi:

1) tashkiliy-tartibga soluvchi – davlat organlarining hujjatlar loyihalarini tayyorlash, saylovlarni tashkil etish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat bilan bog'liq faoliyat;

2) tashkiliy-xo'jalik – kreditlash, ta'minot, statistika, buxgalterlik hisobi bilan bog'liq bo'lган tezkor-texnik va xo'jalik ishlari;

3) tashkiliy-mafkuraviy – yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tushuntirish, ijtimoiy fikrni shakllantirish, aholiga murojaat qilish kabi davlat organlarining turli funksiyalarini mafkuraviy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq faoliyat.

---

Davlat funksiyalari muayyan usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Ushbu usullar sifatida ishontirish va majburlov, tavsiya va rag'batlanirishlarni ko'rsatib o'tish mumkin<sup>2</sup>.

---

**Ishontirish** sub'ektlarni ularning irodasiga mos ravishda tanlash erkinligini ta'minlagan holda muayyan faoliyat yuritishga undashdir. Ishontirish sub'ektiv huquq, qonuniy manfaatlar, imtiyozlar va boshqa ijobiy yuridik vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Davlat asosiy usul sifatida, avvalo, ishontirish usulidan maksimal tarzda foydalanishi lozim. Ishontirish manfaatdorlikka,

---

<sup>2</sup> Najimov M.K. Davlat funksiyalari. –T.: TDYU, 2018.–B.28.

qonuniylikning isbotlanishiga va huquq normalariga mos keladigan ongli yurish-turishning maqsadga muvofiqliligiga asoslanadi.

**Majburlash** – kishilarni tanlov huquqini cheklagan holda kuch ishlatish orqali muayyan faoliyat yuritishga undashni nazarda tutadi. Majburlov to‘xtatib qo‘yish, jazolash, mahrum qilish kabi yuridik vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Rag‘batlantirish** – kishilarni rag‘batlantirish tizimi orqali jamiyat va davlat manfaatdor bo‘lgan ijtimoiy foydali faoliyat yuritishga undashdir.

**Tavsiya qilish** – kishilarni jamiyat va davlat nuqtai nazaridan istalgan va ijobiy xatti-harakatni amalga oshirishga yo‘naltirishdir.

Yuqoridagilar bilan birga boshqa huquqiy adabiyotlarda davlat funksiyalarini amalga oshirishning iqtisodiy va ma’muriy usullari haqida ham aytib o‘tiladi.

**Iqtisodiy usullar sifatida** davlat boshqaruvini amalga oshirishda quyidagi iqtisodiy vositalardan foydalanish nazarda tutiladi: muayyan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar uchun soliqlarni kamaytirish; iqtisodiyotning u yoki bu tarmog‘iga investisiya kiritish va boshqalar.

**Ma’muriy usullar** davlat organlarining qonuniy ko‘rsatmalarini bajarish majburiyati bilan bog‘liqdir. Bunday usullar qatoriga davlat rag‘batlantiruvi va man etish usullarini kiritish mumkin. Davlat tomonidan rag‘batlantirishga, masalan, chet el investisiyalarini rag‘batlantirish maqsadida chet el kapitali bilan faoliyat yuritadigan korxonalarni bir necha yilga soliqlardan ozod qilishni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Man etishga qaratilgan usulni qo‘llash orqali davlat u yoki bu faoliyat yuritishga o‘zining salbiy munosabatini bildiradi. Bunda davlat jamiyat manfaatlari uchun zararli va mos kelmaydigan faoliyat olib borilishiga to‘sqinlik qiladi.

## **5. Davlat funksiyalarining rivojlanishi va o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar**

Taraqqiyotning muayyan bosqichida turgan turli davlatlar bir xil funksiya (masalan, ijtimoiy funksiya)ga ega bo‘lmaydi, ularni amalga oshirish mazmuni va usullari bir-biridan farq qiladi. Har bir bosqichga qat’iy belgilangan funksiyalar mos keladi deb o‘ylash to‘g‘ri emas. Albatta, davlat taraqqiyoti davomida vaqt-

vaqtin bilan yangi funksiyalar yuzaga keladi, lekin eskilari ham izsiz yo‘qolib ketmaydi. Faqat ularning ko‘rinishi o‘zgarishi, yangi mazmun bilan boyishi mumkin.

Davlatning funksiyalari u mavjud bo‘lgan butun tarixiy davr mobaynida doimiy ravishda xos bo‘ladi. Agar hokimiyat tepasiga boshqa siyosiy kuchlar kelsa, u holda davlatning funksiyalari ham o‘zgaradi. Shu bilan birga, ma’lum davrlarda ustuvor manfaatlarning o‘zgarishi ham ro‘y berishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, funksiyalarning ham o‘zgarishiga olib keladi. Bunda birinchi o‘ringa birlamchi ahamiyatga ega bo‘lgan funksiyalar chiqishi tabiiydir. Ijtimoiy va tabiiy borliqning turli sohalarida global o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bugungi kunda ayrim funksiyalarning ahamiyati yanada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol tarzida ekologik muvozanatni saqlash zarurati; turli xil kasalliklar (shu jumladan, OITS)ga qarshi kurash; alohida mamlakatlarning manfaatlari doirasiga sig‘maydigan muammolarni hal qilishda xalqaro madaniy va ilmiy-texnik hamkorlik (koinotni o‘zlashtirish, dunyo okeani resurslarini o‘rganish va ulardan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, transport vositalarini rivojlantirish, milliy, etnik, diniy nizolarni hal etish va boshqalar)ni ko‘rsatib o‘tish joiz.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Davlat funksiyalarini, uning vazifalaridan qanday jihatlari bilan farqlanadi?
2. Davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakllarini izohlang?
3. Davlat funksiyalarining rivojlanishiga qanday omillar ta’sir etadi?
4. Davlatning mudofaa funksiyasini izohlab bering.

### **3. Ijtimoiy munosabatlar va huquqiy masalalar mohiyatini olib berishda kazuslardan foydalanish**

**Reja:**

1. Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi.
2. Ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishning ob'ektiv zaruriyati.
3. Ijtimoiy normalar tizimi: urf-odat, diniy, axloqiy normalar, jamoat tashkilotlari qoidalari va boshqa ijtimoiy normalar.
4. Ijtimoiy va huquq normalarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari.
5. Huquq-ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishning turi sifatida.
6. Huquq prinsiplari.
7. Huquqning funksiyalari.
8. Huquqning mohiyati haqidagi nazariyalar.

## **IJTIMOIY MUNOSABATLAR TUSHUNCHASI**

Ma'lumki, jamiyat – bu kishilar o'rtasidagi o'zaro harakatlarning mahsuli, ular hayotining ma'lum bir tashkiliyligi, mohiyati jihatidan kishilar va ularning guruhlari o'rtasidagi turli xil (iqtisodiy, fuqarolik, oilaviy, ma'naviy, mehnat, diniy va boshqa) munosabatlar va aloqalar yig'indisidir.

**Ijtimoiy munosabatlar** – ijtimoiy sub'ektlar o'rtasidagi hayotiy ne'matlarni taqsimlash, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish yuzasidan kelib chiqadigan aloqalardir. Ijtimoiy munosabatlarning quyidagi turlari mavjud: milliy, etnik, guruhiy, shaxsiy va boshqalar. Ijtimoiy munosabatlar faqat ijtimoiy sub'ektlar, ya'ni shaxslar va ularning uyushmalari o'rtasida yuzaga keladi. Shu jihatdan olganda, insonning o'zi yaratgan sun'iy ob'ektlari va tabiat ne'matlari (o'simlik va hayvonot dunyosi)dan foydalanishini ijtimoiy aloqalar sifatida tavsiflab bo'lmaydi.

Ijtimoiy munosabatlar kishilarning o'zaro mavhum aloqalari emas. U moddiy va ma'naviy madaniyatda o'z ifodasini topgan kishilarning bir-biriga ta'siri, muloqoti, qiziqish va ehtiyojlarining uyg'unlashuvi, fikr va e'tiqodlarining qiyoslashuvi, faoliyat va tajriba almashuvi natijasidir. Muloqotda kishilarning rasional, emosional va erkin tarzda bir-biriga ta'siri, kayfiyatları va qarashlari shakllanadi, turmush va xulq-atvor tarzi, odalar, qiliqlar o'zlashtiriladi, ahillik, hamkorlik kabi guruhiy yoki ijtimoiy faoliyatini ifodalovchi xislatlar yuzaga keladi.

"Ijtimoiy munosabatlar", "normativ tartibga solish", "ijtimoiy normalar" kabi kategoriyalar davlat va huquq hodisalarini, xususan, huquqning funksiyalari va vazifalarini yanada teranroq anglashda muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlar nafaqat huquq normalari bilan, balki boshqa ijtimoiy normalar bilan ham tartibga solinadi. Ayni paytda shaxslarning texnik ob'ektlardan, hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanishi bilan bog'liq masalalar soj ijtimoiy normalar bilan tartibga solinmaydi.

## **IJTIMOIY MUNOSABATLARNI NORMATIV TARTIBGA SOLISHNING OB'EKTIV ZARURIYATI**

Har qanday jamiyatda uning a'zolari munosabatlarini tartibga solish jamiyat mavjudligining zaruriy shartidir. Ijtimoiy hayotda tartibga solish – odamlar va ular jamoalari xatti-harakatlarini belgilash, ushbu xatti-harakatlarning doimiyligi va rivoji uchun zarur yo'naliishlar berish, uni aniq maqsadni ko'zlagan holda muayyan bir qolipga tushirish demakdir. Ijtimoiy tartibga solish ikki xil – normativ va individual ko'rinishga ega. **Normativ tartibga solish** umumiy xususiyatga ega bo'lib, bunda norma (qoida)lar jamiyatning barcha a'zolariga yoxud uning muayyan qismiga tegishli bo'ladi. Shu o'rinda normativ tartibga solishning yuzaga kelishi – ijtimoiy tartibga solishning eng muhim burilish nuqtalaridan biri bo'lib, uning taraqqiyotida yirik sifat o'zgarishlarini, tub burilishlarini boshlab bergenligini alohida ta'kidlash joiz.

**Individual tartibga solish** esa aniq sub'ektga taalluqli hisoblanadi, ya'ni tegishli tarzda harakat qilish uchun berilgan individual ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Bunda normativ tavsifga ega bo'lgan normalar aniq vaziyatlarda ikki yoki undan ortiq shaxslar yohud ularning uyushmalari o'rtasida yuzaga keladigan muayyan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi.

Tartibga solishning har ikki turi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi, bir-birining mavjudligini taqozo etadi.

## **IJTIMOIY NORMALAR TIZIMI**

Jamiyatda amal qiladigan barcha normalarni ikki katta guruh, ya'ni ijtimoiy va texnik normalarga bo'lish mumkin. Mazkur bo'linish normalarning tartibga solish predmetiga ko'ra tasniflanadi. Agar norma kishilar xulq-atvori va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan bo'lsa uni ijtimoiy norma sifatida tavsiflash mumkin. Agar norma shaxsning tabiat va texnika vositalaridan foydalanishi bilan bog'liq munosabatlarga doir bo'lsa, unga texnik normalar sifatida qarash lozim. Shu jihatdan olganda, texnik normalar "inson va mashina", "inson va mehnat quroli", "inson va ishlab chiqarish" tipidagi, ya'ni inson bilan uni o'rab turuvchi jonsiz predmetlarga oid munosabatlarni tartibga soladi deyish mumkin.

**Ijtimoiy normalar tizimi** – bu jamiyatda kishilar xulq-atvorini, muayyan guruh va jamoalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar majmuidir.

**Ijtimoiy norma** – bu kishilar hamda ularning jamoalari o‘rtasidagi muayyan munosabatni tartibga soluvchi xulq-atvor qoidasidir.

**Ijtimoiy normalarning quyidagi turlari mavjud:**

- 1) axloq normalari;
- 2) siyosiy normalar;
- 3) diniy normalar;
- 4) korporativ normalar;
- 5) urf-odat normalari;
- 6) an’ana normalari;
- 7) huquq normalari va boshqalar.

**Axloq normalari** – adolat vaadolatsizlik, yaxshilik va yomonlik, ezzulik va yovuzlik, maqtov va isnod, jamiyat tomonidan rag‘batlantiriladigan yoki qoralanadigan xatti-harakatlар, or-nomus, vijdon, burch, qadr-qimmat kabilar ko‘rinishida ijtimoiy hayot sharoitlarining bevosita ta’siri sifatida kishilar ongida shakllanadigan qarashlar, tasavvurlar va qoidalardir.

**Siyosiy normalar** – jamiyatni boshqarish jarayonida siyosiy hokimiyat sub’ektlarining o‘zaro va shaxslar bilan bo‘ladigan munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalar.

Ayni paytda jamiyatda yuz beradigan siyosiy tortishuvlarni hal etishda siyosiy normalar bilan birga huquq normalarining ham o‘rni va roli muhimdir. Shu bilan birga, bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari ta’siri ostida insonlarning fikrlari, qarashlari o‘zgarib bormoqda. Huquq ham siyosiy mazmun kasb etib qolmoqda. Biroq siyosiy va huquqiy normalar o‘rtasida muvozanat bo‘lishi zarur”<sup>3</sup>.

**Diniy normalar** – shaxslarning ibodatga, muayyan din hukmron mafkura bo‘lgan mamlakatlarda esa o‘zaro muomalasiga oid munosabatlarni ham tartibga solishga qaratilgan qoidalar.

**Korporativ normalar** – shaxslarning muayyan uyushmalari, guruhlari doirasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan xulq-atvor qoidalari. Xususan, jamoat tashkilotlari ichki vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish va o‘z faoliyatlarini samarali tashkil etish maqsadida korporativ normalarni ishlab chiqadi. Korporativ normalar muayyan bir jamoat tashkilotining rahbar organlarini shakllantirish va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi, vakolatlari, tashkilot a’zolarining huquqlari, majburiyatlarini va boshqalar to‘g‘risidagi normalar bo‘lib, ular faqat o‘sha tashkilot a’zolariga nisbatan joriy etiladi va faqat ular uchun majburiy ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>3</sup> Qarang: Scott Veitch, Emilius Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence: Themes and Concepts. Second edition. – London – New York, Routledge, 2012. –P.32.

**Urf-odat normalari** – kishilar o‘rtasida ko‘p marta takrorlanganligi sababli odatga aylangan va shu tariqa avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan xulq-atvor qoidalari. Urf-odatlar muayyan ijtimoiy muhitda tarkib topib, avloddan-avlodga o‘tib yuradigan xulq-atvor qoidalari sifatida kishilarning tabiiy-hayotiy ehtiyoji ko‘rinishida maydonga chiqadi va qayta-qayta takrorlanish natijasida ular uchun odatiy hol bo‘lib qoladi.

**An’anaviy normalar** – jamiyatda qaror topgan ilg‘or, ijobiy an’analarni asrash munosabati bilan yuzaga keladigan umumlashgan va barqaror xulq-atvor qoidalari. An’analar kishilar avlodlari o‘rtasidagi vorisiylikning xilma-xil bog‘lanish yo‘nalishlari sifatida, kattalar tajribasi yoshlar tomonidan o‘zlashtiriladigan uzatish mexanizmi sifatida maydonga chiqadi.

### **Ijtimoiy normalarning umumiyyatiga va o‘ziga xos xususiyatlari**

Ijtimoiy normalar o‘zaro umumiyy jihatlar bilan birgalikda o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Buni huquq va axloq normalarining o‘zaro nisbatida ham ko‘rib chiqish mumkin.

#### **Huquq va axloqning umumiyligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:**

- ular birgalikda normativ tartibga solish tizimini tashkil etuvchi ijtimoiy normalardan iboratdir;
- falsafiy nuqtai nazardan huquq va axloq – ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va boshqa omillar bilan bir xil darajada bog‘liq bo‘lgan ustqurma kategoriyalardir;
- huquq va axloq mavjud ijtimoiy munosabatlardan iborat birdan-bir boshqarish ob’ektiga ega hamda ularning har ikkalasi ham shaxslar va ularning jamoalariga yo‘naltirilgan;
- huquq va axloq normativ hodisalar sifatida shaxslarning zarur va mumkin bo‘lgan xatti-harakatlari chegaralarini belgilaydi hamda shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni uyg‘unlashtirish vositasi sifatida maydonga chiqadi;
- inson faoliyatini tartibga soluvchi omil sifatida ular shaxs irodasining erkinligi va xatti-harakatlarini tanlash imkoniyatlariga asoslanadi;
- huquq va axloq oxir-oqibatda bir xil vazifa, ya’ni ijtimoiy hayotni tartibga solish va takomillashtirish, unga tashkiliy asoslarni kiritish,adolat va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish vazifalarini ko‘zda tutadi.

#### **Huquq va axloq normalari bir-biridan quyidagi jihatlar bo‘yicha farqlanadi:**

**1. Huquq va axloq bir-biridan, eng avvalo, o‘rnatalishi, shakllanish usullari va manbalari bo‘yicha farq qiladi.** Huquq normalari davlat tomonidan yaratiladi yoki tasdiqlanadi. O‘z navbatida, huquq normalari davlat tomonidan bekor qilinadi, to‘ldiriladi va o‘zgartiriladi. Axloq normalari esa boshqacha tarzda tarkib topadi, ya’ni ular butun jamiyat tomonidan yaratiladi. Bu normalar doimiy

ravishda kishilar amaliy faoliyati, ularning o‘zaro aloqalari jarayonida yuzaga keladi va rivojlanib boradi.

**2. Huquq va axloq normalari ta’minlash usullari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi.** Huquq normalari davlat tomonidan yaratilib, joriy etilar ekan, o‘z navbatida, davlat tomonidan ta’minlanadi, muhofaza etiladi va himoya qilinadi. Shu ma’noda huquq normalarining mazmuni umummajburiy mohiyatga ega. Jamoatchilik fikri, kuchiga tayanuvchi axloq, majburiy tahdiddan farqli o‘laroq, butunlay boshqa tarzda amal qiladi. Bunda davlatning aralashishi, yuridik jazolar qo‘llashi taqozo etilmaydi. Chunki axloq qoidalariiga amal qilmagan shaxslarga nisbatan qanday ta’sir ko‘rsatishni jamiyatning o‘zi hal qiladi. Bunday ta’sir chorasi ba’zan huquqiy jazodan ham qattiqroq va ta’sirliroq bo‘lishi mumkin.

**3. Huquq va axloq normalari ifoda etish shakliga ko‘ra farq qiladi.** Agar huquq normalari davlatning maxsus yuridik hujjatlari (qonunlar, farmonlar, qarorlar)da mustahkamlanib, umuman keng ko‘lamli va keng tarmoqli qonunchilikni tashkil etuvchi tegishli kodekslar, to‘plamlar, nizomlarda guruhlarga ajratilib, tartibga solinsa, axloqiy normalar esa bunday aniq ifodaga ega bo‘lmaydi. Axloq normalari va qoidalari jamiyat turli qatlamlari va guruhlarida muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar ta’sirida vujudga kelar ekan, keyinchalik u keng tarqaladi hamda barqaror xulq-atvor qoidalarga aylanadi. Bunda biron-bir axloq normasining yuzaga kelish vaqtini ham, sababini ham, tartibini ham va uning amal qilish muddatini ham aniq ko‘rsatish mumkin emas.

**4. Axloq va huquq normalari kishilar ongiga ta’sir etish xususiyati va usullariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.** Agar huquq normalari sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ularning yuridik huquq va majburiyatlari – haqqoniylig va nohaqlik, qonuniylig va g‘ayriqonuniylig, jazolanish va jazolanmaslik nuqtai nazaridan tartibga soladigan bo‘lsa, axloq inson qilmishlariga ezgulik va yovuzlik, maqtov va qoralash, halollik va nopoliklik, oliyanoblik va pastkashlik, vijdon, or-nomus, burch nuqtai nazaridan yondashadi.

**5. Huquq va axloq normalari ularni buzganlik uchun javobgarlik mohiyati va tartibi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi.** Huquqbazarlik harakatlari oddiy javobgarlikni keltirib chiqaribgina qolmay, balki maxsus-yuridik javobgarlikni ham yuzaga keltiradi. Ayni paytda jazo tayinlash tartibi qonun bilan qat’iy belgilab qo‘yiladi. Axloq qoidalariini buzganlik uchun javobgarlik mutlaqo boshqa oqibatlarga olib keladi. Bu yerda aniq bir jazo chorasi ko‘zda tutilmaydi. Beriladigan jazo qoidabuzarni axloqiy qoralash, unga tanbeh berish, jamoatchilik ta’siri choralarini qo‘llashda ifodalananadi.

**6. Huquq va axloq normalari amal qilish sohalari bo'yicha farq qiladi.** Axloqiy makon huquqiy makondan ancha kengdir. Ma'lumki, huquq ijtimoiy hayotning ko'p qirralarini chetda qoldirib, uning eng muhim sohalarinigina tartibga solib boradi. Huquqdan farqli o'laroq, axloq jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga taalluqli bo'ladi.

## **Huquq – ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishning turi sifatida**

Ma'lumki, jamiyat kishilar o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidan iborat. Ushbu tizim o'z doirasiga turfa xil munosabatlarni qamrab olgan murakkab jamlanmadir. Bunday murakkablik va turfa xillik ijtimoiy munosabatlar bilan o'zaro ta'sirli aloqada bo'lgan hodisalardan ham xuddi shunday mutanosiblikni talab etadi. Shunday ijtimoiy hodisalardan biri huquqdir.

**Huquq** (yuridik ma'noda) – bu davlat tomonidan himoya qilinadigan, o'zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy xulq-atvor qoidalari yig'indisi.

Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulyator bo'lib, uning bu xususiyati ijtimoiy munosabatlar bilan bo'ladigan muntazam aloqadorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlar xilma-xil, biroq shunga qaramay ular ma'lum darajada ixtisoslashadi, mazmunan muayyan guruhlarga birlashadi. Ushbu ob'ektiv jarayonni parallel ravishda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq ham o'z boshidan kechirishini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni umummajburiy xulq-atvor, yurish-turish qoidalari ham tegishinchcha guruhlanadi, tizimlanadi va yaxlit huquqni tashkil etadi.

## **Huquq prinsiplari**

**Huquq prinsiplari** – bu huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatidagi mohiyatini ifodalovchi boshlang'ich normativ asoslar, eng asosiy qarashlar, g'oyalar va qoidalardir. Huquq prinsiplari, avvalambor, huquq qonuniyatlarini ifodalaydi, qolaversa, butun huquqiy tartibga solish sohasida amal qiladigan va barcha sub'ektlarga nisbatan qo'llanadigan eng umumiylar normalardan iborat bo'ladi. Huquq prinsiplari huquq ijodkori uchun dasturiy g'oyalar sifatida maydonga chiqarkan, huquq normalarini takomillashtirish yo'llarini belgilab beradi. Huquq prinsiplari, qoida tariqasida, Konstitusiyada, qonunlar va kodekslarning muqaddima yoki umumiylar qoidalari qismida maxsus tartibda belgilab qo'yiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining mazmunidan quyidagi huquqiy prinsiplarni, ya'ni huquq

ustunligi, demokratizm, inson huquqlari va erkinliklarining oliy qadriyat ekanligi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining amal qilishi, Konstitusiya va qonunlar ustuvorligi, teng huquqlilik, barcha mulk shakllarining tengligi, odil sudlov prinsiplarini anglash mumkin.

**Huquq prinsiplari ta'sir etish doirasiga ko'ra umumhuquqiy, sohalararo va sohaviy tamoyillarga bo'linadi.**

**Umumhuquqiy prinsiplar** huquq tizimining barcha sohalariga tegishli bo'lib, jumladanadolatlilik, fuqarolarning qonun oldida huquqiy jihatdan tengligi, insonparvarlik, qonuniylik, demokratizm, huquq va majburiyatlar birligi kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin;

**Sohalararo prinsiplar** huquq tizimining ikki yoki undan ortiq sohalariga oid bo'lib, ular quyidagilar: javobgarlikning muqarrarligi, oshkoraliq, fuqarolik prosessual va jinoiy-prosessual huquqdagi tortishuvlilik tamoyili va boshqalar;

**Sohaviy prinsiplar** huquq tizimining muayyan bir sohasi mazmun-mohiyatining rahbariy qoidasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, mulkiy munosabatlarda tomonlarning tengligi (fuqarolik huquqi); jinoyat jarayoni huquqida aybsizlik prezumpsiyasi va boshqalar.

### **Huquqning funksiyalari**

**Huquqning funksiyalari** – bu jamiyatda ijtimoiy munosabatlarga va kishilarning yurish-turishlariga huquqiy ta'sir qilishning asosiy yo'nalishlaridir.

**Huquq funksiyalarining ijtimoiy munosabatlarga ta'sir o'tkazish yo'nalishi sifatidagi rolini tavsiflovchi quyidagi belgilari mavjud:**

**1.** Huquq funksiyasi uning mohiyatidan kelib chiqadi va huquqning jamiyatdagi vazifasi bilan belgilanadi.

**2.** Huquqning funksiyasi uning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirining shunday yo'nalishiki, bunda uning amalga oshirilishiga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy hodisa sifatida huquqning zaruratini taqozo etadi.

**3.** Funksiya huquqning eng muhim xususiyatlarini ifodalaydi va u huquq taraqqiyotining muayyan bosqichida uning oldida turgan tub masalalarni hal etishga yo'naltiriladi.

**4.** Huquq funksiyasi faol harakat yo'nalishidan iborat bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Aynan shuning uchun ham jo'shqinlik, harakat, faoliyat kabilalar huquq funksiyasining eng muhim xususiyatlari hisoblanadi.

**5.** Huquq funksiyasi o‘zining muntazamliligi bilan ajralib turadi. Uni qo‘llashning uzlucksizligi va davomiyligi aynan ushbu jihat bilan tavsiflanadi.

Huquq funksiyalarini **maxsus yuridik** (tor ma’noda) va **umumijtimoiy** (keng ma’noda) turga tasniflash mumkin.

**1. Maxsus yuridik funksiyalarning quyidagi turlari mavjud:** tartibga soluvchi (regulyativ) va qo‘riqlovchi.

• **Tartibga soluvchi funksiya** – bu shunday huquqiy ta’sir qilish yo‘nalishi bo‘lib, unda jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos keladigan ijtimoiy munosabatlar amalda bo‘lishi ta’minlanadi va rivojlantiriladi. Tartibga solish funksiyasi doirasida **ikki kichik funksiya** – **statik** tartibga solish va **dinamik** tartibga solish funksiyalari ajralib turadi. Huquqning statik tartibga solish funksiyasi ijtimoiy munosabatlarni muayyan huquqiy institutda mustahkamlash yo‘li bilan ta’sir o‘tkazishida namoyon bo‘ladi. Dinamik tartibga solish funksiyasi huquqning ijtimoiy munosabatlar harakatini, ya’ni dinamikasini rasmiylashtirish yo‘li bilan ularga ta’sir o‘tkazishida ifodalanadi.

• **Qo‘riqlovchi funksiya** – bu umumahamiyatga molik eng muhim iqtisodiy, siyosiy, milliy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni, ularning daxlsizligini muhofaza qilish, shuningdek mazkur jamiyatga yot bo‘lgan munosabatlarni siqib chiqarishni maqsad qilib olgan huquqning ijtimoiy vazifasi bilan bog‘liq huquqiy ta’sir yo‘nalishidir.

**2. Umumijtimoiy funksiyalar** orqali jamiyat hayotining turli xil yo‘nalishlarida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta’sir o‘tkaziladi. Huquqning umumijtimoiy funksiyalariga quyidagilar kiradi: **iqtisodiy, siyosiy, tarbiyaviy, ekologik** va boshqalar. Huquqning ijtimoiy funksiyalarini ijtimoiy hayotning tegishli sohalariga huquqiy ta’sir o‘tkazish yo‘nalishi sifatida ta’riflash mumkin. Jumladan, iqtisodiy funksiya iqtisodiy sohaga, siyosiy funksiya siyosiy sohaga, tarbiyaviy funksiya ma’naviy sohaga huquqiy ta’sir o‘tkazadi.

### **Huquqning mohiyati haqidagi nazariyalar**

**Huquqning mohiyati** deganda uning mazmuni va maqsadi tushuniladi. Huquqning mazmuni va mohiyati uning asosiy va barqaror xususiyatlarini namoyon etadi. Shu bilan birga, huquqning mohiyatini belgilashda quyidagi ikkita jihat, ya’ni har qanday huquq, eng avvalo, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatidagi vazifasini bajarishi hamda mazkur vosita kimning manfaatlariga xizmat qilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Huquqning mohiyati davlatning ijtmioiy-iqtisodiy tuzumi, siyosati, axloq, madaniyat va boshqa hodisalar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra huquq umumijtimoiy xarakterga ega. Bu demokratik davatlarning mohiyatida quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- o‘zaro kelishilgan umumijtimoiy irodani ifoda etadi;
- aholining barcha qatlamlari manfaatlariga xizmat qiladi;
- ijtimoiy aloqalarning tashkiliyligi va rivojlanib borishini ta’minlaydi;
- huquqiy munosabatlar sub’ektlarining erkinligi va javobgarligining o‘lchovi hisoblanadi;
- turli-tuman ehtiyoj va manfaatlarni qondirish vositasi sifatida maydonga chiqadi.

### **Yuridik fanda huquqning mohiyati yuzasidan turli xil nazariyalar mavjud.**

**Tabiiy huquq nazariyasi** (Lokk, Russo, Monteske, Radishchev (XVII–XVIII asrlar)). Ilmiy yo‘nalish sifatida ushbu nazariya uzoq tarixga ega. Uning asosiy qoidalari qadimgi davrdayoq shakllanib ulgurgan. Ushbu nazariyaning mohiyati shundan iboratki, davlat tomonidan yaratiladigan pozitiv (ijobiyligi) huquqdan tashqari barcha uchun umumiyligi bo‘lgan va pozitiv huquqdan ustun turuvchi tabiiy xuquq ham mavjud. Pozitiv huquq tabiiy huquq talablariga, ya’ni yashash huquqi, erkin rivojlanish, mehnat qilish, jamiyat va davlat ishlarida qatnashish va boshqa huquqlarga asoslanadi. Qadimgi Rim huquqshunoslari tabiiy huquqni fuqarolik huquqlari hamda xalqlar huquqlari bilan bir qatorda tabiat qonunlari va narsa-hodisalarning tabiiy tartibi ifodasi sifatida alohida ajratib ko‘rsatgan. Shuningdek, insonning tabiiy, tug‘ma huquqlari ko‘pchilik davlatlarda konstitusiyaviy tarzda mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 24-moddasida yashash huquqi “har bir insonning uzviy huquqi” sifatida mustahkamlangan. Yuksak madaniyatli jamiyatda tabiiy va pozitiv huquqlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishga hech qanday asos yo‘q. Chunki tabiiy huquq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning yagona umuminsoniy tizimini tashkil etib, insonning tabiiy huquqlarini mustahkamlaydi va muhofaza qiladi.

**Realistik huquq maktabi** (R.Iering, S.Muromsev v.b.). Mazkur yo‘nalish vakillari huquqning tadrijiy tarzda rivojlanishi haqidagi tarixiy tasavvurlardan farqli o‘laroq, huquq tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladi va rivojlanadi deb hisoblaydi. Huquqshunos Rudolf Iering ushbu nazariyaning mazmun-mohiyatini o‘zining “Rim huquqi ruhi”, “Huquq uchun kurash”, “Huquqda maqsad” kabi asarlarida bayon qilgan. Ieringning ta’biricha, huquq – himoyalangan davlat manfaatidir. U shaxs manfaatlarini kafolatlaydi, odamlarning turli xil ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Huquqning vazifasi huquqdan foydalanishni

kafolatlashdan iborat. Huquqning mazmun-mohiyati zamirida qonunsizlikka qarshi xalqlar kurashi, davlat hokimiyati, individlar kurashi yotadi. Shu munosabat bilan Iering huquq tarixidagi barcha ulkan yutuqlar – qullikning, krepostnoylikning barham toptirilishi, yer mulki erkinligi, hunarmandchilik, e’tiqod va hokazolar erkinligi – bularning hammasi shafqatsiz, ko‘pincha asrlar osha davom etadigan kurashlarda qo‘lga kiritilishi lozimligini, bunday hollarda huquqning yo‘li hamisha huquqlar qoldiqlari orqali belgilanishini alohida ta’kidlagan.

Uning e’tirof etishicha, mutlaq adolatli huquq yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas, huquqning qimmati uning asosida yotgan maqsadni amalgalashidan iboratdir. Manfaatlar kurashi asosida dunyoga kelgan huquq jamiyat hayotida adolat prinsipiga, albatta, rioya qilish sharti bilan muayyan bir shaxslar irodasini boshqalarning manfaatlariga bo‘ysundiruvchi kuch sifatida maydonga chiqadi.

Mazkur ilmiy yo‘nalish namoyandalari huquq uchun kurashish qonuniy huquqqa ega bo‘lgan shaxsning o‘z oldidagi majburiyatidir, zero huquqni himoya qilish, ya’ni huquqbazarlikka qarshi harakat qilish esa faqat o‘z-o‘ziga nisbatangina emas, balki umuman jamiyatga, davlatga nisbatan ham majburiyatdir: har bir shaxs huquqni himoya qilar ekan, avvalo, o‘zining sub’ektiv huquqi asosi bo‘lgan ob’ektiv huquq normalarini muhofaza etadi deb hisoblaydi.

**Psixologik huquq maktabi** (Petrajiskiy, Ross, Reysner, Dyugi, Merill). Ushbu nazariya XX asr boshlarida keng tarqalgan. Mazkur nazariya vakillarining fikricha, kishilarning ruhiyati jamiyat, axloq, huquq va davlatning rivojlanishini belgilab beradigan omildir, haqiqiy huquq kishilarning o‘z huquq va majburiyatları to‘g‘risidagi ruhiy kechinmalaridir. L.Petrajiskiyning ta’kidlashicha, tajribalarga asoslanuvchi fan turmushning ikki ko‘rinishi – moddiy va ruhiy tomonlarini o‘rganadi. Ijtimoiy voqelik hodisalarining biri sifatida huquq ruhiy dunyoga taalluqli bo‘lib, u odamlarning imperativ-atributiv (majburiylik-da’vogarlik) kechinmalaridan tashkil topadi. Inson xatti-harakatlari erkin va o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin. Uning fikricha, normalar, buyruq va taqiqlar shaxsning ichki kechinmalari va hissiyotlari ifodasidir.

**Huquqni tushunishda normativlik nazariyasi** (G.Kelzen, R.Shtammler, P.Novgorodsev (XX asr)). Ushbu yo‘nalish bir qarashda huquq va uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqidagi turli qarashlarni jamlaganday tuyuladi. Biroq sinchiklab qaralganda ulardagি muayyan birlik ham ko‘zga tashlanadi. Normativlikning nazariy qoidalari R.Shtammlerning “Xo‘jalik va huquq” kitobida bayon qilingan. U o‘z qarashlarida huquqning asosiy maqsadi shaxslar

ehtiyojini qondirishdan iborat bo‘lgan ijtimoiy hayotni tashqi tartibga solish deb ta’riflaydi. Jamiyatda o‘zaro aloqada bo‘lgan shaxslarning birgalikdagi harakatlarini u ijtimoiy materiya yoki xo‘jalik deb ataydi. Huquq bilan xo‘jalikning o‘zaro nisbatini belgilar ekan, Shtammler huquqni ijtimoiy hayot shakli va shaxslarning moddiy ne’matga oid munosabatini tartibga soluvchi vosita sifatida ifodalaydi.

**Huquqning sosiologik maktabi.** Ushbu nazariya XX asr huquqshunosligining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Yuridik fanlar vazifasini amaldagi huquqni rasmiy mantiqiy o‘rganishdan iborat deb ko‘rsatuvchi huquqiy pozitivizmdan farqli o‘laroq, sosiologik maktab diqqat markazini “jonli huquq”, ya’ni huquqiy munosabatlar tizimini, huquq doirasidagi odamlar xulq-atvorini o‘rganishga ko‘chirish kerak degan fikr tashkil qiladi. Erlix ushbu yo‘nalishning asoschisi bo‘lib, uning “Huquq sosiologiyasi” (1911) kitobida mazkur yo‘nalishning asosiy g‘oyalari tartibli bayon qilingan. Rossiyalik olim G.F.Sershenevich ham sosiologik maktab vakilidir.

**Huquqning tarixiy maktabi.** Ushbu nazariya XIX asr yuridik fanida sezilarli darajada rivojlangan yo‘nalish hisoblanadi. Huquqning tarixiy maktabi namoyandalari (G.Gugo, F.Savini, G.Puxta v.b.) tabiiy huquq g‘oyalari qarshi chiqqan. Mazkur nazariyaga ko‘ra urf-odat va an‘analar huquqning muhim manbaidir. Kodifikasiya va boshqa “sun’iy” usullar rad etilgan, huquq esa “xalq ruhi”ning izchil rivojlanishi natijasi sifatida ifodalangan va huquqning rivojlanishi tilning rivojlanishiga o‘xshatilgan. Tarixiy maktab vakillari urf-odatlarni qonundan yuqori qo‘yib, real mavjud huquqni qonunchilik yo‘li bilan o‘zgartirish mumkinligini inkor etadi. Ular ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solish tizimida urf-odatlar ahamiyatini g‘oyatda bo‘rttirib ko‘rsatadi. Biroq ushbu nazariyaning ijobiy tomonlarini ham ta’kidlamaslik adolatdan bo‘lmaydi. Aytaylik, mazkur nazariyaga ko‘ra qonun chiqaruvchi o‘zining sub’ektiv xohishi bo‘yicha normalarni yarata olmaydi. Buning uchun u ijtimoiy rivojlanishning ob’ektiv ehtiyojlarini, alohida odamlar manfaatlarini bilishi va anglashi hamda ularni huquq normalarida to‘g‘ri ifodalashlari lozim bo‘ladi.

**Islom huquq doktrinasi.** Muayyan darajada ruxsat beriladigan va qo‘llab-quvvatlanadigan shaklda diniy shaklda ifodalanuvchi normalar tizimi sifatida islom huquqi VII–X asrlarda arab mamlakatlarida shakllangan va u islom diniga asoslangan. Islom huquq doktrinasiga ko‘ra huquq Alloh tomonidan belgilanadi. Ammo islom huquqining shakllanishida Qur’on oyatlarining Payg‘ambar (s.a.v.), sahabalar, ulamolar tomonidan talqin etilishi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Islom huquqshunoslari bo‘lgan faqihlarning mehnatlari asrlar davomida mana shu ulkan mas’uliyatli ishga sarflangan. Ularning sa’y-harakatlari yangi huquqni yaratishga emas, balki Alloh tomonidan berilgan huquqni amalda foydalanishga

moslashtirishga yo‘naltirilgan. Islom huquqini belgilovchi fiqh sohasi faqatgina Allohnning insonlarga qo‘ygan o‘zaro huquqiy qonun-qoidalalarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi.

Mazkur nazariya vakillarining fikricha har bir huquqni qo‘llovchi, muayyan masalani hal qilishda asosan quyidagi manbalarga tayanishi lozim: **Qur’oni karim** – musulmonlarning muqaddas kitobi, musulmon huquqi uchun rahbariy qoidalalar to‘plami (Allah tomonidan Muhammad payg‘ambar(s.a.v.)ga nozil qilingan); **hadis yoki sunna** – Muhammad payg‘ambar to‘g‘risidagi hamda uning pand-nasihatlari, o‘gitlari va ko‘rsatmalari bilan bog‘liq axloqiy, diniy me’yorlar bo‘lib, ular Qur’oni karimni aniqlashtirishga yordam beruvchi, huquqiy munosabatlarni tartibga solishga ko‘maklashuvchi qoidalalar to‘plami hisoblanadi; **ijmo’** – xalifalar, bilimdon kishilarning Qur’on qoidalari asosida turli munosabatlar bo‘yicha chiqargan hukmlari, qarorlari; **qiyos** – analogiya, o‘xshatish yo‘li bilan chiqarilgan hukm (oldingi manbalarda o‘z ifodasini topmagan fikr-mulohazalarni qamrab oladi). Qur’on, sunna, ijmo’ va qiyosdan tashqari fiqhning boshqa yordamchi manbalaridan foydalanish ham mustasno etilmagan. Ularga huquqiy odatlar, qonunlar va fatvolar kiradi.

Yuqorida qayd etilgan manbalar bilan birga, yangi bir fan – usuli fiqh, ya’ni musulmon huquqshunosligi vujudga kelgan. Fiqh o‘z ichiga shaxsning diniy rasm-rusmlarni bajarish bilan bog‘liq masalalarni tartibga soladigan ibodat normalari va shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning qoidasi sifatida muomalot normalarini qamrab oladi. Islom nazariyasiga ko‘ra huquqiy masalalar shariatning muomalot qismiga tegishli hisoblanadi.

### Nazorat uchun savollar:

**1.** Ijtimoiy normalar kishilar, ularning jamoalari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy xulq-atvor qoidalari bo‘lsa, huquq davlat tomonidan o‘rnatiladigan, o‘zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, bajarilishi umummajburiy bo‘lgan yurish-turish qoidalari yig‘indisi hisoblanadi. Shu bilan birga, huquq va boshqa ijtimoiy normalar bir-biridan turli jihatlariga ko‘ra, xususan, shakllanish usullari va manbalari bo‘yicha, ifoda etish shakliga ko‘ra, kishilar ongiga ta’sir etish xususiyati va javobgarlik mohiyati hamda amal qilish sohalari bo‘yicha farq qiladi.

Ayrim manbalarda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqning ahamiyati yuqori ekanligi qayd etilsa, boshqalarida ijtimoiy normalar munosabatlarni tartibga solishda samarali vosita ekanligini bildiriladi.

*Huquq va boshqa ijtimoiy normalarning bir-biridan farqli jihatlarini muhokama qilish orqali vaziyatga huquqiy baho bering.*

**2.** Huquq tamoyillari – bu huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatidagi mohiyatini ifodalovchi boshlang‘ich normativ asoslar, eng asosiy qarashlar, g‘oyalar va qoidalardir. Huquq tamoyillari, avvalambor,

huquq qonuniyatlarini ifodalaydi, qolaversa, butun huquqiy tartibga solish sohasida amal qiladigan va barcha sub'ektlarga nisbatan qo'llanadigan eng umumiy normalardan iborat bo'ladi. Huquq tamoyillari huquq ijodkori uchun dasturiy g'oyalar sifatida maydonga chiqarkan, huquq normalarini takomillashtirish yo'llarini belgilab beradi. Huquq tamoyillari Konstitusiyada, qonunlar va kodekslarning muqaddima yoki umumiylar qoidalar qismida maxsus tartibda belgilab qo'yiladi.

Shu bilan birga, ayrim huquqshunoslar amaliyot uchun huquq tamoyillarining ahamiyati yo'q degan fikrni bildirishsa, boshqalari esa muhim ahamiyatga egaligini, huquqiy tizim unga bog'liq holda rivojlanishini ta'kidlashadi.

*Masalani atroflicha muhokama qilib, vaziyatga huquqiy baho bering.*

#### **4. Zamonaviy norma va huquq ijodkorligi – normativ-huquqiy**

#### **hujjatlar tahlili**

##### **Reja:**

1. Huquq normalari tushunchasi, belgilari va mantiqiy tuzilishi: gipoteza, dispozisiya va sanksiya.
2. Huquq normalarini turlarga ajratish (tasniflash).
3. Huquq ijodkorligi: tushunchasi, turlari va tamoyillari
4. Qonun ijodkorligi jarayoni bosqichlari
5. Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi, belgisi va turlari

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** Huquq normalari. Huquq normasining tuzilishi. Gipoteza. Dispozisiya. Sanksiya. Huquq normalarining tasnifi. Huquq ijodkorligi. Qonun ijodkorligi jarayoni.

##### **1. Huquq normalari tushunchasi, belgilari va mantiqiy tuzilishi: gipoteza, dispozisiya va sanksiya.**

"Norma" so‘zi (lot.norma so‘zidan olingan bo‘lib) – u rahbariy qoida, namuna, o‘lchov degan ma’noni anglatadi.

*Norma qonun kuchiga ega bo‘lgan ma’lum shaxsga qaratilgan yoki qaratilmagan xulq-atvor yig‘indisidir. Norma, shuningdek, muddatsiz ham emasdir. Huquqni cheklashning fundamental asosi ham qonunda normalarda ifodalanadi<sup>4</sup>.*

Huquq normalari ijtimoiy normalar tarkibiga kiruvchi axloq, odat, odob, jamoat tashkilotlarining normalaridan farq qiladi.

**Huquq normasi** - davlat tomonidan o‘rnataladigan, maqullanadigan, muhofazalanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy yurish-turish (xulq-atvor) qoidasi.

<sup>4</sup> Hans Kelsen. **General Theory of Law and State.** – Cambridge: Harvard University Press, 2009. –P.35.

### *Huquq normasining belgilari:*

- davlat tomonidan o‘rnatiladi, xalqning irodasini o‘zida aks ettiradi;
- davlat tomonidan muhofazalanadi;
- umummajburiylik xarakteriga ega;
- rasmiy aniqlikka ega;
- normativ (vakolat beruvchi va majburiyat yuklovchi) xarakterga ega.

Huquq normasining xarakterli jihatlaridan biri – bu uning uzoq muddat davomida takror-takror qo‘llanilishidir.

Jamiyatda yuz beradigan siyosiy tortishuvlarni hal etishda ham huquq normalarining o‘rni va roli muhimdir. Shu bilan birga bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari ta’siri ostida insonlarning fikrlari, qarashlari o‘zgarib bormoqda. Huquq ham siyosiy mazmun kasb etib qolmoqda. Biroq siyosiy va huquqiy normalar o‘rtasida muvozanat bo‘lishi zarur”<sup>5</sup>.

Huquq normalari quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) xalqning irodasi sifatida amal qiladi;
- 2) davlat nuqtai nazaridan eng muhim deb hisoblangan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi;
- 3) ko‘p marotaba qo‘llaniladi va uzoq muddat amalda bo‘ladi;
- 4) xalq manfaatlariga mos keladigan ijtimoiy munosabatlarni qo‘riqlaydi;
- 5) bir-biri bilan uzviy bog‘liq va yagona huquq normasi tizimi ko‘rinishida mavjud bo‘ladi va amal qiladi;
- 6) lozim bo‘lganda davlatning zo‘rlik kuchi bilan tavsiflanadi;
- 7) aniq va qat’iy shaklga ega va h.

Huquq normasining tuzilishini bilish nafaqat huquq ijodkorligi bilan shug‘ullanuvchi organlar, balki huquqni qo‘llash organlari uchun ham muhim rol o‘ynaydi. Birinchisiga bu bilimlar yuridik qaror (ko‘rsatma)larni to‘g‘ri talqin qilishga yordam bersa, ikkinchisiga esa ularni o‘z o‘rnida va to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi.

---


<sup>5</sup> Scott Veitch, Emilius Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence: Themes and Concepts. Second edition. – London – New York, Routledge, 2012. –P.32.

Huquq normalari o‘zining bir butunligi, birligi, bo‘linmasligi bilan ajralib turadi. Uning uchun alohida tuzilish ham xos bo‘lib, elementlarning o‘zaro aloqasi va maxsus mazmunga ega ekanligi bilan farqlanadi. Huquq normalarining tuzilishi deganda uning ichki tuzilishi va elementlari birligi tushuniladi.

*Huquq normasining tuzilishi* deganda – uning yuridik faoliyati erkinligini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan zarur elementlarning majmui yoki birligi tushuniladi.

*Huquq normasining tuzilishi:*

- *Gipoteza;*
- *Dispozisiya;*
- *Sanksiya.*



**Gipotezada** huquq normasida belgilanadigan qoida qanday sharoit va holatda kim tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatiladi. Gipoteza huquq normasining bir qismi bo‘lib, unda dispozisiyada ko‘rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo‘lgan muayyan aniq hayotiy holatlar (voqeа, harakat, holatlar) o‘zining ifodasini topadi.

*Gipotezaning quyidagi turlari mavjud:*

- oddiy gipoteza;
- murakkab gipoteza;
- muqobil gipoteza.

**Dispozisiya** huquq normasining bir qismi bo‘lib, unda gipotezada ko‘rsatilgan holatlar mavjud bo‘lganida huquq sub’ektlari rioya etishlari lozim bo‘lgan xatti-harakat qoidasi (huquq va majburiyatlari) ifodalangan bo‘ladi.

Dispozisiyaning quyidagi turlari mavjud:

- imperativ (aniq ko‘rsatilgan, buyruq beruvchi);
- nisbiy belgilangan;
- blanket (havola etuvchi);
- tavsiflovchi (to‘liq bayon etilgan) va b.

**Sanksiya** dispozisiyada ko‘rsatilgan qoidani buzgan shaxsga nisbatan davlat organi qo‘llashi mumkin bo‘lgan ta’sir chorasini belgilaydi. Sanksiya huquq normasining bir qismi bo‘lib, unda dispozisiyada ko‘rsatilgan talablarni bajarmaganlik uchun berilishi mumkin bo‘lgan jazoning yoki tavsiya etilgan harakatni sodir etganlik uchun rag‘batlantirishning turi va o‘lchovi ifodalangan bo‘ladi.

Huquq normalarining ifodalanishiga qarab sanksiya quyidagilarga bo‘linadi:

- nisbiy aniq;
- mutlaq aniq;
- muqobil.

## **2. Huquq normalarini turlarga ajratish (tasniflash)**

Huquq normalarini tasniflash (klassifikasiya) huquqni tartibga solish tizimida yuridik normalarning o‘rni va ahamiyatini to‘g‘ri va aniq belgilashga yordam beradi.

Huquq normalarini quyidagi belgilarga qarab tasniflash mumkin:

1) **funktional ahamiyatga qarab** boshlang‘ich normalar, umumiylar normalar va maxsus normalarga bo‘linadi.

- boshlang‘ich normalar - ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning asosini, ularning maqsadi, vazifasi, chegarasi va yo‘nalishini ifodalaydi.

- umumiy normalar - u yoki bu soha huquqining umumiy qismiga taalluqli bo‘lib, tegishli huquq yo‘nalishi institutlarining butun yoki keng qismiga joriy qilinadi.

- maxsus normalar – u yoki bu huquq sohasi yo‘nalishining alohida institutga tegishli bo‘lib, ma’lum bir yondosh (yaqin) ijtimoiy munosabatlarni o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tartibga soladi.

2) **Huquq sohasiga tegishliligiga qarab** konstitusiyaviy, fuqarolik, jinoyat, ma’muriy va h.

3) **Xarakteriga qarab** moddiy, prosessual (jinoyat prosessi, fuqarolik prosessi)

#### 4) **Huquqni tartibga solish usuliga qarab**

- imperativ (hokimiyatlilik xarakteriga ega farmoyishlarni mujassamlashtiruvchi);
- dispozitiv (mustaqil qarashlarni mujassamlashtiruvchi);
- rag‘batlantiruvchi (ijtimoiy foydali yurish-turishlarni);
- tavsiyanoma ko‘rinishidagi normalarga bo‘linadi.

#### 5) **Harakat qilish vaqtiga qarab**

doimiy va vaqtinchalik (Prezident farmonlari favqulodda holat haqida).

Har qanday huquq normalari shaxsga ma’lum harakat (xulq) shaklini ko‘rsatib beradi, shunga ko‘ra ularni -majburyat yuklovchi, taqiqlovchi, vakolat beruvchi (ba’zi xatti-xarakatlarni, yuridik oqibatlarni bajarishga imkoniyat yaratuvchi) normalarga ajratish mumkin.

### **3. Huquq ijodkorligi: tushunchasi, turlari va tamoyillari**

**Huquq ijodkorligi** -bu eng avvalo vakolatli davlat organlarining normativ-huquqiy aktlarini yaratish, ularga o‘zgartirish kiritish yoki ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyatidir.

*Huquq ijodkorligi turlari:*

- bevosita huquq ijodkorligi (umumxalq referendumi);
- davlat organlarining huquq ijodkorligi (Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va b.);
- alohida mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi (Prezident, vazirlar, hokimlar va b.);
- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquq ijodkorligi.

*Huquq ijodkorligi tamoyillari:*

- ilmiylik;
- professionalizm;
- qonuniylik;
- demokratizm;
- oshkorlik;
- tezkorlik.

**Qonun ijodkorligi** – davlatning huquqiy normalarini yaratishga qaratilgan eng muhim faoliyat yo‘nalishlaridan biri. Qonun va qonun chiqarish faoliyati bilan bog‘lik ishlar jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim o‘rin tutgan.

Qonunlarning eng asosiy ijtimoiy vazifasi – jamiyatda tartib, intizom va barqarorlikni ta’minlashdan iborat. Qonunchilik siyosati – davlat siyosatining bir bo‘lagi bo‘lib, unda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari, prinsiplari, maqsadlari o‘z ifodasini topadi. Huquq ijodkorligi faoliyati natijalariga qarab, ya’ni qonunlar va boshqa normativ aktlarga qarab, davlat to‘g‘risida, uning demokratligiga, madaniyati va sivilizasiyasi darajasiga baho beriladi. Huquq ijodkorligining eng muhim xarakteristikasidan biri bo‘lib, uning davlat yoki davlat organlari faoliyati ekanligi hisoblanadi.

**Qonun ijodkorligi faoliyati** –vakolatli davlat organining qonunlarni ishlab chiqishi va qabul qilishga qaratilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan irodaviy faoliyatidir. Mazkur faoliyat ijodiy jarayon bo‘lib, bunda xalqning irodasi aniqlanadi, shakllantiriladi va belgilangan tartibda qonun darajasiga ko‘tariladi.

Qonun chiqarish faoliyati (huquq ijodkorligi faoliyati) o‘zining mas’uliyatliligi va murakkabligi bilan farq qiladi. Respublika shaklidagi demokratik davlatlarda qonun chiqarish faoliyati, an’anaga ko‘ra, alohida saylab quyiladigan organ tomonidan amalga oshiriladi. Bunday organ turli mamlakatlarda turlicha nomlar bilan (AQShda – kongress, Fransiyada – Milliy Majlis, Angliyada – parlament, Germaniyada – Bundestag, Eronda – Majlis, Rossiyada – Federal Majlis (Duma), O‘zbekistonda –Oliy Majlis, Polsha, Litvada – Sem, Shvesiyada – Riksdag va h.k) atalib umumiy qabul qilingan yagona nom parlament iborasi bilan ifodalanadi.

Yuridik adabiyotlarda qonun ijodkorlik faoliyati iborasi qonun chiqarish faoliyati, qonun yaratish faoliyati, qonunchilik, huquq ijodkorligi kabi iboralar bilan sinonim sifatida qo‘llaniladi.

#### **4. Qonun ijodkorligi jarayoni bosqichlari**

Huquq ijodkorligi jarayoni (qonun yaratish) o‘ta mas’uliyatli, serqirra va murakkab jarayon. Qonun kuchga kirkach har bir yuridik hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qat’iy kuchga aylanadi. Bu jarayon muntazam va muvofiqlashtirilgan ketma-ketlikda ro‘y beruvchi bosqichlarning yig‘indisi sifatida mavjud bo‘luvchi aniq huquqiy mexanizmdir. Bunda ish tegishli huquqiy munosabatlar sohasini huquqiy tartibga solish zaruriyatini o‘rganishdan muammoli vaziyatni atroficha tahlil etishdan boshlanadi: so‘ngra tajriba umumlashtirilib, ilmiy asoslangan materiallar to‘planadi; navbatdagi vazifa rejallashtirilayotgan qonunning ilmiy g‘oya (konsepsiysi) va dastlabki loyihasini ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi; qonun loyihasi qonun chiqaruvchi idora tomonidan o‘rganiladi, muhokama etiladi va nihoyat qonun qabul qilinadi.

Qonun ijodkorligi jarayoni - davlat oliy vakillik organining Konstitusiyada belgilangan tartibda yangi qonunlarni yaratishga, amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishga qaratilgan, shuningdek, eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig'indisi bo'lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish va qabul qilishni o'z ichiga oladi.<sup>6</sup>

### **Qonun ijodkorligining quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:**

- Vakolatli davlat organlarining huquq ijodkorligi faoliyati;
- Xalqning bevosita referendum orqali huquq ijodkorligi.

Masalan: *O'zbekistonda qonunning parlament tomonidan qabul qilinishi yoki umumxalq ovoz berish yo'li bilan qonun qabul qilish.*

Qonunosti huquq ijodkorligi. Bunday xollarga, ba'zida davlat oliy vakillik organlariga kirmaydigan davlat organlari tomonidan huquq normalari qabul qilinadi va harakatga keltiriladi. Bunday qonun osti aktlari qonunni qabul qilishni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

Qonun osti huquq ijodkorligi sub'ektlariga – Prezident, hukumat va boshqa oliy davlat organlari kirib, ular qonunga binoan yuridik normalar va normativ aktlarni qabul qilish huquqiga ega. Qonun osti huquq ijodkorligining o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud:

Ijobiy tomonlari – uning tezkorligi, rasmiyatçilikning kamligi, tegishli organlarning kompetentligi, hujjat qabul qilinishi bilan bog'liq shart-sharoitlarni yaxshi bilishlarini aytish mumkin;

Salbiy tomonlari – huquqiy qarorning qabul qilinishi jarayonining yashirinligi, normativ aktlarning ko'pligi ularni ko'llashni qiyinlashtiradi hamda jamiyat a'zolari tomonidan nazorat qilishni murakkablashtiradi.

***Qonun-bu normativ akt bo'lib, qonunchilik hokimiyati organi (yoki referendum yo'li bilan) tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadigan,***

<sup>6</sup> Одилқориев Ҳ.Т., Тультеев И.Т. Икки палатали парламент. -Т.: ЎзР ИИВ Академияси, 2005. –Б.93.

*xalqning irodasini ifodalaydigan, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan va birmuncha muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hujjat.*

**O‘zbekiston Respublikasida qonun ijodkorligi jarayonining bosqichlari:**

1. *Qonunchilik tashabbusi.*
2. *Qonunchilik tashabbusi asosida Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihasini ishlab chiqish va muhokama qilish.*
3. *Qonunni qabul qilish va Senatga taqdim etish.*
4. *Senatda qonunni muhokama qilish va ma’qullash hamda imzolash uchun Prezidentga yuborish.*
5. *Qonunning Prezident tomonidan imzolanishi.*
6. *Qonunni matbuotda rasmiy e’lon qilish.*

Qonun yaratishdan oldin jamiyatda shunday qonun vujudga kelishiga ehtiyoj bormi, degan savolga javob berish lozim. Qonun ishlab chiqishga kirishishdan avval mavjud ijtimoiy voqelik, hayot, muammoli vaziyat atroficha o‘rganib chiqiladi.

Shunday qilib, u yoki bu qonunning yaratilishiga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganish – qonunchilik jarayonining boshlang‘ich nuqtasidir. Qonunchilik faoliyatiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, sosial-madaniy, jug‘rofiy, demografik, ekologik, milliy, ilmiy-tashkiliy va h.klar

Qonunchilik faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar muayyan mexanizm asosida harakatlanadi.

Qonunni yaratish jarayoni, ya’ni qonun chiqaruvchi organ doirasida bevosita faoliyat qonunchilik tashabbusi paydo bo‘lishidan boshlanadi. Qonunchilik tashabbusi huquqiy muammolari mag‘zini anglab yetish uchun uning quyidagi muhim jihatlarini puxta mushohada etish talab qilinadi:

- 1) *Qonunchilik tashabbusi huquqi tushunchasi va mohiyati;*

2) *Qonunchilik tashabbusi amalga oshirilishi natijasida vujudga keladigan huquqiy munosabatning mazmuni;*

3) *Qonunchilik tashabbusi huquqning sub'ektlari doirasi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari va b.*

Qonunchilik tashabbusi qator harakatlar majmui bo'lib, unda qonun chiqaruvchi organga qonun loyihasi yoki qonunchilik taklifi kiritiladi va parlament yangi qonun chiqarish, amaldagisini o'zgartirish yoxud bekor qilish masalasini ko'rib chiqish uchun qabul qiladi.

Qonunchilik tashabbusi huquqi – bu Konstitusiyada belgilangan vakolatli davlat organlari, tashkilotlar va shaxslarning huquqi bo'lib, ular tomonidan muayyan qonun loyihasini yoki yangi qonun qabul qilish to'g'risida, shuningdek, amaldagi qonunni o'zgartirish yoxud uni bekor qilish to'g'risidagi taklifni parlament e'tiborga taqdim etilishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 83-moddasiga muvofiq quyidagilar qonunchilik tashabbusi huquqining sub'ektlari hisoblanadilar:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliv vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudi, Oliy sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Qonun loyihasini muhokama etish – qonun yaratish jarayonining muhim bosqichidir. Bu bosqich qonun chiqaruvchi organga qonun loyihasi taqdim etilgach, u sessiya kun tartibiga kirgach boshlanadi. Shakllangan tajribaga ko'ra, qonun loyihasi ikki xil ko'rinishda muhokama qilinadi.

1) qonun loyihasi aksariyat umumiy qoidaga binoan parlament (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan maqullanadi) tomonidan uning yig'ilishida muhokama etiladi.

2) mamlakat hayotining o‘ta muhim masalalarini tartibga solishga qaratilgan qonunlar loyihasi parlament qarori bilan keng xalq muhokamasiga taqdim etiladi.

Qonun loyihasi moddama-modda, bo‘limlar va boblar bo‘yicha yoki yalpi muhokama qilinadi.

Qonunni qabul qilish bosqichining ahamiyati va mas’uliyati shundaki, bunda qonun loyihasiga rasmiy yuridik kuch baxsh etiladi, u qonunga aylanadi. Parlamentda ba’zi jiddiy masalalarni hal etish uchun deputatlar malakali ko‘pchiligining ovoz berishi lozim bo‘ladi. Ovoz berish ochiq, yashirin va nomma-nom bo‘lishi mumkin.

Qonun qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanib, qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi. Qonunlarni e’lon qilish O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaning 84-moddasida o‘z ifodasini topgan. Unga muvofiq, qabul qilingan qonunlarning va boshqa normativ hujjatlarning matbuotda e’lon qilinishi ular qo‘llanishining majburiy shartidir.

Normativ-huquqiy akt belgilangan tartibda va tegishli shaklda e’lon qilinmagan, ijrochilar e’tiboriga yetkazilmagan bo‘lsa, uni harakatdagi yuridik kuchga ega akt deb bo‘lmaydi.

Qonunning davlat nomidan e’lon qilinishi – vakolatli idoralar tomonidan maxsus amalga oshiriladigan huquqiy funksiyasidir.

### **1. Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi, belgisi va turlari**

Normativ-huquqiy hujjat - vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy tusdagi qoidalarni o‘rnatuvchi, o‘zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi yuridik hujjati hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjat umummajburiy xulq-atvor qoidalarni o‘z ichiga oladi hamda o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan ijtimoiy normalarning boshqa turlaridan ajralib turadi:

- a) davlat nomidan qonunda belgilangan tartibda qabul qilinadi;
- b) vakolatli sub'ektlarning huquq ijodkorligi faoliyatining mahsuli hisoblanadi;
- v) barcha uchun umummajburiy qoidalarni o'rnatadi, o'zgartiradi (takomillashtiradi) yoki bekor qiladi;
- g) maxsus prosessual tartibda amalga oshiriladi;
- d) muayyan hujjatlashtirilgan shaklga ega (qonun, farmon, qaror va b.);
- ye) muayyan turdag'i ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan;
- j) ularda huquqiy qoidaning mazmuni, ya'ni huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlari bayon etiladi;

Quyida yuqorida ko'rsatib o'tilgan normativ-huquqiy hujjatlarining har birini yuridik tabiatini tahlil qilinadi. **Konstitusiya** - (lotin. constitutio - o'rnatish, tuzilish) - moddiy ma'noda avvalo inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini e'lon qiluvchi va kafolatlovchi, shuningdek ijtimoiy tuzum, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi, hokimiyat markaziylari va mahalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari va o'zaro munosabatlarini, davlat ramzlari va poytaxtini belgilaydigan qonun hujjati, hujjatlar yoki konstitusiyaviy odatlar majmui. Rasmiy ma'noda barcha qonunlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy qonun. Konstitusiya - eng oliy huquqiy shakl bo'lib, unda konstitusiyaviy tuzum qadriyatlari, institutlari va normalari, davlat hokimiyatining ijtimoiy aloqalari va munosabatlarini davlat - huquqiy tartibga solish asoslari mustahkamlab qo'yiladi.

O'z yuridik tabiatini va mohiyatiga ko'ra, Konstitusiya boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan quyidagi muhim jihatlari bilan ajralib turadi:

**birinchidan**, Konstitusiya maxsus sub'ekt tomonidan yoki uning nomidan o'rnataladi;

**ikkinchidan**, Konstitusiyaviy qoidalar ta'sis e'tuvchi, yo'naltiruvchi, birlamchi ahamiyatga ega;

**uchinchidan**, konstitusiyaviy tartibga solish o‘z hajmining keng qamrovliligi bilan tavsiflanadi, ya’ni u nihoyatda muhim va keng ko‘lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasiga ta’sir ko‘rsatadi;

**to‘rtinchidan**, Konstitusiya alohida yuridik xususiyatlarga, ya’ni ustuvorlikka, oliv yuridik kuchga, o‘ziga xos muhofaza shakliga, maxsus tarzda qabul qilinish va o‘zgartirilish tartibiga ega.

**Qonun** - inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim deb hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasidir. Qonunda halqning davlat hokimiyatiga doir oliv irodasi aks ettirilganligi, uning ijtimoiy qadr-qimmatini oshiradi. Qonun davlat oliv vakillik organlarining eng yuqori kuchga ega bo‘lgan aktidir. Normativ-huquqiy aktlar tizimida qonunlar asosiy o‘rinni egallaydi. “Qonun” iborasi serqirra va ma’nodordir. “Qonun” kategoriyasi ijtimoiy va tabiiy fanlar tomonidan keng qo‘llaniladi. Xususan turli ilmiy adabiyotlarda “falsafa qonunlari”, “tabiat qonunlari”, “iqtisodiy qonunlar”, “ijtimoiy taraqqiyot qonunlari” kabi tushunchalar tez-tez uchrab turadi. Shuningdek “yuridik qonunlar” iborasi ham ishlatiladi. Bu qonunlar turli fanlarga taalluqli bo‘lishiga qaramasdan, ularni birlashtiruvchi umumiylig mavjud. Shunga ko‘ra “qonun”ning quyidagi umumiyl universal ta’rifini berish mumkin, ya’ni qonun tabiat va jamiyatdagi voqeal, hodisa hamda jarayonlar o‘rtasidagi munosabatdir, shuningdek ularning eng muhim, zaruriy, barqaror va takrorlanib turuvchi aloqasi, bog‘lanishi va o‘zaro ta’siridir.

**Konstitusiyaviy qonun** - qator mamlakatlarda konstitusiyaviy huquqning bosh manbalaridan biri. Roman-german huquq oilasiga kiruvchi mamlakatlarda konstitusiyaviy qonun - bu konstitusiyaga o‘zgartishlar kirituvchi qonun, O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston kabi davlatlarda esa konstitusiyaviy qonun konstitusiyada belgilangan masalalar bo‘yicha qabul qilinadi. Birinchi holatda konstitusiyaviy qonunni qabul qilish tartibi konstitusiyaga o‘zgartish kiritish tartibiga mos keladi, ikkinchi holatda konstitusiyaviy qonun konstitusiyani o‘zgartirish tartibidan farq qilib, maxsus murakkablashtirilgan tartibda, ya’ni

qonun chiqaruvchi idora a'zolarining malakali ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi. Alovida olingan davlatlarda konstitusiyaviy qonun deb, mazkur davlat konstitusiyasini tashkil etuvchi qonunlar majmuasiga aytildi (m-n, Shvesiyada). Ba'zi olimlar qabul qilinishi Konstitusiyada nazarda tutilgan qonunlarni ham konstitusiyaviy qonun deb hisoblaydilar.

Konstitusiyaviy qonun - normativ-huquqiy hujjatlar tizimida o'zining yuridik kuchi va ahamiyatiga ko'ra konstitusiyadan keyin turadigan qonun shakli. Konstitusiyaviy qonunlar konstitusiyada ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qabul qilinadi. Konstitusiyaviy qonunlarni qabul qilish tartibi joriy qonunlarni qabul qilishga qaraganda birmuncha farq qiladi. Jumladan, bunday qonunni qabul qilish uchun deputatlarning mutloq ko'pchiligi ovozi, ya'ni uchdan ikki qism ovoz berilishi talab qilinadi. 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitusiyaviy qonun ana shunday qonunlar jumlasiga kiradi. Konstitusiyaviy qonunlarning qabul qilinishi konstitusiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga sabab bo'ladi. Masalan, mamlakatimizda 2002 yil 27 yanvar kuni o'tkazilgan referendum natijalariga muvofiq "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiysi tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitusiyaviy qonun qabul qilindi va ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XVIII, XIX, XX, XXII boblariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Konstitusiyaviy qonunlar alovida normativ-huquqiy hujjat sifatida konstitusiya bilan birga xarakatda bo'lib, uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Kodeks (lot. "Sodex" - qonunlar to'plami) - ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi, ustuvor huquq normalarini o'zida mujassamlashtirgan va tizimlashtirilgan huquqiy akt - qonun bo'lib, unda huquq tarmog'ining barcha normalari mantiqan mutanosiblashtiriladi (masalan, fuqarolik kodeksi, oila kodeksi, jinoyat kodeksi va b.) U katta miqdordagi turli xil normalarni qamrab olsa ham, ichki muvofiqlikka ega bo'lgan yagona bir butun

aktdir. Kodeksning tarkibiy qismlari (boblar, bo‘limlar, normalar, institutlar) o‘zaro uzviy aloqador bo‘lib, muayyan tizim tarzida joylashtiriladi. An’anaga ko‘ra, qonunchilik sohalarida uyg‘unlashtiruvchi va boshqaruvchi faol markaz rolini tegishli kodekslar o‘ynaydi. Kodeks oddiy qonundan o‘zining mukammalligi, sayqal topganligi, barqarorligi bilan farq qiladi. Agar muayyan qonunchilik sohasida bir vaqtning o‘zida Kodeks va bir necha qonun hujjatlari mavjud bo‘lsa, ular ichida kodeks yuridik kuchi hamda tartibga solish imkoniyati jihatidan ustunlik qiladi. Kodekslar ichki mantig‘ining pishiqligi, normalarining o‘zaro muvofiqlashtirilganligi bilan ajralib turadi.

Kodekslashtirilgan aktlar o‘zining huquqiy tartibga soluvchi ta’sir kuchini va ahamiyatini uzoq muddat davomida saqlab qoladi. Kodeksdagi huquqiy normalarning joylashishi tegishli huquq tarmog‘i tizimining aks ettirilishi tartibida ishlab chiqiladi. Kodekslar ijtimoiy munosabatlarning jamiyatdagи barcha rivojlanish bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda fuqarolik, fuqarolik-prosessual, jinoyat, jinoyat-prosessual, ma’muriy javobgarlik, mehnat, xo‘jalik-prosessual, oila, yer, uy-joy, soliq, bojxona va shu kabi qator **kodekslar amalda qo‘llanilib kelinmoqda**.

**Qonunosti hujjatlari** - davlat hokimiyati organlarining qonunga nisbatan pastroq yuridik kuchga ega bo‘lgan huquqiy aktlardir. Qonunosti hujjati qonunga asosan va uning ijrosini ta’minlash yuzasidan chiqariladi. Qonunosti hujjatlari umummajburiy tusdagi (normativ) va umummajburiy tusga ega bo‘lmagan (normativ bo‘lmagan) huquqiy hujjatlarga bo‘linadi. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, Qonunosti hujjati normativ tusdagi qonunosti aktlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining umummajburiy tusdagi huquqiy aktlari kiradi.

Davlat idorasining qonunda rasman ifodalanishi, uning rasmiyligi, yuridik ko‘rsatmalarni bayon qilishning aniq va tushunarligini ta’minlash uchun qonunni qat’iy tartibda va oldindan bixilllashtirilgan shakllarda hamda tegishli rasmiy rekvizitlarning (sarlavha, chiqarilgan sana va boshqalar) aniq

rasmiylashtirilishini talab etadi. Normativ hujjatning tashqi rasmiy rekvizitlari uning rasmiy xususiyatga, yuridik kuchga egaligidan dalolat beradi. Shuningdek, ular normativ hujjatni qabul qilgan davlat organi, vaqt va qaysi shaklda qabul qilganligini ko'rsatadi.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasida normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi rekvizitlarga ega bo‘lishi belgilangan:

hujjatning turi va nomi;

hujjat qabul qilingan joy, sana (O‘zbekiston Respublikasining qonunlari uchun ma’qullangan va imzolangan sana ham), raqami (vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari uchun ular davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sana va ro‘yxatga olish raqami ham);

tegishli normativ-huquqiy hujjat matnini tasdiqlashga rasman vakolati bo‘lgan shaxsning lavozimi, imzosi, ismining bosh harfi va familiyasi.

#### *Nazorat savollari:*

1. Dispozisiya tushunchasi, turlari va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering. Turlari bo‘yicha qonunchilikdan misollar keltiring.
2. Sanksiya tushunchasi, turlari va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering. Turlari bo‘yicha qonunchilikdan misollar keltiring.
3. Huquq normasi tushunchasi, belgilari va xususiyatlarini izohlab bering.
4. Huquq ijodkorligi tushunchasi, turlari va tamoyillari yoritib bering.
5. Qonun ijodkorligi jarayoni: tushunchasi, prinsiplari va bosqichlari.

## **5. Huquqiy hulq-atvor. huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik tushunchalarini shakllantirish**

**Reja:**

1. Huquqiy xulq-atvor tushunchasi.
2. Huquqiy xulq-atvorning turlari (ko‘rinishi).
3. Huquqbuzarlikning tarkibiy elementlari.
4. Yuridik javobgarlik tushunchasi.

**Shaxsning huquqiy xulq-atvori** – bu shaxs tomonidan yuridik normalar ko‘rsatmalariga mos keladigan xatti-harakatlarning amalga oshirilishidir. Yana bu – qonunga itoat etuvchi xatti-harakat hamdir.

**Huquqiy xulq-atvor** – bu huquq normalariga mos keladigan, yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan, ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo‘lgan, huquq sub’ektlarining ongli ravishdagi xulqidir.

Huquq nuqtai nazaridan xulq-atvor huquqqa mos keluvchi, yuridik betaraf va huquqqa zid keluvchi bo‘lishi mumkin.

**Huquqiy xulq-atvor elementlari:**

- sub’ektlar (jismoniy va yuridik shaxslar);
- ob’ektlar (predmet va sub’ekt hulq-atvori);
- ob’ektiv tomoni (hulq-atvorning harakat va harakatsizlik ko‘rinishlari);
- sub’ektiv tomoni (sub’ektning mas’uliyatlilik darajasi).

Huquqiy xulq-atvorning quyidagi uch turi (ko‘rinishi) mavjud:

**1. Faol huquqiy xulq-atvor.** Bu fuqarolarning, mansabдор shaxslarning qo‘shimcha vaqt, kuch-g‘ayrat, ba’zan esa moddiy mablag‘lar sarflash bilan bog‘liq bo‘lgan bir maqsadga yo‘naltirilgan, tashabbusga asoslangan qonuniy faoliyatidir.

O‘zini himoya qila olish, yashash va rivojlanish uchun normal sharoitlarni ta’minlash, qonun doirasida erkin bo‘lish, qonunlarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatish, davlat timsolida o‘z himoyachisiga ega bo‘lish uchun

shaxs iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa jihatlardan faol bo‘lishi kerak. Shaxsning huquqiy faolligi – bugungi kun talabidir. Huquqiy faollikni namoyon qilishning shakllari xilma-xildir. Bu sidqidildan qilingan xizmat faoliyati ham, partiyalar, jamoat birlashmalarining tashkil qilinishi va ularning ishida ishtirok etish, qonun loyihibalarining muhokamasida qatnashish va turli davlat organlari bilan hamkorlik qilish ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

**2. Odatiy huquqiy xulq-atvor.** Faol xatti-harakatdan farqli o‘larоq, u qo‘shimcha mablag‘lar, kuch-g‘ayratlar sarf qilish bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Bu insonning huquqiy normalarga mos keladigan kundalik maishiy turmushi va boshqa hayotidir. Xulq-atvorning ushbu turi doirasida fuqarolar o‘zlarining huquqiy majburiyatlarini bajaradilar, yuridik ahamiyatga molik biron-bir xatti-harakatni sodir etadilar. Biroq bu o‘rinda ularning faolligi huquqiy talablar darajasidan ortib ketmaydi. U odatiy bo‘lib, kishining oila, davlat, jamiyatdagi normal hayotiy faoliyati uchun zarurdir. Inson-fuqaroning moddiy, ma’naviy va boshqa ehtiyojlari xuddi shu tarzda qondiriladi.

**3. Passiv (marginal) huquqiy xulq-atvor.** Bunday hulq-atvorli shaxslar huquq ko‘rsatmalariga mos faoliyat yuritsalarda, bunda ular ushbu harakatlarni davlat majburlovidan, nohuquqiy hatti-harakatlari uchun tegishli tartibda jazolanishlaridan qo‘rqanliklari uchun amalga oshiradilar.

**Huquqbazarlik** – bu huquq va muomala layoqatiga ega sub’ekt tomonidan harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishida sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Bunday qilmish qonun bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazish xavfini tug‘dirishi mumkin.

### **Huquqbazarlikning asosiy belgilari:**

- jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy xavflilik;
- huquqqa zid xaraterga egaligi;
- aybli qilmish;
- zararli oqibat keltirib chiqaradi;

– kishilarning erki va ongiga bog‘liq bo‘lgan holda, ular tomonidan harakat yoki harakatsizlik shaklida amalga oshiriladi va boshqalar.

### **Huquqbuzarlikning elementlari:**

- ob’ekti (huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar);
- ob’ektiv tomoni (huquqning buzilishi va uning ijtimoiy xavfliligi);
- sub’ekti (huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar);
- sub’ektiv tomoni (huquqbuzarlik oqibatidan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli qilmishga bo‘lgan ongli-ruhiy munosabat).

O‘z navbatida huquqbuzarlik **ob’ektiv tomonining quyidagi elementlari mavjud:**

- 1) huquqqa qarshi qilmish;
- 2) zararli oqibat;
- 3) huquqqa qarshi qilmish va zararli oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik;
- 4) joyi, vaqt, usuli va muhit.

Huquqbuzarlik sub’ektiv tomonining zaruriy belgisi aybdir.

**Ayb** – huquqbuzarning huquqqa xilof xatti-harakatiga va uning ijtimoiy xavfli oqibatiga nisbatan qasd yoki ehtiyyotsizlik ko‘rinishidagi munosabati.

**Qasd** – shaxsning huquqqa xilof hatti-harakatini sodir qilayotganida, bu harakat (harakatsizlik)ning huquqqa xilofligini, ijtimoiy xavfliligini, uning oqibatini anglashi yoki tushunishi (to‘g‘ri qasd), yoki bu munosabatning ma’lum oqibatni keltirib chiqarishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yishi (egri qasd).

**Ehtiyyotsizlik** – shaxsning hatti-harakatlari natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarning oldini olishni nazarda tutib, beparvolik bilan o‘ziga-o‘zi ishonib harakat (harakatsizlik) qilishi.

Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra huquqbuzarlikning jinoyat(odam o‘ldirish, o‘g‘rilik, firibgarlik va h.). va nojo‘ya ish ko‘rinishidagi turlari mavjud.

Nojo‘ya ish ko‘rinishidagi huquqbuzarlik o‘z navbatida fuqarolik-huquqiy (moddiy zarar yetkazish, majburiyatni bajarmaslik va h.); ma’muriy-huquqiy (mayda bezorilik, yo‘l harakati qoidalarini buzish va h.k); intizomiy-huquqiy (ishga kelmaslik, kech qolish va h.)larga bo‘linadi.

**Savol:** Huquqbazarlik kelib chiqishining ijtimoiy sabablarini muhokama qiling.

**Huquqbazarlik ob'ekti** – bu huquq bilan tartibga solinadigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatlarning *umumiy, maxsus va bevosita* ob'ektlari farqlanadi.

**Huquqbazarlikning ob'ektiv tomoni** – bu huquqqa zid xatti-harakatning tashqi belgisidir. Aynan shunday belgiga asosan huquqbazarlik haqida, u qanday ro'y bergani va qanchalik zarar keltirgani haqida mulohaza yuritish mumkin bo'ladi.

**Huquqbazarlikning ob'ektiv tomonini tarkibiy qismlari quyida-gildardan iboratdir:**

1) Nojo'ya harakat – ya'ni inson irodasi va aql-zakovati nazoratida bo'lgan va harakatda yoki harakatsizlikda ifodalananadigan xulq-atvordir. Harakat – kishining faol xatti-harakati, harakatsizlik – passiv xulq-atvor hisoblanadi. Shaxs harakat qilishga majbur bo'la turib, ya'ni o'z huquqiy majburiyatlarini bajarishi kerak bo'lgani holda harakatsizlikka yo'l qo'yishi huquqbazarlikka kiradi.

2) Xatti-harakatning huquqqa zidligi, ya'ni yuridik normalar ko'rsatmalariga zidligi tufayli huquq tomonidan taqiqlanadi. Huquqqa zidlik, ya'ni xatti-harakatning qonun bilan taqiqlanishi uch xil usul:

birinchisi, to'g'ridan-to'g'ri taqiqlash orqali (mehnat qonunlariga binoan, zararli mehnat sharoitlaridagi og'ir ishlarda ayollar mehnatidan foydalanish taqiqlanadi);

ikkinchisi, normada huquqqa zid xatti-harakat aniqlanib, uni sodir etganlik uchun jazo chorasi belgilanganida bilvosita taqiq orqali (bu – yozma ifodalangan yoki oddiygina nomi keltirilgan xatti-harakat qonun bilan taqiqlangan demakdir; chunonchi Jinoyat kodeksining maxsus qismi barcha normalari bunga misol bo'la oladi);

uchinchisi, huquqiy normada ijobiy, qonunda ifodalangan xatti-harakatni bayon etish orqali (bunday vaziyatda xatti-harakatning boshqa, unga qarama-qarshi turi maqsadga muvofiq bo'lmaydi va shuning uchun taqiqlangan xatti-

harakat hisoblanadi; masalan, oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha sotuvchi xaridorga buyumni, xaridor esa sotuvchiga pulni berishga majbur bo‘ladi, biroq bu – xattiharakatning boshqa turiga ko‘ra – pul yoki buyumning berilmasligi taqiqlanadi deganidir) ifodalanadi.

3) Qilmish natijasida yetkazilgan zarar – huquqbazarlik natijasida yuzaga keladigan salbiy va shuning uchun nomaqbul oqibatdir. Ushbu salbiy oqibatlar mulkiy (mulkdan ayrilish, boy berilgan foyda), nomulkiy (haqoratlash, bo‘hton), ijtimoiy (o‘z huquqini amalga oshirish imkoniyatidan mahrum bo‘lish), shaxsiy (hayotdan ko‘z yumish, sog‘liqqa zarar yetkazish) va boshqa xususiyatga ega bo‘lishi mumkin.

4) Qilmish bilan yetkazilgan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish. Huquqdagi sababiy bog‘lanish – hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘lib, ulardan biri – zaruratni ikkinchisi – oqibatni tug‘diradi.

**Huquqbazarlik sub’ekti** – bu huquqqa zid aybli qilmishni sodir etgan shaxs, ya’ni huqubzardir. Har qanday shaxs ham huquqbazarlik sub’ekti hisoblanmaydi, faqat o‘z qilmishiga javob bera oladigan, aqli raso shaxsgina shunday sub’ekt sifatida tan olinadi.

**Huquqbazarlikning sub’ektiv tomoni.** Bu jihat ayblov bilan bog‘liq. Sodir qilingan qilmishiga nisbatan shaxsning ruhiy munosabati sifatida ayb turli shakllarga ega. U qasddan va ehtiyoitsizlikdan sodir bo‘lishi mumkin. Qasd o‘z navbatida – to‘g‘ri va egri qasdga bo‘linadi.

**Yuridik javobgarlik** - bu huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida ko‘zda tutilgan sanksiyalar asosida davlatning majburlov choralarini qo‘llashdir. Bu choralar: shaxsiy (ozodlikdan mahrum etish); mulkiy (jarima); tashkiliy (muayyan huquqdan mahrum etish; ishdan bo‘shatish) xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

**Yuridik javobgarlik huquqbazarlikning turlariga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:** jinoiy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, ma’muriy-huquqiy, intizomiy-huquqiy.

Jinoiy va fuqarolik huquqiy javobgarlikni belgilash sud tomonidan amalga oshiriladi.

### **Yuridik javobgarlik kuyidagi belgilari bilan xarakterlanadi:**

- yuridik javobgarlik davlat majburlov choralari bilan bog‘liq;
- yuridik javobgarlik huquqbuzarlik bilan bog‘liq;
- yuridik javobgarlik huquqbazar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chikaradi (ozodlikdan, ota-onalikdan mahrum bo‘lish yoki sodir etilgan qilmishi uchun jarima to‘lash va xokazo);
- normalarning sanksiyasida o‘rnatilgan bo‘ladi;

**Yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlar:** zaruriy mudofaa; oxirgi zarurat; buyruqni yoki boshqacha tarzdagi rasmiy vazifani bajarish; muomalaga layoqatsizlik va h.

Yuridik javobgarlik-huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida ko‘zda tutilgan sanksiyalar asosida davlatning majburlov choralarini qo‘llash bo‘lib, bunda aybdor shaxs muayyan huquqlardan (shaxsiy, tashkiliy va xokazo) mahrum etiladi.

**Savol:** Qonunchilik hujjatlaridan foydalangan holda yuridik javobgarlikning turlarini tahlil qiling, hamda ularning huquqbuzarliklarni oldini oliv va huquqbuzarni axloqan tuzatishdagi samarasini muhokama qiling.

### **Nazorat savollari:**

1. Huquqiy xulq-atvor deganda nima tushuniladi va u qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi?
2. Huquqiy xulq-atvorning qanday turlari (ko‘rinishi) mavjud?
3. Huquqbuzarlikning tarkibiy elementlarini nimalar tashkil etadi?
4. Yuridik javobgarlik tushunchasini yoritib bering.

## **6. Mamlakatda qonuniylikni ta'minlashda huquq ustuvorligi va huquqiy tartibot masalalari**

**Reja:**

1. Huquq ustuvorligi tushunchasi, mazmuni, mohiyati.
2. Qonuniylik tushunchasi, prinsiplari va uning normativ va ijtimoiy asoslari.
3. Qonuniylik kafolatlari hamda qonuniylikni ta'minlashda Konstitusianing ahamiyati.
4. Huquqiy tartibot va jamoat tartiboti. Intizom.

**Tayanch so'zlar:** **qonuniylik** – barcha davlat organlari, jamoat birlashmlari, mansabdar va yuridik shaxslar hamda fuqarolar tomonidan amaldagi qonunlarga aniq va og'ishmay rioya qilish.

**Huquqiy tartibot** – bu huquq sub'ektlarining huquq normalarida belgilangan qoidalarga to'la va aniq rioya qilishlari natijasida o'rnatiladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

**Oonuniylikning kafolati** – bu qonun va qonun osti aktlari amal qilishini ta'minlovchi, fuqarolarning huquqlarini hamda davlat, jamiyat manfaatlarini to'siqlarsiz amalgalashuvchi usullari, shart-sharoitlaridir.

### **1. Huquq ustuvorligi tushunchasi, mazmuni, mohiyati.**

Hozirda huquq ustuvorligi tushunchasining ko‘p qo'llanib kelininayotnini guvohi bo‘lish mumkin. Huquq ustuvorligi tushunchasining inglizcha tarjimasi “The Rule of Law” bo‘lib, u ayniqsa xalqaro tashkilotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda tez-tez ishlatib turiladi.

Huquq ustuvorligi huquqshunoslar uchun yaratilgan tushuncha emas. Xavfsizlik, huquq, adolat va boshqaruvning kundalik masalalari hammamizga ta’sir qiladi. Bunda, aynan huquq ustuvorligi korrupsiyaning kamayishi, qashshoqlik va kasallikka qarshi kurashishga va odamlarni katta-kichik adolatsizliklardan himoya qilishga xizmat qiladi. Bu adolat, imkoniyat va tinchlikka asoslangan rivojlanishni istovchi jamiyatlar, shuningdek hisobdor hukumat va insonning asosiy huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga erishish uchun zamin yaratadi. Shunday ekan, har kim huquq ustuvorligiga erishishdan manfaatdordir. Masalan, korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan, inson huquqlari poymol etiladigan, mulkiy huquqlar kafolatlanmagan hamda nizolarni hal etishning samarali mexanizmlari aniq belgilanmagan davlatga chet el investorlari sarmoya olib kirishni afzal ko‘rmaydilar. Bu, o‘z navbatida, huquq ustuvorligining iqtisodiy sohaga ham bevosita ta’siri borligidan darak beradi.

Shu bois, huquq ustuvorligi bugungi kunda dunyo hamjamiyati intilayotgan global idealdir.

2011 yilda BMT darajasida “Huquq ustuvorligi ko‘rsatkichlari” e’lon qilindi. BMT Bosh Assambleyasini tomonidan 2012 yilda oliy darajadagi

uchrashuvi natijasi sifatida “huquq ustuvorligi barcha davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan bir xilda qo’llanilishi to‘g‘risida” qaror (Deklarasiya) qabul qilindi.

2006 yilda Dunyo mamlakatalarida huquq ustuvorligining holatini baholash va tegishli tartibda reytingini shakllantirish bo‘yicha maxsus xalqaro nodavlat tashkiloti tashkil etilgan. Ushbu tashkilot Butunjahon odil sudlov dasturi xalqaro notijorat tashkiloti (The World Justice Project – WJP)dir. Ushbu tashkilot dunyoning 120 dan ortiq davlatlari o‘rtasida huquq ustuvorligi sohasidagi ma’lumotlarni tadqiq etadi va o‘ta dolzarb va xolis ma’lumotlarni aks ettiradi.

2019 yilgi reyting natijalariga ko‘ra O‘zbekiston huquq ustuvorligi indeksi bo‘yicha 0.46 bal bilan 126 davlat orasidan 94 o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2020 yilda 0.47 bal bilan 126 davlat orasidan 92 o‘rinni egalladi<sup>7</sup>.

Mamlakatimizda O‘zbekistonning xalqaro indekslarda yaxshi ko‘rsatkichlarga erishish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. 2019 yil 25 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-4210-son qarori qabul qilindi<sup>8</sup>. Qarorda O‘zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashga to‘sqinlik qilayotgan mavjud haqiqiy muammolarning tizimli tahlilini olib borish, ularni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish muhim vazifalardan biri etib belgilandi.

Huquq ustuvorligi tushunchasiga ko‘plab ta’riflar berilgan bo‘lsa-da, uning yagona ta’rifi mavjud emas. Buning boisi shundaki, huquq ustuvorligi nisbatan turli yondashuvlarning mayjudligidir.

Huquq ustuvorligi borasida ilk g‘oyalar qadimgi yunon va o‘rta asr mutafakkirlarining qarashlari bilan bog‘liq. Qirol ilohiy huquqlarga ega bo‘lgani bois u davlat qonunlaridan ustun deb hisoblanar edi. Shotlandyalik ilohiyotshunos Semyuel Rezerford esa huquq ustuvorligi tushunchasidan qirolning ilohiy huquqiga qarshi olib borgan bahs-munozarada foydalangan edi.

Huquq ustuvorligi tushunchasining zamonaviy tarzdagi ilk talqini konstitusiyaviy huquq sohasi bo‘yicha olim va yurist ingliz **Albert Venn Daysi** (1835-1922) hisoblanadi. U “Konstitusiyaviy qonunni o‘rganishga kirish” (Introduction to the Study of the Law of the Constitution, 1885) nomli asarda huquq ustuvorligi tushunchasini tahlil etgan. Xususan, quyidagi fikr bildiradi. “Hech kim qonundan ustundan bo‘lolmaydi. Har qanday shaxs martabasi va holatidan qat’iy nazar qirolik qonunlariga bo‘ysunishi shart va sud oldida javobgar bo‘ladi.” Keyinchalik ushbu qarash bir qator olimlar tomonidan rivojlantirilgan<sup>9</sup>. Natijada, huquq ustuvorligini tushunishga nisbatan ikki xil yondashuv vujudga kelgan<sup>10</sup>.

<sup>7</sup> Qarang. [https://worldjusticeproject.org/sites/default/files/documents/WJP-ROLI-2020-Online\\_0.pdf](https://worldjusticeproject.org/sites/default/files/documents/WJP-ROLI-2020-Online_0.pdf)

<sup>8</sup> Qarang <https://www.lex.uz/docs/4215422>

<sup>9</sup> Batafsil qarang <https://plato.stanford.edu/entries/rule-of-law/#:~:text=The%20Rule%20of%20Law%20comprises,norms%20that%20govern%20a%20society>.

<sup>10</sup> Qarang <http://oulawstudent.blogspot.com/2018/04/return-to-rule-of-law-part-3.html>

**1. Huqua ustuvorligiga formal vondashuv.** Amerikalik yurist faylasuf Lon Fuller (1902-1978) “The Morality of Law” asarida (1964) qonunlar quyidagi muayyan prinsiplarga javob berishi kerakligini aytadi.

**Umumiylit.** Mazkur prinsipga ko‘ra qonun muayyan shaxslarga emas, balki jamiyatning barcha a’zolariga qaratilishi kerak.

**Ommaviy e’lon qilinish.** Qonunlar ommaga e’lon qilinishi zarur. Shuningdek, fuqarolar istalgan vaqt ularni topa olishi kerak.

**Prospektivlik.** Qonunlar o’tmishdagi muayyan xulq-atvorni ta’qiqilashdan ko‘ra fuqarolarning kelajakdagi xulq-atvori qanday bo‘lishi kerakligini aniqlashtirib berishi kerak.

**Tushunarllilik.** Qonunlar fuqarolarga tushunarli bo‘lishi kerak. Zero, qonunlarda qanday xulq-atvor ta’qiqlanayotgani, qanday xulq-atvor talab qilinayotgani, qanday xulq-atvorga ruxsat berilayotgani aniq bayon etilish kerak.

**O‘zaro zid kelmaslik.** Qonunlar bir-biriga zid kelmasligi kerak. Bir qonun boshqa qonun ruxsat bergen xulq-atvorni ta’qiqlamasligi kerak.

**Ilojsiz xulq-atvorni talab qilmaslik.** Qonunlar fuqarolardan ularning imkoniyat doirasidan tashqarida bo‘lgan, ya’ni bajarilishi ilojsiz bo‘lgan xulq-atvorni talab etmasligi kerak.

**Barqarorlik.** Qonunlar tezda o‘zgarishi kerak emas. Ya’ni, qabul qilingan qonunlar barqaror bo‘lishi kerak.

**O‘zaro muvofiqlik.** Qabul qilingan qonunlardan anglashilayotgan ma’no va ularning ijrosi o‘rtasida muvofiqlik bo‘lishi zarur. Ya’ni, qonun ijrochilar tomonidan unda nazarda tutilganidan boshqacha tazda ijro etilmasligi kerak.

Keyinchalik bir qator olimlar yuqoridagi prinsiplarga mustaqil sud hokimiyati, demokratizm, odil sudovga bo‘lgan huquq, aybsizlik prezumsiyasi kabi boshqa bir qancha prinsiplarni ham kirtdilar.

**2. Huqua ustuvorligiga mazmun jihatdan vondashuv.** Buyuk Britaniyalik sudya va professor Tom Bingxem (1933-2010) “Huquq ustuvorligi” nomli asarida (2010) huquq ustuvorligiga formal yondashishdan ko‘ra qonun hujjatlarining mazmuniga e’tibor berish kerakligiga urg‘u beradi. Yuqoridagi prinsiplar qonun chiqaruvchilar uchun formal instrument ekanini aytib, qabul qilinadigan qonun hujjatlaridagi normalar huquqni tashkil etishi uchun ular, eng avvalo, insonnинг tabiiy huquqlarining hurmat qilinishini e’tiborga olishi zarur. Zero, tarixda AQSh da qullik hukm surgan, Germaniyada nasistlar, Janubiy Afrikada apatrit hukumat, sobiq ittifoqda kommunistik partiya boshqaruvda bo‘lgan davrlarda garchand qonunlar deyarli formal prinsiplarga amal qilingan holda qabul qilinsa-da, ularning mazmunida inson huquqlari va erkinliklarining poymol etilishini kuzatish mumkin edi.

Shu bois, huquq ustuvorligiga mazmun jihatdan yondashuv tarafдорлари formal yondashuv tarafдорлари tomonidan ilgari surilgan prinsiplarni inkor qilmagan holda unga qo‘shimcha sifatida qabul qilinadigan qonun hujjatlari inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishi, ularni tahqirlamasligi, lozimligiga urg‘u beradilar. Shundagina adolatli qonunlar qabul qilinishiga erishiladi.

Huquq ustuvorligi atamasi ko‘plab xalqaro hujjatlarda uchrasa-da, ammo unga normativ ta’rif berilmagan. Ba’zilar huquq ustuvorligini ilmiy doktrina, ya’ni olimlarning ilmiy qarashlari mahsuli deya qaraydilar. Albatta, bu to‘g‘ri fikr. Biroq, huquq ustuvorligini prinsip deb hisoblaydiganlar mavjud. Zero, huquq ustuvorligi tushunchasi olimlar tomonidan ilgari surilib, tadqiq etilib doktrinaga aylangan va keyinchalik mazkur tushuncha xalqaro va milliy hujjatlarda aks etib, unga davlat hokimiyatini amalga oshirishning prinsiplaridan biriga aynlangan, desak noto‘g‘ri bo‘lmaydi.

Shundan kelib chiqib, 2004 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi huquq ustuvorligiga quyidagicha ta’rif bergen edi.

***Huquq ustuvorligi*** – bu shunday boshqaruvi tizimiki, unga binoan ommaviy e’lon qilinadigan, bir xil darajada ijro qilinadigan, mustaqil sudlar tomonidan ishni ko‘rishda tayaniladigan, inson huquqlari sohasida xalqaro standarlar va normalar talablariga muvofiq keluvchi qonunlarga barcha shaxslar, davlat va xususiy muassasalar hamda tashkilotlar, shu jumladan, davlatning o‘zi ham rioya qiladilar. Bu, ayni paytda, qonunning ustunligi, qonun oldida hammaning tengligi, qonun oldida javobgarlik, qonunlarni qo‘llashda adolat, davlat hokimiyati vakolatlarining taqsimoti, qarorlar qabul qilishda xalqning ishtiroki, qonunlarning tushunarligi, hokimiyat vakolatlarini suiiste’mol etishdan tiyilish, huquqiy va prosessual shaffoflik singari prinsiplarni ta’minlashga qaratilgan choralarining ko‘rilishini talab etadi.

(*Report of the Secretary-General: The rule of law and transitional justice in conflict and post-conflict societies (S/2004/616)*)<sup>11</sup>.

Yuqoridagi ta’rifda huquq ustuvorligiga ham formal, ham mazmunan yondashuvning hisobga olinganini kuzatish mumkin. Shu bois, Butunjahon odil sudlov dasturi xalqaro notijorat tashkiloti tomonidan davlatlarning huquq ustuvorligi indeksini aniqlashga huquq ustuvorligiga ham formal, ham mazmunan yondashuvdan kelib chiqadigan faktorlarni hisobga oladi.

Huquq ustuvorligiga berilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, huquq ustuvorligi bu qabul qilingan bironta qonunning ustunligi emas, balki bu bir tizimdir. Bu tizim o‘z navbatida qonun ustuvorligini ham o‘z ichiga oladi. Demak, huquq ustuvorligi qonun ustuvorligini ham o‘z ichiga oladi. Biroq, har qanday qonunning ustunligini ta’minlash huquq ustuvorligini ta’minlash degani emas. Sababi, inson huquq va erkinliklarini poymol etuvchi,adolatsiz qonunlarning qabul qilinishi va uning ustunligini ta’minlashga intilish huquq ustuvorligini keltirib chiqarmaydi. Huquq ustuvorligiga erishish uchun, eng avvalo, adolat, erkinlik va tenglikni ta’minlovchi qonunlarni qabul qilish kerak bo‘ladi. Zero, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standarlar va normalar ham ayni shu narsani talab etadi.

<sup>11</sup> <https://www.un.orgeruleoflaw/what-is-the-rule-of-law-archived/>

## **2. Qonuniylik tushunchasi, prinsiplari va uning normativ va ijtimoiy asoslari.**

**Qonuniylik** – bu huquq sub'ektlari tomonidan qonunlar va qonun osti aktlariga to‘la va aniq amal qilinishidir. Qonuniylik – huquq va hokimiyat, huquq va davlatning uzviy bog‘liqligida o‘z ifodasini topadigan, ijtimoiy-siyosiy hayotga huquqiy tus beradigan keng ma’nodagi siyosiy-huquqiy hodisa.

**Qonuniylik** – ijtimoiy hayotda huquq va qonun hukmronligidan, ijtimoiy munosabatlar barcha ishtirokchilari tomonidan huquqiy normalar ko‘rsatmalarini og‘ishmay amalga oshirish, mansabdar shaxslar faoliyatidagi huquqbuzarlik va zo‘ravonlikka qarshi izchil kurashish, jamiyatda tartib va uyushqoqlikni ta’minlashdan iborat ijtimoiy-siyosiy rejimdir.

### **Qonuniylikning asosiy tamoyillari:**

- 1.** Konstitusiya va qonunlarning boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan ustunligi.
- 2.** Huquq sub'ektlarining qonun va sud oldidagi tengligi.
- 3.** Hokimiyat organlari va mansabdar shaxslarning faoliyatida zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yilmasligi.
- 4.** Inson (fuqarolar) huquq va erkinliklarini kafolatlanganligi.
- 5.** Normativ huquqiy hujjatlarni mamlakatning butun hududida bir xil qo‘llanilishi va talqin etilishi.
- 6.** Maqsadga muvofiqlikning qonuniylikka qarshi qo‘yilmasligi.
- 7.** Qonuniylikning madaniyat bilan uzviy bog‘liqligi.

### **3. Qonuniylik kafolatlari hamda qonuniylikni ta’minlashda Konstitusyaning ahamiyati.**

**Qonuniylikning kafolati** – bu qonun va qonun osti aktlari amal qilishini ta’minlovchi, fuqarolarning huquqlarini hamda davlat, jamiyat manfaatlarini to‘silqarsiz amalga oshiruvchi usullari, shart-sharoitlaridir.

### **Qonuniylikni amalga oshirish kafolatining turlari:**

1. iqtisodiy (jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, mulkchilikning turli shakllari, iqtisodiy erkinlik va b);
2. siyosiy (konstitusion tuzumning demokratlashtirilish darajasi, jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy plyuralizm (fikrlar xilma - xilligi) ko‘ppartiyaviylik, hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi va b);
3. tashkiliy (qonun va qonun osti aktlariga amal qilinishini nazorat qiluvchi maxsus organlar (sud, milisiya, prokuratura va b.)ning faoliyati);
4. huquqiy (qonuniylikni amalga oshirish uchun barcha huquqiy normalarni bajarish, huquqbuzarliklarning oldini olish, uni buzgan kishilarga nisbatan tegishli jazo choralarini qo‘llash);

5. jamoatchilik (jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning qonuniylik va huquq tartibotni mustahkamlashda ishtirok etishi).

Huquq ustuvorligining tarkibiy qismi bo‘lgan qonunning ustuvorligi prinsipi O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 14-moddasi hamda III bobi 15 va 16-moddalarida mustahkamlangan. Konstitusianing 14-moddasiga ko‘ra, davlat o‘z faoliyatini qonuniylik prinsipi asosida amalga oshiradi. Konstitusianing 15-moddasi birinchi qismiga muvofiq esa O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlarining usutunligi so‘zsiz tan olinadi. 15-moddaning ikkinchi qismi 14-moddadagi qonuniylik tushunchasi bilan bevosita bog‘liqdir. Unga ko‘ra, davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitusiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar. Buning ma’nosi shundaki, Prezidentdan tortib eng quyi bo‘g‘indagi mansabdar barcha shaxslar Konstitusiya va qonunlar bilan berilgan vakolatlarga egalar. Ularning ushbu vakolati insonning konstitusiyaviy huquq va erkinliklari boshlanadigan nuqtada tugaydi. Fuqarolar Konstitusiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlaridan o‘z ixtiyorlari bilan foydalanadilar. Biroq, ular Konstitusiya va qonunlarda belgilangan majburiyatlarni bajarishga majburdirlar. Shuningdek, fuqarolar Konstitusiya va qonunlar ta’qilagan narsalardan boshqa barcha ishlarni amalga oshirishda erkindirlar.

#### **4. Huquqiy tartibot va jamoat tartiboti. Intizom.**

Huquqni amalga oshirish va huquqiy norma talablarini bajarish qonuniylikning asosiy talabidir. Bu talabning amalga oshirilishi, erkin ijtimoiy munosabatlarda shunday tartibni o‘rnatishga olib kelishi kerakki, bunda sub’ektiv huquq qarshiliksiz amalga oshirilishi, yuridik majburiyatlar esa 490 og‘ishmay bajarilishi lozim. Qonuniylik asosida o‘rnatilgan bunday tartibot huquqiy tartibot deyiladi. Demak, huquqiy tartibot qonuniylik talablarini amalga oshirish asosida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlarning muayyan holatidir. Qonuniylik bilan huquqiy tartibot bir-biridan farq qiladi: qonuniylikning mazmuni huquqiy normalarga qat’iy va og‘ishmay rioya etishda ifodalansa, huquqiy

tartibot esa, ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining xalq-atvori, ularning sub’ektiv huquq va majburiyatlariga muvofiq kelishida ifodalanadi. Davlat jamiyatda o‘rnatilgan huquqiy tartibotning bosh kafolatidir. Shunday qilib, huquqiy tartibot huquqiy munosabatlar doirasida, mazkur munosabatlarning ishtirokchilari o‘z sub’ektiv huquqlarini amalga oshirishlari va yuridik majburiyatlarini bajarishlari natijasida vujudga keladi. Qonuniylikni amalga oshirish huquqiy tartibotni ta’minalash vositalaridan biri bo‘lsa, huquqiy tartibotni mustahkamlash esa, o‘z navbatida qonuniylikni mustahkamlashga yordam beradi. Huquqiy tartibot - huquqiy normalarni qo‘llash natijasida ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinganligini o‘zi-da ifodalaydi. Ushbu tartibot qonunlarning aniq amalga oshirilishi vositasida o‘rnatiladi. Bunda fuqarolar va tashkilotlarning huquqiy maqomi saqlanadi va ularning huquqiy layoqati

qarshiliksiz amalga oshirilishi mumkin bo‘ladi. Qonunlarsiz qonuniylik bo‘lmanidek, huquqiy munosabatlarsiz huquqiy tartibot ham bo‘lishi mumkin emas. Shu bilan birga, huquqiy tartibot bilan huquqiy munosabatlarning yig‘indisini tenglashtirib bo‘lmaydi. Ma’lum guruhdagi ijtimoiy munosabatlarning huquq bilan tartibga solinishi huquqiy munosabatlar yig‘indisini tashkil qiladi, ya’ni shu munosabat ishtirokchilari uchun qonunda aniq huquq va majburiyatlar ko‘rsatilgan bo‘ladi. Ammo huquqiy tartibot uchun bu yetarli emas, shu bois sub’ektiv huquqlarning amalga oshirilishi, yuridik majburiyatlarning qat’iy bajarilishini ta’minlovchi kafolatlar bo‘lishi zarur. Huquqiy tartibot huquq bo‘lgan joyda, huquq normalarining amalga oshirilishi ta’minlangan joyda mavjuddir. Jamoat tartibi - huquqiy normalarni amalga oshirishni va jamiyat turmush qoidalarini (shu jumladan, ahloq, odob va boshqa huquqiy bo‘lman ijtimoiy yurish-turish qoidalarini) hurmat qilishni talab etadi. Jamoat tartibini buzish faqat huquqiy normalarni emas, balki turmush qoidalarini hurmat qilmaslik natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Jamoat tartibi huquqiy tartibotga nisbatan keng ma’noni anglatadi. Jamiyatda huquqiy tartibotning o‘rnatalishi va amalga oshirilishi muayyan rahbariy g‘oyalar, prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Huquqiy tartibot prinsiplari qonuniylik, huquqiy tartibotning yagonaligi, ierarxiyaga asoslanganlik, adolatlilik, huquqiy tartibotning kafolatlanganligi, normativligi

kabilardan iborat. Qonuniylik – davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga og‘ishmay

amal qilishini anglatadi. Huquqiy tartibotning yagonaligi prinsipiga ko‘ra mamlakatning butun hududida yagona huquqiy muhit, huquqiy tartib o‘rnataladi, mazkur huquqiy tartibotga to‘g‘ri kelmaydigan

boshqa tarzdagi tartib o‘rnatish qat’iyan man etiladi. Ierarxiyaga asoslanganligi - huquqiy tartibotni amalga oshirishda ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari normativhuquqiy hujjatlarning pog‘onama-pog‘ona joylashganligi prinsipiga rioya etishini anglatadi. Adolatlilik – huquqiy tartibotning asosiy prinsipi hisoblanadi. Jamiyatda o‘rnatalgan huquqiy tartibotadolat g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi lozim, shundagina jamiyat a’zolari bunday huquqiy tartibotga ixtiyoriy rioya qilishlari mumkin. Huquqiy tartibotning jamiyat barcha a’zolari uchun maqbul

bo‘lishi talab etiladi. Huquqiy tartibotning kafolatlanganligi – jamiyatda o‘rnatalgan har qanday huquqiy tartib davlatning tashkilotchilik faoliyati va majburlov kuchi bilan ta’minlanadi. Huquqiy tartibotni ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Sud, prokuratura va ichki ishlar organlari o‘zlarining kundalik faoliyatida jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan vazifalarini amalga oshiradilar va shu yo‘l bilan jamiyatda huquqiy tartibot o‘rnatadilar. Huquqiy tartibotning normativligi – jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarning amalga oshishi hammaga birdek majburiy bo‘lgan huquqiy normalar orqali tartibga solinadi; huquqiy munosabat sub’ektlari va ularning sub’ektiv huquq va yuridik majburiyatları doirasi hamda huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o‘zgartiruvchi va bekor qiluvchi yuridik faktlar qonun bilan belgilanadi; huquqiy munosabat ishtirokchilarining harakatlari aniqlashtiriladi. Nazoratga olinganligi. Huquqiy tartibot davlat va

jamiyat tomonidan o‘rnataladi va nazoratga olinadi. Huquqiy tartibot o‘rnatalgan jamiyatda inson huquq va erkinliklariga rioya etiladi, fuqarolar o‘z majburiyatlarini ixtiyoriy bajaradilar. Shuningdek, fuqarolarning huquqiy xulqatvorini amalga oshirishga, qonun va qonun osti hujjatlarini sifatlari tarzda yaratishga hamda huquqni to‘g‘ri tatbiq etishga erishiladi. Yuqorida qayd etilgan prinsiplarga tayangan holda jamiyatda huquqiy tartibot o‘rnataladi. Yuridik adabiyotlarda huquqiy tartibotni turlarga ajratish, ya’ni tasniflash mavjud va u bir necha shakllarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, hududiy miqyosiga ko‘ra mamlakat, viloyat va tuman miqyosida o‘rnatalgan huquqiy tartibot; ikkinchidan, huquq sohasiga ko‘ra: konstitusiyaviy, moliyaviy, ma’muriy, jinoiy-huquqiy va boshqa huquq sohalari doirasida o‘rnatalgan huquqiy tartibot; uchinchidan, huquqiy ta’siriga ko‘ra umumhuquqiy, sohaviy va alohida normalar bilan o‘rnataladigan huquqiy tartibot. Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish muayyan tartibni joriy qilish, kishilarning o‘zaro munosabatlarida mustahkam intizomni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Jamiyatda qonuniylik, jamoat va huquqiy tartibotning ta’minla-

nishiga kuchli intizom orqali erishiladi. Intizom – davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek korxona va muassasalarda o‘rnatalgan, amal qilinishi lozim bo‘lgan ichki kun tartibi qoidalalaridir. Huquqshunoslikda intizomni tasniflashning ko‘p turlari bo‘lib, ularni shartli ravishda uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin. Bular davlat intizomi, harbiy intizom va mehnat intizomi kabi turlardan iborat. Davlat intizomi – davlat tomonidan o‘rnatalgan va shu hududda yashovchi barcha fuqarolar uchun majburiy ahamiyatga ega. tartib-qoidalarga rioya etishdir. Davlat intizomi muayyan davlat hududida o‘rnataladi, mazkur davlat fuqarolari uchun taalluqli bo‘ladi. Intizomni buzish yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradi, o‘rnatalgan intizom davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Harbiy intizom deganda barcha harbiy xizmatchilarning harbiy nizomlar, komandirlar (boshliqlar) ning buyruqlari bilan belgilangan tartib va qoidalarga qat’iy va aniq rioya etishi tushuniladi. Harbiy intizomga harbiy burch, shaxsiy mas’uliyat va mislsiz sadoqat kabi omillar orqali erishiladi. Yuksak harbiy intizomga erishishning asosiy yo‘nalishlari

quyidagilarda ifodalanadi: – harbiy xizmatchilarda yuksak axloqiy-ruhiy va jangovar

- fazilatlarni tarbiyalash, komandirlarning buyruqlariga ongli tarzda bo‘ysunish;
- har bir harbiy xizmatchining o‘z majburiyatları va harbiy nizomlar talablarini bajarish mas’uliyati;
- harbiy qismda ichki tartibga bo‘ysunish, barcha harbiy xizmatchilar tomonidan kun tartibiga qat’iy rioya qilish;
- jangovar tayyorgarlikni puxta tashkil etish va u barcha shaxsiy tarkibni qamrab olishi.

Harbiy intizom qo‘mondonlarning o‘z qo‘l ostidagilarga kundalik talabchanligi, xizmatchilarning ijro intizomini nazorat qilish, harbiy xizmatchilarning sha’nini hurmat qilish va bu haqda doimo g‘amxo‘rlik, ishontirish, majburlash, jamoatchilik ta’sirini oqilona uyg‘unlashtirish va o‘rinli qo‘llash kabi omillarga tayangan holda amalga oshiriladi. Mehnat intizomi deganda, mehnat jamoalarining, har bir xodimning

mehnatga munosabati, xatti-harakatlarining belgilangan tartibi tushuniladi. Mehnat intizomi korxona (muassasa, tashkilot) rahbariyati tomonidan o'rnatalidi va unga barcha xodimlarning rioya etishi majburiydir. O'rnatalgan intizomning buzilishi xodimlarni tanbeh, hayfsan hamda mehnat shartnomasini bekor qilish kabi intizomiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Demak, intizom qonuniylik, huquqiy tartibot va jamoat tartibining uzviy, tarkibiy bo'g'ini hisoblanadi. Jamiat a'zolarining alohida guruhlari faoliyat ko'rsatayotgan tashkilot, korxona, harbiy qismlar va boshqalarda intizomning o'rnatalishi, butun jamiyatda qonuniylik, huquqiy tartibot va jamoat tartibining o'rnatalishiga ko'maklashadi. Shunday qilib, muayyan davlat va jamiyat taraqqiyoti inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ta'minlanishi, qonuniylik talablarining qat'iy ravishda bajarilishi, jamiyatda huquqiy tartibot va jamoat tartibining qaror topishi bilan chambarchas bog'liqidir.

**Huquqiy tartibot** – bu huquq sub'ektlarining huquq normalarida belgilangan qoidalarga to'la va aniq rioya qilishlari natijasida o'rnataladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

Huquq, qonuniylik, huquq-tartibot – davlat va jamiyat hayotining eng muhim tarkibiy qismlaridir. Biroq huquq-tartibot – huquq yaratiladigan va huquqiy tartibga solishning butun mexanizmi ishga solinadigan pirovard maqsad emas. Mazkur maqsad – huquq yordamida u yoki bu ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish, mustahkamlash yoxud siqib chiqarish, ya'ni yo hukmron sinfga yoki butun xalqqa maqbul tartibni o'rnatishdan iborat. Huquqiy tartibga solishning asosiy maqsadi barqaror ijtimoiy munosabatlar va tartibni ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim.

#### **Huquqiy tartibotning xususiyatlariga quyidagilar kiradi:**

- u huquq normalarida ko'zda tutilgan bo'ladi;
- muayyan huquq normalarini hayotga tadbiq etish natijasida yuzaga keladi;
- davlat tomonidan ta'minlanadi;
- kishilarning hayotini yengillashtirib, ularning yanada erkin bo'lishlari hamda ijtimoiy munosabatlarni tashkiliy jihatdan yuzaga kelishi va amalda bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi;
- qonuniylikning natijasi sifatida yuzaga chiqadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Huquq ustuvorligi nima? Huquq ustuvorligi tushunchasiga qanday yondashuvlar bor?
2. Qonuniylik prinsiplari hamda uning mazmun mohiyati?.
3. Qonuniylik kafolatlari aynan qanday kafolatlarda namoyon bo'ladi?
4. Qonuniylikni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasining ahamiyatini yoriting.
5. Huquqiy tartibot nima? Huquqiy tartibotning xususiyatlarini keltiring.

## **7. Davlat va huquqning rivojlanish istiqbollari**

### **Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatni tushunchasi, belgilari, tarkibiy yelementlari;
2. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslari;
3. Huquqiy davlat nazariyasi;
4. Huquqiy davlatning asosiy belgilari va prinsiplari;
5. Huquq ustunligi konsepsiysi.

#### **• Fuqarolik jamiyatni qanday jamiyat va u nimalarga asoslanadi?**

**Fuqarolik jamiyati** – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhitini shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyatining quyidagi asosiy belgilari va xususiyatlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Jamiyat va shaxs ehtiyojlari tizimida faol ijobiy faoliyat va mehnatning roli alohida mazmunga ega bo'lishi. Mehnatga asoslangan ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar tizimining qaror topishi.
2. Jamiyat mazmuni, uning rivojlanish qonuniyatları möhiyatining xususiy mulkchilik munosabatlari orqali belgilanishi.
3. Xususiy mulk barcha mulk shakllari qatori ravnaq topishi va uni muhofazalashda qonunning, davlat hokimiyatining alohida o'rinn tutishi.
4. Fuqarolarning yuridik jihatdan bir xil maqomga egaligi va qonun oldida tengligi. Jamiyatda adolatli sud tizimining qaror topishi va uning fuqarolarni himoyalovchi posbon idoraga aylanishi.
5. Shaxsning xususiy hayoti va iqtisodiy faoliyatiga davlat aralashuvining qonun doirasida cheklanishi. Huquqiy davlatchilikning mavjud bo'lishi.
6. Shaxsning davlat hokimiyatiga nisbatan mulkiy va iqtisodiy mustaqilligi.
7. Davlat, davlat idoralari va fuqarolar huquqning teng sub'ekti sifatida munosabatga kirisha olishi, ularning sudda teng taraflar sifatida maydonga chiqsa olishi. Fuqarolar huquqlarini kafolatlash va ustuvor ta'minlash mexanizmlarining yaratilganligi.
8. Fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlari, jumladan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining mavjudligi.
9. Jamiyatning yuksak ma'naviy-madaniy va axloqiy rivojlanganligi; insonlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat, iymon-insof doirasida, shaxs qadrini e'zozlash asosiga qurilganligi va boshqalar.

Fuqarolik jamiyatni institutlarini quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin:

**1. Iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi tuzilmalar:** xususiy mulk asosida vujudga keladigan va faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlari; ijara asosida ishlovchi jamoalar; hissadorlik jamiyatlar; moliyaviy jamg‘arma hamda uyushmalar; ishlab chiqarish korporasiya, konsernlari va birlashmalari; tadbirkorlar uyushmalar (palatasi) va boshqalar.

**2. Ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi tuzilmalar:** oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar; ta’lim-tarbiya muassasalari (maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalari); jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar; fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari; mustaqil OAV; diniy tashkilotlar; milliy-madaniy markazlar; ixtiyoriy ko‘ngilli jamiyatlar; jamoatchilik fikrini aniqlash va o‘rganish institutlari; turli ijtimoiy ixtiloflarni adolatli hal etuvchi tuzilmalar va boshqalar.

**3. Siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar:** siyosiy partiylar; ijtimoiy-siyosiy harakatlar; siyosiy muxolifatning mavjudligi; inson huquqlarini himoyalovchi institutlar va boshqalar.

**O‘z navbatida fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat hayotidagi o‘rnvi va ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:**

- aholini turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarini ifoda etadi;
- fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlarning ko‘lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda muhim omil sanaladi;
- ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning asosiy vositasi hisoblanadi;
- milliy o‘zlikni anglashda, jamiyat a’zolarining siyosiy-huquqiy madaniyati va milliy dunyoqarashini yuksaltirishda, milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasini joriy etishda ularning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;
- butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tadbiq etishda ular davlatning teng huquqli ijtimoiy hamkorli hisoblanadi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg‘unligini qaror toptiradi va mustahkamlaydi.

Fuqarolik jamiyati nihoyatda murakkab hamda serqirra ijtimoiy hodisadir. Shu bois uni iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-axloqiy asoslar bo‘yicha ta’riflash mumkin.

**Iqtisodiy asos.** Fuqarolik jamiyati xususiy mulkchilikka keng yo‘l beruvchi va unga asoslanuvchi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga, erkin iqtisodiy faoliyat ta’milangan shart-sharoitga tayanadi. Aynan xususiy mulkchilik muhiti va munosabatlari qaror topgan jamiyatda shaxsning mulkiy mustaqilligi, iqtisodiy faoliyat yuritishdagi erkinligi ta’milanadi. Xuddi shu asnoda shaxs davlat hokimiyatiga nisbatan avtonom, mustaqil mavqeni egallaydi. Davlat xususiy hayot sohasiga, shaxs va tashkilotlarning qonuniy iqtisodiy faoliyatiga aralashmasligi lozim.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yaratishga katta hissa qo‘sghan nemis faylasufi Gegel, ushbu jamiyatni burjuacha ishlab chiqarish munosabatlari majmui sifatida tushungan. U bunda ikki asosiy prinsipni ajratib ko‘rsatgan:

## **birinchidan, shaxslar o‘z xususiy manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar;**

ikkinchidan, insonlar shunday ijtimoiy munosabatlar tizimini vujudga keltiradilarki, bunda har kim boshqa shaxsga bog‘liq bo‘ladi.

Xususiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy tuzilma bo‘lmish fuqarolik jamiyatni bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimidan iboratdir. Bunday munosabatlarga ishlab chiqarishdagi raqobat va unda hokimiyatning ma’muriy aralashuvini cheklash orqali erishiladi. Fuqarolik jamiyatni insonning ijodiy faolligini namoyon etishga yo‘l ochuvchi munosabatlar shakllangan taqdirda zohir bo‘ladi. Tarixdan ma’lumki, xususiy mulk nafaqat jamiyatni turli qatlamlarga ajratgan, balki ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan tashabbusni rag‘batlantirgan, hokimiyatga nisbatan mustaqil (avtonom) tuzilmalarni vujudga keltirgan.

O‘zbekistonda ham xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiy munosabatlar tizimi qaror topmoqda, tadbirkorlikka, kichik va o‘rta biznesga keng yo‘l ochilib, tegishli tashkiliy va huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi fuqarolik jamiyatining qaror topishini xususiy mulkning qat’iy mavqega ega bo‘lishi bilan bog‘laydi. Shu asosda hozirgi paytda jamiyatda keng ko‘lamda xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

**Siyosiy asos.** Siyosiy nuqtai nazardan baholaganda, fuqarolik jamiyatidagi siyosiy tizim va siyosiy boshqaruvning mazmun-mohiyatini huquqiy davlatchilik ifoda etadi. Boshqacha aytganda, huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy mohiyatini, siyosiy shaklini tashkil etadi. Bu ikki hodisaning o‘zaro munosabati shakl bilan mazmunning o‘zaro aloqadorligini aks ettiradi. Bunday kelib chiqadigan xulosa shuki, fuqarolik jamiyati to‘la ma’noda mavjud bo‘lishining shak-shubhasiz sharti huquqiy davlatning mavjudligidir. Va, aksincha, huquqiy davlat faqat fuqarolik jamiyatidek ijtimoiy makonda qaror topishi va faoliyat yuritishi mumkin.

Fuqarolik jamiyati bilan huquqiy davlatning o‘zaro nisbatini iqtisod bilan siyosatning nisbati tarzida izohlash o‘rinli bo‘ladi. Buni O‘zbekiston misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Zero, iqtisodiy islohotlar tegishli demokratik siyosiy tuzilmalar, institutlar mavjud bo‘lishini taqozo etadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida mulk shaklini o‘zgartirish, xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat tuzilmalari vujudga keltirildi. Hukumat iqtisodiyotni boshqarishning bozor usullariga o‘tmoqda. Vazirlar Mahkamasi apparati bevosita sohaviy ma’muriy boshqaruvdan qaytib, boshqaruvning funksional tizimiga o‘tdi. Buning ma’nosи shuki, hukumat xo‘jalik yurituvchilar faoliyatiga bevosita aralashmaydi, iqtisodiyotni davlat yo‘li bilan boshqarmaydi. U iqtisodiyotni bozor yo‘liga o‘tkazishning umumiyligi strategiyasini ishlab chiqadi, iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiy komplekslar faoliyatini uyg‘unlashtirish va muvofiqlashtirish, shuningdek, xo‘jalik yuritish shakllarini takomillashtirish, tarkibiy va institusional qayta o‘zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, tadbirkorlik va raqobatchilikni rivojlantirish bilan shug‘ullanadi.

Fuqarolik jamiyatining siyosiy tavsiflanishi faqat davlat tuzilmalarini rivojlantirishdan iborat emas. Demokratiya ravnaq topishi uchun fuqarolik jamiyatida hurfikrlilik, siyosiy plyuralizm ham qaror topishi zarur. Buning uchun jamiyatda tom ma'nodagi ko'ppartiyaviylik, jamoat va nodavlat tashkilotlarning keng ko'lamli tizimi, tadbirkorlarning ittifoqlari, uyushmalari, mehnatkashlar mustaqil birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi vujudga keltirilishi lozim, toki bu tuzilmalar davlat idoralari bilan teng huquqli munosabatlarga kirisha olsin.

Fuqarolar va ularning uyushmalari davlat idoralari bilan muloqotda huquqning teng sub'ektlari sifatida munosabatga kirishadilar. Basharti, bu teng huquqiy munosabatlarda tomonlardan birining huquqiga, manfaatiga putur yetkazilsa, u sudga murojaat etishi va qonuniy asoslarda sud tartibida o'z huquqini tiklashga erishishi mumkin. Huquqiy davlat nafaqat fuqarolik jamiyatini boshqaruvchi tizim, balki o'zini o'zi boshqaruvchi fuqarolik jamiyatiga bog'liq, uning manfaat va ehtiyojlariga bo'ysunuvchi tizim sifatida maydonga chiqadi.

**Ma'naviy-axloqiy asos.** Fuqarolik jamiyati chuqur ma'naviy, yuksak madaniy insoniy munosabatlar zamiriga tayanadi. Bu jamiyatning ma'naviy hayotida bir narsa ustuvorlik qiladi, ya'ni inson benihoya darajada ulug'lanadi, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadi, ular mo'tabar va muqaddas sanaladi. Bunda insonning qadr-qimmati, mehr-oqibat, axloqiy poklik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi oliy qadriyatlar odamlar o'rtasidaga munosabatlarning belgilovchi mezoni sifatida maydonga chiqadi.

Fuqarolik jamiyatida erkinlik, qonun oldida barchaning tengligi, ijtimoiy adolatning ta'minlanishi hamma fuqarolarning ijodiy saloxiyati va iste'dodining bevosita ro'yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratiladi.

- **Huquqiy davlat qanday belgilarga ega bo'ladi:**

**"Huquqiy davlat"** iborasi ilk bor XIX asrning dastlabki o'ttiz yilda nemis olimlari K.Velker va I.X.Frayxer fon Aretin asarlarida uchraydi. Biroq ushbu tushuncha (**Rechtstaat**)ning birinchi yuridik tahriri va uning ilmiy amaliyotga kiritilishi ularning vatandoshi Robert fon Mol tomonidan 1832 yili amalga oshirilgan. U huquqiy davlat haqidagi ta'limotga uzlusiz rivojlanib boruvchi kategoriya sifatida qaragan. Aytish mumkinki, huquqiy davlat haqidagi g'oya shu davrlardan boshlanib, yuz yildan ortiqroq vaqt mobaynida nemis olimlari va siyosatdonlarining aql-zakovatlarini band etib keldi.Iering, Yellinek, Dyugi, Ornu, Paund, Spenser va boshqalar timsolida G'arbiy Yevropa ilg'or siyosiy-huquqiy tafakkuri o'z davri va o'tmish tajribasi nuqtai nazaridan huquqiy davlat nazariyasini shakllantirganlar.

**R.Iering** (1818-1892 yillar) huquqiy davlat faqatgina davlat hokimiyatining o'zi belgilagan tartibda o'zi bo'ysunadigan joyda, uzil-kesil huquqiy barqarorlikka ega bo'lган yerda mavjud bo'ladi, deb hisoblaydi. Faqat huquq hukmronligidagina milliy farovonlik, savdo va hunarmandchilik gullabyashnaydi, xalqqa xos bo'lgan "aqliy va axloqiy kuchlar" avj oladi. Yellinek (1851-1911 yillar) konsepiyasida davlat o'z xalqi umumiyl manfaatlarining vakili sifatida, hukmronlik qiluvchi, jamiyatni yuksak darajada rivojlantirish yo'lida birgalikdagi individual, milliy va umuminsoniy manfaatlarni qondiruvchi yuridik shaxs hisoblangan xalq ittifoqi sifatida ta'riflanadi.

**Huquqiy davlat** - bu davlat huquqiy asosda tashkil topadigan va jamiyat hayotining barcha sohalarida huquq ustuvorlik qiladigan davlat.

**Huquqiy davlatning belgilari va tamoyillari:**

- qonunning ustuvorligi tamoyili;
- davlat va davlat organlarining huquq bilan aloqadorligi;
- demokratik huquq va erkinliklar bilan bog'liq barcha institatlarning mavjudligi;
  - inson (fuqarolar) huquq va erkinliklarining davlat tomonidan e'lon qilinganligi, himoya qilinishi va kafolatlanishi;
  - rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi;
  - davlat hokimiyati vakolatlarining taqsimlanganligi;
  - davlat va shaxsning o'zaro ma'sulligi.

**Nazorat savollari:**

1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi haqida gapiring.
2. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslarini ayting.
3. Huquqiy davlatning asosiy belgilari va prinsiplarini sanang.
4. Huquq ustunligi konsepsiysi haqida gapiring.

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

### **1-amaliy mashg‘ulot. Davlat va huquqning kelib chiqishini masofaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish**

1. Jamiyat qanday hodisa va uning rivojlanishiga qaysi omillar ta’sir etadi?
2. Yevropada davlatlarning vujudga kelishida asosiy omil bo‘lib nimalar xizmat qilgan?
3. Tegishli adabiyotlarda davlatlarning kelib chiqishi turli xil nazariyalar doirasida tadqiq etilishining sababini nimalarda ko‘rish mumkin?
4. Davlatning kelib chiqishida G‘arb va Sharq modellarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?
5. Masofaviy o‘qitish deganda nimani tushunasiz?

### **2-amaliy mashg‘ulot. Davlat funksiyalari to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirishdagi yondashuvlar**

1. Davlat funksiyalari deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat funksiyalarining xususiyatlarini sanang?
3. Davlat funksiyasining davlat maqsadi va vazifalari bilan o‘zaro nisbatini ayting.
4. Davlat maqsadining xususiyatlarini ayting?
5. Davlatning vazifalari sanang?

### **3-amaliy mashg‘ulot. Ijtimoiy munosabatlar va huquqiy masalalar mohiyatini ochib berishda kazuslardan foydalanish**

#### **1-topshiriq**

1. Ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy normalarning o‘zaro aloqadorligi nimalarda ko‘rinadi?
2. Ijtimoiy normalarning turlarini sanang?
3. Huquq deganda nima tushuniladi?
4. Huquqning asosiy belgilari nimalardan iborat?

## **2-topshiriq**

1.Huquq tamoyillarini tushuntiring?

2.Huquq tamoyillari ta'sir etish doirasiga ko'ra qanday tamoyillarga bo'linadi?

## **4-amaliy mashg'ulot: Zamonaviy norma va huquq ijodkorligi - normativ-huquqiy hujjatlar tahlili**

### **1-topshiriq**

1. Huquq normasi qanday qoida?
2. Huquq normasining belgilari qaysilar?
3. Huquq normasining xarakterli jihatlaridan birini ayting?

### **2-topshiriq**

1. Huquq normalari qanday xususiyatlarga ega?
2. Huquq normasining tuzilishi deganda...? Huquq normasining tuzilishi nechta?

## **5-amaliy mashg'ulot. Huquqiy xulq-atvor, huquqbazarlik va yuridik javobgarlik tushunchalarini shakllantirish**

1. Huquqiy xulq-atvor deganda nima tushuniladi va u qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
2. Huquqiy xulq-atvorning nechta (ko'rinishi) mavjud?
3. Huquqbazarlik deb nimaga aytildi?
4. Huquqbazarlikning asosiy belgilari qaysilar?
5. Huquqbazarlik ob'ektiv tomonining qanday elementlari mavjud?

## **6-amaliy mashg'ulot. Mamlakatda qonuniylikni ta'minlashda huquq ustuvorligi va huquqiy tartibot masalalari**

1. Qonuniylik nima va uning asosini nimalar tashkil etadi?
2. Qonuniylikning asosiy tamoyillari qaysilar?
3. Qonuniylikni amalga oshirish kafolatining turlari qaysilar?
4. Huquqiy tartibotning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Huquqiy tartibotning xususiyatlariga qaysilar kiradi?

### **7-amaliy mashg‘ulot: Davlat va huquqning rivojlanish istiqbollari**

#### **1-topshiriq**

- 1.Huquqiy davlat – bu ...?
- 2.Huquqiy davlatning belgilari va tamoyillarini sanang?
- 3.Huquqiy davlat qanday belgilarga ega bo‘ladi?

#### **2-topshiriq**

- 1.Siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar qaysilar?
- 2.Iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlaniruvchi tuzilma?
- 3.Ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi tuzilmalar?

## V. KEYSALAR BANKI

Amaliy yo‘naltirilgan, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlovchi uslublar o‘z xususiyatlariga ko‘ra innovation hisoblanadi. Ularga: tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar (TFO‘), ishchan va rolli o‘yinlar, personallarning muloqoti, ijodiy ishlar, psixotexnika, rolli trening, “Case-study” va boshqalar kiradi. “Case-study” – turli vaziyatlarning tavsifidan, ya’ni keyslardan foydalangan holda o‘quvchilarda aniq ko‘nikmalarni shakllantirish texnikasidir.

*Keys* — biror tashkilotdagi qandaydir aniq real vaziyatning yozma tavsifidir. Undan foydalanish mobaynida o‘quvchilardan vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini ko‘rib chiqish, mumkin bo‘lgan variantlarni taklif etish va ulardan eng maqbulini tanlash so‘raladi.

Ixtiyoriy *keys* o‘qituvchiga, uni ta’lim jarayonining ixtiyoriy bosqichlarida, jumladan, o‘qitish va uning natijalarini nazorat qilish mobaynida foydalanish imkoniyatini beradi.

### 1-masala

Davlat va huquqning vujudga kelishi, jamiyat rivoji ko‘p jihatdan insonlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va ehtiyojlari tizimining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan tabiiy shart-sharoitlarga bog‘liq.

*Jamiyat rivojlanishiga ta’sir etadigan omillarni atroflicha muhokama eting.*

### 2-masala

Jamiyat kishilarning tarixan tashkil topgan hamkorlik faoliyatlarining mahsuli, majmuasi sifatida tushuniladi. Insonlar faoliyati va ular o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma’naviy boyliklar, insonlarning yashashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish v.b.) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Bunday faoliyat sirasiga mulkiy, ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va ularga mos keluvchi munosabatlar kiradi. Aynan ijtimoiy munosabatlar shaxsni ijtimoiy guruhlar, jamiyat bilan bog‘laydi.

*Jamiyatda yuz beradigan qanday ijtimoiy munosabatlar davlatning paydo bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etganligini muhokama qiling.*

### **3-masala**

Yevropada davlatlarning vujudga kelishida asosiy omil bo‘lib xususiy mulkning shakllanishi munosabati bilan jamiyatda mulkiy tengsizlikning va shu asosda tabaqlanishning yuzaga kelishiga xizmat qilgan. Osiyoda esa sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi natijasida yirik irrigasion tarmoqlarni tashkil etish yuzasidan ommaviy ishlarni yo‘lga qo‘yishning zarurati asos bo‘lgan. Shu bilan birga, turli xalqlarda davlatning yuzaga kelishida yuqoridagi omillar bilan bir qatorda boshqa omillar ham muhim o‘rin tutgan.

*Davlatning yuzaga kelishiga ta’sir qilgan omillarni muhokama qiling.*

### **4-masala**

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rgangan holda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy demokratik davlat qurish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi funksiyalarining o‘zgarishi va yangilanishi borasida qanday o‘zgarishlar qilish mumkinligini muhokama qiling.

### **5-masala**

Jamiyat va davlatning aloqalarini aniqlash, davlatning jamiyat siyosiy tizimidagi o‘rni vamavqeini ko‘rsatib beradigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiyomillarni belgilab olish mumkin. Siyosiy tizim insonlar faoliyatining alohida sohasi – siyosat, siyosiy munosabatlar va aloqalar sohasi bilan bog‘liq. U muayyan siyosiy irodaning mahsulisifatida vujudga keladi va bu irodaning amalga oshirilishigasafarbar etilgan vositalarning institusiyaviy (tashkiliytuzilmaviy) rasmiylashgan shakli tarzida namoyon bo‘ladi.

*Turli jamiyatlardagi siyosiy hayot shakllarining rivojiga ko‘ra demokratik siyosiy tizimlar, avtoritar siyosiy tizimlar va totalitar siyosiy tizimlarning o‘ziga xos tomonlarini misollar yordamida muhokama qiling.*

### **6-masala**

Huquq tarmoqlari - ijtimoiy munosabatlarning katta bir yaxlit sohasini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidan iborat huquq tizimning yirik tarkibiy qismidir. Hozirgi paytda, O‘zbekistonda mavjud eng asosiy huquq tarmoqlari va ularning o‘ziga xos jihatlari, predmeti va tartibga solish usuli xususiyatlari, har bir tarmoqning yaxlit huquq tizimida egallagan o‘ziga xos va mos o‘rniga, ularning o‘zaro farqlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

*Hozirda O‘zbekistonda mavjud huquq tarmoqlarini misollar yordamida muhokama qiling*

### **7-masala**

Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kishilar bir-birlari bilan nafaqat ishlab chiqarish munosabatlariga balki huquqiy munosabatlarga ham kirishadilar. Xususan, mulkchilik sohasidagi bunday munosabatlar mulkka egalik qilish va egalik qilmaslik huquqiga taalluqlidir. Shu ma’noda mulkchilik munosabatlari huquqiy munosabatlarga aylanadi. Mulkdor bilan ishchi orasidagi,

ya’ni birida mulkning mavjudligi va boshqasida mavjud bo‘lmasligi bilan bevosita ifodalangan munosabatlar yuridik munosabatlar hisoblanadi.

*Huquqiy munosabatlarning yuzaga kelish asoslarini misollar yordamida tahlil qiling.*

### **8-masala**

Huquqiy munosabatda ishtirok etayotgan sub’ektlarning diqqat-e’tibori, manfaati, xatti-harakati qaratilgan real ne’mat, aniq narsa, jarayon, harakatlar huquqiy munosabatning ob’ekti deb ataladi. Har qanday huquqiy munosabat uning zamirida yotgan hayotiy hodisalarini, narsa va jarayonlarni tartibga solish vazifasini o’taydi. Shu bois, ob’ektsiz, ya’ni hech narsaga qaratilmagan, hech narsaga ta’sir ko’rsatmaydigan huquqiy munosabatlar bo‘lmaydi.

*Huquqiy munosabatlarning majburiyat va huquqning paydo bo‘lishida huquqiy munosabat ob’ektining o’rnini muhokama qiling.*

### **9-masala**

Huquq ijodkorligi o’z mohiyatiga ko’ra davlat irodasini qonunga, umummajburiy ahamiyatga molik yuridik ko’rsatmalarga nisbatan namoyon qilishni nazarda tutadi. Huquq ijodkorligi rivojlanishining hozirgi bosqichida, eng avvalo, referendum yo‘li bilan bevosita mamlakat aholisi tomonidan huquqiy hujjatlarni qabul qilish yoxud davlat va boshqa boshqaruv organlari tomonidan huquqiy normalarni o’z ichiga oluvchi hujjatlarni nashr etish yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ba’zi mamlakatlarda huquq ijodkorligining shakllaridan biri sud presedenti hisoblanadi.

*Huquq ijodkorligining referendum va sud presedenti shakllarini muhokama qiling va farqli tomonlarini misollar yordamida yoritib bering*

### **10-masala**

Boshqa normativ-huquqiy hujjatlar singari qonunlar ham huquq ijodkorligi mahsuli hisoblanadi. Biroq ularning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi qonunning huquqiy hayotdagi tutgan o’rni va ahamiyatiga bog’liq bo‘lgan o’ziga xos xususiyatlarga ega. Qonun norma ijodkorligining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan qonun ijodkorligi jarayonida yaratiladi.

*Huquq ijodkorligi jarayonida qonun yaratilishining o’ziga xos tomonlarini muhokama qiling.*

### **11-masala**

Yuridik faktlar huquq normalarida nazarda tutiladi, mustahkamlanadi. Masalan, nikohni FHDYo (ZAGS) idoralarida ro‘yxatdan o’tkazish fakti – yuridik faktdir, chunki bu holat Fuqarolik kodeksi va Oila kodeksida mustahkamlangan. Ayni vaqtda, masjidda ham nikoh o‘qish faktlari (urf-odati) mavjud. Biroq, bu fakt qonunda nazarda tutilmagan. Shu bois u yuridik fakt bo‘laolmaydi.

*Yuridik fakt har doim huquq normalarida nazarda tutilishi inobatga olinsa ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an’analar qay holatlarda yuridik fakt sifatida e’tirof etilishini muhokama qiling.*

## **12-masala**

Yuridik faktlar xilma-xildir, ular mohiyatan bir necha turlarga bo‘linadi. Yuridik faktlar ular keltirib chiqaradigan huquqiy oqibatlarga qarab: huquqni yaratuvchi, huquqni o‘zgartiruvchi va huquqni bekor qiluvchi faktlarga bo‘linadi. Lekin ayni bir yuridik hodisa bir vaqtning o‘zida ham huquq yaratuvchi, ham huquqni o‘zgartiruvchi, ham huquqni bekor qiluvchi fakt bo‘lishi mumkin.

*Yuridik faktlarning turlarini muhokama qiling va ham huquq yaratuvchi, ham huquqni o‘zgartiruvchi, ham huquqni bekor qiluvchi faktga misollar keltiring.*

## **13-masala**

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligini bilgan holda, ya’ni u bunga majbur emasligini sezib, sud va huquqni muhofaza etuvchi organlarning savollariga noto‘g‘ri javob berib, aybsiz hisoblanishlarini va javobgarlikdan ozod etilishlarini talab qilishdi.

Aybsizlik prezumpsiyasining asoslarini muhokama qiling va bu borada 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida qanday islohotlar belgilanganligini muhokama qiling.

## **14-masala**

Siyosiy rejim davlat hokimiyatining aholi bilan o‘zaro munosabatlari qanday usullar yordamida amalga oshiriladi, ijtimoiy qatlamlarning siyosiy sohadagi haqiqiy nisbati qanday namoyon bo‘ladi, turli jamoat tashkilotlarining siyosiy maqomi qanday, davlat organlari o‘z hududlarida yashovchi aholini boshqarish bo‘yicha amalda qanday rol o‘ynaydilar, degan savollarga javob beradi.

*Siyosiy rejimning turlari va o‘ziga xos xususiyatlarini atroficha izohlab bering.*

## **15-masala**

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng demokratik huquqiy davlat asoslarini barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydi. Bunda hokimiyatlar bo‘linishi alohida ahamiyat kasb etib, davlat funksiyalarini samarali amalga oshirilishini ta’minlab beradi, ya’ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud bo‘lishi shart.

*O‘zbekiston hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi, sud hokimiyatining mustaqilligini va qonun uchtuvorligini ta’minalash bo‘yicha amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni misollar yordamida yoritib bering.*

## **16-masala**

Ma'lumki, tegishli qonunchilikda normativ-huquqiy hujjatlarning turlari va ularni qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan sub'ektlar qat'iy belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlardagi huquq normalari tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan muayyan ishga nisbatan qaror chiqarish (qo'llash) jarayonida hayotga tatbiq etiladi. Mazkur jarayonda huquq normasining mazmunida ko'rsatilgan qoidalar real hayotiy vaziyatlarga yoki ijtimoiy munosabatlarga to'la mos kelmasligi ham mumkin.

*Huquqni qo'lllovchi sub'ektlarning huquqni qo'llash hujjatida aks etgan (kazual) sharhi va huquq ijodkorligi sub'ekti yaratgan huquq normasi mazmuni o'rtaida tafovut yuzaga kelsa qay biri ustuvor huquqiy ahamiyatga egaligini atroflicha muhokama eting. Huquqiy asoslarini ko'rsatib bering.*

## **17-masala**

Roman-german huquq tizimida, aslida huquq manbalari tizimining birligi qonunda ifodalangan oliy davlat irodasining birligini, davlat tuzilmasining birligini anglatadi. Aksincha, ushbu tizimning shaklan buzilishi esa davlat hokimiyatining zaifligini, qonuniylikning davlat siyosatining bir qismi sifatidagi buzilishini aks ettiradi.

*Huquq manbasi sifatida qomunning ichki va tashqi omillar ta'sirida qabul qilinishining oqibatlarini muhokama qiling.*

## **18-masala**

Hozirgi zamon ta'limoti urf-odatni nohuquqiy va huquqiy turlarga ajratadi. Olimlarning aksariyati, nohuquqiy urf-odat shunday urf-odatki, yo huquq hali tarixan tarkib topmagan joyda (urug' qabilasi urf-odati), yoxud davlatga uyushgan yoki unga o'tayotgan jamiyatda amal qilarkan, nohuquqiy sohani (masalan, odob-axloq sohasini) tartibga soladi. Davlat sanksiyasini olgan va shuning oqibatida huquq manbai sifatida e'tirof etilgan urf-odat huquqiy urf-odat deb tushuniladi.

*Huquq manbasi sifatida urf-odatning o'ziga xos tomonlarini boshqa huquq manbalariga taqqoslagan holda muhokama qiling.*

## **19-masala**

O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy tizimi jamiyatning jo'shqin rivojlanayotgan ijtimoiy tizimlaridan biridir. Huquqiy tizimning taraqqiy etganlik darjasи, mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy vaziyat bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholining siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatida namoyon bo'ladi. Nafaqat huquqshunoslar, balki barcha fuqarolarning huquqiy tizim to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari fuqarolik jamiyatni barpo etish maqsadlariga erishish uchun nihoyatda muhimdir.

*O'zbekistonda shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatni sharoitida milliy huquqiy tizimning o'ziga xos tomonlarini muhokama qiling.*

## **20-masala**

Huquqni tatbiq etish zamon bilan hamnafas kechadigan murakkab jarayondir. Unda nafaqat sub'ektiv huquq va majburiyat egalari, balki xilma-xil organlar – huquq ijodkorligi, huquq ijrochiligi, huquqni qo'llash organlari timsolida davlat ham ishtirok etishini ko'rsatib o'tishadi. Shundan kelib chiqqan holda huquqni hayotga joriy qilish jarayoni sifatida tushuniladigan huquqni tatbiq etish, birinchidan, huquqni amalga oshirishning yuridik mexanizmlaridan hamda, ikkinchidan, amaldagi hayotiy munosabatlar yuridik shaklga kirgan bevosita huquqni amalga oshirish shakllaridan tashkil topadi.

*Huquqni amalga oshirishda davlat va uning timsolida davlat organining ishtirokini muhokama qiling va misollarda ko'rsatib o'ting.*

## VI. GLOSSARY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Jamiyat</b>	bu tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar mahsuli.	it is the product of social relations that emerged at a certain stage of historical development.
<b>“Yevropacha” yo‘l</b>	Yevropada davlatlarning vujudga kelishida asosiy omil bo‘lgan xususiy mulkning shakllanishi jamiyatda mulkiy tengsizlikning va shu asosda turli xil tabaqalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi.	The formation of private property, which is a key factor in the emergence of states in Europe, leads to the emergence of property inequality in society and, on this basis, different classes.
<b>Teologik nazariya</b>	diniy ta’limotlar davlat va huquqning vujudga kelishi to‘g‘risidagi ilk ta’limotlardir. Davlatchilik va huquq shakllanishi bilan uni diniy, ilohiy tarzda tushunish yuzaga kelgan.	religious doctrines are the first doctrines about the origin of the state and law. With the formation of statehood and law, a religious, divine understanding of it emerged.
<b>Patriarxal nazariya</b>	davlat oilaning rivojlanishi asosida vujudga kelganligini ifodalaovchi nazariya.	a theory that states that the state is based on the development of the family.
<b>Ijtimoiy shartnoma nazariyasi</b>	davlat hokimiyati kishilarning o‘zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganliklarining ifodasidir. Bunda davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlar tizimi vujudga kelib, o‘z navbatida, ularda shartnoma majburiyatlarini	state power is an expression of the voluntary conditionality of people to unite. This creates a system of mutual rights and obligations between the state and society, which, in turn, gives rise to liability for non-fulfillment of contractual

	bajarmaganliklari uchun javobgarlik tug‘iladi.	obligations.
<b>Materialistik nazariya</b>	Davlat, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi, bir-biriga qarama qarshi sinflarning yuzaga kelishi natijasida vujudga kelganligini ifodalovchi nazariya	The theory that the state is formed primarily as a result of the development of economic relations, the emergence of opposing classes
<b>Zo‘ravonlik nazariyasi</b>	davlat va huquqni kelib chiqishining bosh sababi – bosqinchilik, zo‘ravonlik va bir qabilani ikkinchi qabila tomonidan zulmga duchor etish degan g‘oya yotadi. Bunda davlat bosib olingan hududlar (xalqlar)ni boshqarish uchun zo‘rlov apparati vazifasini o‘taydi.	the main reason for the origin of the state and law lies in the idea of aggression, violence, and the oppression of one tribe by another tribe. At the same time, the state acts as a coercive apparatus to control the occupied territories (peoples).
<b>Psixologik (ruhiy) nazariya</b>	kishilarning ruhiyati jamiyatning, shu jumladan axloq, huquq, davlatning rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omildir.	the psyche of the people is a key factor in determining the development of society, including morality, law, the state.
<b>Davlat funksiyalari</b>	davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyatining asosiy (bosh) yo‘nalishlari	main (main) directions of the state activity directed on realization of the purposes and tasks of the state
	bu muayyan davlatning taraqqiyotidagi keyingi bosqichda erishmoqchi bo‘lgan holati (masalan:	it is a state that a particular state seeks to achieve at a later stage in its development (e.g., the

<b>Maqsad</b>	fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy demokratik davlat barpo etish)	formation of a civil society, the establishment of a democratic state governed by the rule of law)
<b>Vazifa</b>	bu ushbu maqsadga erishish uchun hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar	these are issues that need to be addressed to achieve this goal
<b>Funksiya</b>	bu vazifalar yechimiga yo‘naltirilgan faoliyat yo‘nalishidir	it is a line of activity focused on solving tasks
<b>Ijtimoiy munosabatlар</b>	ijtimoiy sub’ektlar o‘rtasidagi hayotiy ne’matlarni taqsimlash, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondirish yuzasidan kelib chiqadigan aloqalardir. Ijtimoiy munosabatlarning quyidagi turlari mavjud: milliy, etnik, guruhiy, shaxsiy va boshqalar.	the distribution of vital goods between social subjects, the relations arising from the satisfaction of material and spiritual needs. There are the following types of social relationships: national, ethnic, group, personal, and so on.
	umumiyl xususiyatga ega bo‘lib, bunda normalar (qoidalari) jamiyatning barcha a’zolariga yohud uning muayyan qismiga tegishli bo‘ladi. Shu o‘rinda normativ tartibga solishning yuzaga kelishi – ijtimoiy tartibga solishning eng muhim burilish nuqtalaridan biri bo‘lib, uning taraqqiyotida yirik sifat o‘zgarishlarini,	has a general character, in which the norms (rules) apply to all members of society or to a particular part of it. It should be noted that the emergence of normative regulation is one of the most important turning points of social regulation, which has led to major qualitative changes, radical changes

<b>Normativ tartibga solish</b>	tub burilishlarini boshlab bergenligini alohida ta'kidlash joiz.	in its development.
<b>Individual tartibga solish</b>	esa aniq sub'ektga taalluqli hisoblanadi, ya'ni tegishli tarzda harakat qilish uchun berilgan individual buyruqdan iborat bo'ladi. Tartibga solishning har ikki turi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi, bir-birining mavjudligini taqozo etadi	while it belongs to a specific subject, i.e. it consists of an individual order given to act accordingly. Both types of regulation are closely related to each other, they interact with each other and require each other's existence
<b>Ijtimoiy normalar tizimi</b>	bu jamiyatda kishilar xulq-atvorini, muayyan guruh va jamoalar doirasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar hamda ularning tabiat bilan o'zaro aloqalarini qat'iy belgilovchi ijtimoiy-texnik normalar majmuidir	it is a set of social norms that regulate human behavior in society, relations within a particular group and community, and socio-technical norms that strictly define their interaction with nature
<b>Ijtimoiy normalar</b>	bu kishilar hamda ularning jamoalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiyl xulq-atvor qoidalaridir	these are general rules of behavior that govern the relationship between individuals and their communities
	(yuridik ma'noda) – bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki	(in the legal sense) - a set of rules of conduct, established or approved

<b>Huquq tushunchasi</b>	ma'qullanadigan, o'zida erkinlik, tenglik vaadolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, bajarilishi umummajburiy bo'lgan yurish-turish qoidalari yig'indisi	by the state, which embodies the principles of freedom, equality and justice, aimed at regulating social relations, the implementation of which is universal
<b>Huquqning mohiyati</b>	uning mazmuni va maqsadi tushuniladi. Huquqning mazmuni va mohiyati uning asosiy va barqaror xususiyatlarini namoyon etadi. Shu bilan birga, huquqning mohiyatini belgilashda quyidagi ikkita jihat, ya'ni, har qanday huquq eng avvalo, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita vazifasini bajarishi hamda mazkur vosita kimning manfaatlariga xizmat qilishi alohida ahamiyat kasb etadi	its content and purpose are understood. The content and essence of law reflect its basic and sustainable features. At the same time, in determining the essence of the law, the following two aspects are of particular importance, namely, that any right, first of all, serves as a means of regulating social relations and whose interests this instrument serves
<b>Huquq tamoyillari</b>	bu huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatidagi mohiyatini ifodalovchi boshlang'ich normativ asoslar, eng asosiy qarashlar, g'oyalar va qoidalardir	These are the basic normative bases, the most basic views, ideas and rules, expressing the essence of the right as a means of regulating social relations
<b>Umumhuquqiy</b>	adolatlilik, fuqarolarning qonun oldida huquqiy jihatdan tengligi,	justice, legal equality of citizens before the law, humanity, legitimacy,

<b>tamoyillar</b>	insonparvarlik, qonuniylik, demokratizm, huquq va majburiyatlar birligi va boshqalar	democracy, unity of rights and obligations, etc.
<b>Sohalararo tamoyillar</b>	javobgarlikning muqarrarligi, oshkoraliq, fuqarolik-prosessual va jinoiy-prosessual huquqdagi tortishuvlilik tamoyili va boshqalar	the principle of inevitability of liability, transparency, adversarial law in civil procedure and criminal procedure, etc .
<b>Sohaviy tamoyillar</b>	masalan, mulkiy munosabatlarda tomonlarning tengligi (fuqarolik huquqi); jinoyat jarayoni huquqida aybsizlik prezumsiyasi va boshqalar	for example, equality of arms in property relations (civil law); presumption of innocence in criminal law, etc
<b>Huquqning funksiyalari</b>	bu jamiyatda ijtimoiy munosabatlarga va kishilarning yurish-turishlariga huquqiy ta'sir qilishning asosiy yo'nalishlaridir	these are the main areas of legal influence on social relations and people's behavior in society
<b>Ijtimoiy munosabatlar</b>	ijtimoiy sub'ektlar o'rtaсидаги hayotiy ne'matlarni taqsimlash, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish yuzasidan kelib chiqadigan aloqalardir. Ijtimoiy munosabatlarning quyidagi turlari mavjud: milliy, etnik, guruhiy, shaxsiy va boshqalar.	the distribution of vital goods between social subjects, the relations arising from the satisfaction of material and spiritual needs. There are the following types of social relationships: national, ethnic, group, personal, and so on.
	umumiyl xususiyatga ega bo'lib, bunda normalar (qoidalar) jamiyatning	has a general character, in which the norms (rules) apply to all

<b>Normativ tartibga solish</b>	barcha a'zolariga yohud uning muayyan qismiga tegishli bo'ladi. Shu o'rinda normativ tartibga solishning yuzaga kelishi – ijtimoiy tartibga solishning eng muhim burilish nuqtalaridan biri bo'lib, uning taraqqiyotida yirik sifat o'zgarishlarini, tub burilishlarini boshlab bergenligini alohida ta'kidlash joiz.	members of society or to a particular part of it. It should be noted that the emergence of normative regulation is one of the most important turning points of social regulation, which has led to major qualitative changes, radical changes in its development.
<b>Individual tartibga solish</b>	esa aniq sub'ektga taalluqli hisoblanadi, ya'ni tegishli tarzda harakat qilish uchun berilgan individual buyruqdan iborat bo'ladi. Tartibga solishning har ikki turi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi, bir-birining mavjudligini taqozo etadi	while it belongs to a specific subject, i.e. it consists of an individual order given to act accordingly. Both types of regulation are closely related to each other, they interact with each other and require each other's existence
<b>Ijtimoiy normalar tizimi</b>	bu jamiyatda kishilar xulq-atvorini, muayyan guruh va jamoalar doirasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar hamda ularning tabiat bilan o'zaro aloqalarini qat'iy belgilovchi ijtimoiy-texnik normalar majmuidir	it is a set of social norms that regulate human behavior in society, relations within a particular group and community, and socio-technical norms that strictly define their interaction with nature

<b>Ijtimoiy normalar</b>	bu kishilar hamda ularning jamoalari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiylar xulqatvor qoidalari	these are general rules of behavior that govern the relationship between individuals and their communities
<b>Huquq tushunchasi</b>	(yuridik ma’noda) – bu davlat tomonidan o‘rnataladigan yoki ma’qullanadigan, o‘zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, bajarilishi umummajburiy bo‘lgan yurish-turish qoidalari yig‘indisi	(in the legal sense) - a set of rules of conduct, established or approved by the state, which embodies the principles of freedom, equality and justice, aimed at regulating social relations, the implementation of which is universal
<b>Huquqning mohiyati</b>	uning mazmuni va maqsadi tushuniladi. Huquqning mazmuni va mohiyati uning asosiy va barqaror xususiyatlarini namoyon etadi. Shu bilan birga, huquqning mohiyatini belgilashda quyidagi ikkita jihat, ya’ni, har qanday huquq eng avvalo, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita vazifasini bajarishi hamda mazkur vosita kimning manfaatlariga xizmat qilishi alohida ahamiyat kasb etadi	its content and purpose are understood. The content and essence of law reflect its basic and sustainable features. At the same time, in determining the essence of the law, the following two aspects are of particular importance, namely, that any right, first of all, serves as a means of regulating social relations and whose interests this instrument serves
	bu huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga	These are the basic normative bases, the

<b>Huquq tamoyillari</b>	soluvchi vosita sifatidagi mohiyatini ifodalovchi boshlang‘ich normativ asoslar, eng asosiy qarashlar, g‘oyalar va qoidalardir	most basic views, ideas and rules, expressing the essence of the right as a means of regulating social relations
<b>Umumhuquqiy tamoyillar</b>	adolatlilik, fuqarolarning qonun oldida huquqiy jihatdan tengligi, insonparvarlik, qonuniylik, demokratizm, huquq va majburiyatlar birligi va boshqalar	justice, legal equality of citizens before the law, humanity, legitimacy, democracy, unity of rights and obligations, etc.
<b>Sohalararo tamoyillar</b>	javobgarlikning muqarrarligi, oshkoraliq, fuqarolik-prosessual va jinoiy-prosessual huquqdagi tortishuvlilik tamoyili va boshqalar	the principle of inevitability of liability, transparency, adversarial law in civil procedure and criminal procedure, etc .
<b>Sohaviy tamoyillar</b>	masalan, mulkiy munosabatlarda tomonlarning tengligi (fuqarolik huquqi); jinoyat jarayoni huquqida aybsizlik prezumsiyasi va boshqalar	for example, equality of arms in property relations (civil law); presumption of innocence in criminal law, etc
<b>Huquqning funksiyalari</b>	bu jamiyatda ijtimoiy munosabatlarga va kishilarning yurish-turishlariga huquqiy ta’sir qilishning asosiy yo‘nalishlaridir	these are the main areas of legal influence on social relations and people’s behavior in society
	bu eng avvalo vakolatli davlat organlarining normativ-huquqiy aktlarini yaratish, ularga o‘zgartirish kiritish yoki	it is primarily the activity of the competent state bodies aimed at creating, amending or repealing

<b>Huquq ijodkorligi</b>	ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyatidir.	normative legal acts.
<b>Normativ-huquqiy hujjat</b>	davlat vakolatli organlarining belgilangan tartibda qabul qilgan huquqiy hujjati bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umum majburiy xarakterdagi qoidalarni o‘rnatuvchi, o‘zgartiruvchi va bekor qiluvchi rasmiy hujjatdir.	is a legal document adopted by the competent authorities of the state in the prescribed manner, an official document aimed at regulating social relations, establishing, amending and repealing the rules of a general mandatory nature.
<b>Huquq normasi</b>	davlat tomonidan o‘rnatiladigan, maqullanadigan, muhofazalanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy yurish-turish (xulq-atvor) qoidasi.	a universally binding rule of conduct (behavior) established by the state, approved, protected, expressed in a certain form, aimed at regulating social relations.
<b>Gipoteza</b>	huquq normasining bir qismi bo‘lib, unda dispozisiyada ko‘rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo‘lgan muayyan aniq hayotiy holatlar (voqeа, harakat, holatlar) o‘zining ifodasini topadi.	is part of the rule of law, in which certain specific life circumstances (event, action, circumstances) necessary for the entry into force of the rule specified in the disposition find their expression.
<b>Qonun ijodkorligi</b>	vakolatli davlat organining qonunlarni ishlab chiqishi va qabul	is a purposeful voluntary activity of the competent state body aimed at the

<b>faoliyati</b>	qilishga qaratilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan irodaviy faoliyatidir	development and adoption of laws
<b>Qonunosti hujjatlari</b>	davlat hokimiyati organlarining qonunga nisbatan pastroq yuridik kuchga ega bo‘lgan huquqiy aktlardir.	are legal acts of public authorities that have a lower legal force than the law.
<b>Shaxsning huquqiy xulq-atvori</b>	bu shaxs tomonidan yuridik normalar ko‘rsatmalariga mos keladigan xatti-harakat-larning amalga oshirilishidir. Yana bu – qonunga itoat etuvchi xatti-harakat hamdir	it is the performance of actions by a person in accordance with the provisions of legal norms. It is also a law-abiding act
<b>Huquqiy xulq-atvor</b>	bu huquq normalariga mos keladigan, yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan, ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo‘lgan, huquq sub’ektlarining ongли ravishdagi xulqidir	it is the conscious behavior of the subjects of law, which conforms to the norms of law, has legal consequences, has socially useful significance
<b>Faol huquqiy xulq-atvor.</b>	Bu fuqarolarning, mansabtor shaxslarning qo‘shimcha vaqt, kuchg‘ayrat, ba’zan esa moddiy mablag‘lar sarflash bilan bog‘liq bo‘lgan bir maqsadga yo‘naltirilgan, tashabbusga asoslangan qonuniy faoliyatidir	It is a goal-oriented, initiative-based legal activity of citizens, officials, which is associated with additional time, effort, and sometimes material resources
	Faol xatti-harakatdan farqli o‘larоq, u qo‘shimcha mablag‘lar,	Unlike active behavior, it is not associated with spending extra money,

<b>Odatiy huquqiy xulq-atvor</b>	kuch-g‘ayratlar sarf qilish bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Bu insonning huquqiy normalarga mos keladigan kundalik maishiy turmushi va boshqa hayotidir	effort. It is a person’s daily life and other life that conforms to legal norms
<b>Passiv (marginal) huquqiy xulq-atvor</b>	Bunday hulq-atvorli shaxslar huquq ko‘rsatmalariga mos faoliyat yuritsalarda, bunda ular ushbu harakatlarni davlat majburlovidan, nohuquqiy hatti-harakatlari uchun tegishli tartibda jazolanishlaridan qo‘rqanliklari uchun amalga oshiradilar	When such persons act in accordance with the law, they do so out of fear that the state will coerce them and punish them for their illegal actions
<b>Huquqbazarlik</b>	bu huquq va muomala layoqatiga ega sub’ekt tomonidan harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishida sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir	it is a socially dangerous act committed by an entity with the right and legal capacity in the form of action or inaction, contrary to the requirements of the law and causing harm to the individual, property, the state and society as a whole
<b>Ayb</b>	huquqbuzarning huquqqa xilof xatti-harakatiga va uning ijtimoiy xavfli oqibatiga nisbatan qasd yoki ehtiyoitsizlik ko‘rinishidagi munosabati	the attitude of the offender in the form of revenge or negligence in relation to the unlawful behavior and its socially dangerous consequences
	shaxsning huquqqa xilof hatti-harakatini sodir	when a person commits an unlawful act, he or

<b>Qasd</b>	qilayotganida, bu harakat (harakatsizlik)ning huquqqa xilofligini, ijtimoiy xavfliligin, uning oqibatini anglashi yoki tushunishi (to‘g‘ri qasd), yoki bu munosabatning ma’lum oqibatni keltirib chiqarishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yishi (egri qasd)	she understands or understands the illegality, social danger, and consequences of that act (omission) (right intent), or consciously allows that relationship to have a certain consequence (indirect intent)
<b>Ehtiyyotsizlik</b>	shaxsning hatti-harakatlari natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarning oldini olishni nazarda tutib, beparvolik bilan o‘ziga-o‘zi ishonib harakat (harakatsizlik) qilishi	to act (inaction) with negligence and self-confidence, with the aim of preventing the consequences that may arise as a result of the person's actions
<b>Yuridik javobgarlik</b>	bu huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida ko‘zda tutilgan sanksiyalar asosida davlatning majburlov choralarini qo‘llashdir	it is the application of coercive measures by the state on the basis of sanctions provided for in the law
<b>Qonuniylik</b>	ijtimoiy hayotda huquq va qonun hukmronligidan, ijtimoiy munosabatlar barcha ishtirokchilarini tomonidan huquqiy normalar ko‘rsatmalarini og‘ishmay amalga oshirish, mansabdor shaxslar faoliyatidagi huquqbazarlik va zo‘ravonlikka qarshi izchil kurashish, jamiyatda tartib va uyushqoqlikni	a socio-political regime consisting of the rule of law and order in public life, the strict implementation of legal norms by all participants in social relations, the consistent fight against delinquency and violence in the activities of officials, ensuring order and cohesion in society

	ta'minlashdan iborat ijtimoiy-siyosiy rejimdir	
<b>Qonuniylikning kafolati</b>	bu qonun va qonun osti aktlari amal qilishini ta'minlovchi, fuqarolarning huquqlarini hamda davlat, jamiyat manfaatlarini to'siqlarsiz amalga oshiruvchi usullari, shart-sharoitlaridir	these are the methods and conditions that ensure the observance of laws and by-laws, the unimpeded exercise of the rights of citizens and the interests of the state and society
<b>Huquqiy tartibot</b>	bu huquq sub'ektlarining huquq normalarida belgilangan qoidalarga to'la va aniq rioya qilishlari natijasida o'rnatiladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir	it is a system of social relations established as a result of full and clear observance by legal entities of the rules established by legal norms
<b>Umumiylilik</b>	mazkur prinsipga ko'ra qonun muayyan shaxslarga emas, balki jamiyatning barcha a'zolariga qaratilishi kerak	according to this principle, the law should be addressed to all members of society, not to specific individuals

## VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagagi ma’ruzasi. –T.:“O‘zbekiston”, 2017.B-48
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. - 76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 52-son, 583-modda
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 19-son, 209-modda
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 49-son, 578-modda
5. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 49-son, 611-modda

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 07.02.2017 yildagi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 14.02.2017 yildagi F-4849-son farmoyishi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 7-son, 88-modda

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Odilqoriev X.T., Tulteev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T.Odilqoriev tahriri ostida. – T.: Sharq, 2009. – 592 b.
2. Islamov Z.M. Teoriya gosudarstva i prava (Chast 1. Teoriya gosudarstva). Uchebnik. – T.: TGYuI, 2013. – 325 s.
3. Hayitboev F.P., Najimov M.K. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYuU, 2018. – 229 b.
4. Axmedshaeva M.A. Davlat va huquq rivojining hozirgi zamon tendensiyalari. – T.: TDYuU, 2019. –235 b.

### **IV. Xorijiy adabiyotlar**

1. Nisnevich Yu.A.Gosudarstvo XXI veka: tendensii i problemы razvitiya. – M. : KNORUS, 2012. - 288 s.
2. Hart H.L.A. The Concept of Law. 3rd edition. – Oxford: Oxford university press, 2012. –333 p.
3. Brian Y.Bix.Washington University, St. Louis, B.A. Harvard University, J.D. Balliol College, Oxford University, D.Phil. Natural Law: Modern Tradition Natural Law: Online publication date: Sep. 2012 Online publication date: Sep. 2012. Edited by Jules L.Coleman, KennehtEinarHimma, and Scott J.Shapiro.
4. Marchenko M.N.Tendensii razvitiya prava v sovremennom mire. Moskva: Prospekt, 2015.-376 s.
5. Radko T.N., Lazarev V.V., Morozova L.A. Teoriya gosudarstva i prava. – M.: Prospekt, 2018. – 568 s.
6. Axmedshaeva M.A. Davlat va huquq rivojining hozirgi zamon tendensiyalari. – Toshkent: TDYuU, 2019. –235 b.

7. Marchenko M.N. Problemy obshchey teorii gosudarstva i prava (Pravo): v 2 t.-2-izd.-Moskva: Prospekt, 2019. T.2:-648 s.

8. Scott Veitch, Emilius Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence. Themes and Concepts. Second ed. – London: Routledge publication, 2012.– 305p.

#### **V. Elektron ta'lim resurslari**

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.senat.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.my.gov.uz>
5. <http://www.parliament.gov.uz>
6. <http://www.ziyonet.uz>

## VIII. TAQRIZLAR

С.Муратаев ва Ф.Махмудовлар томонидан тайёрланган Тошкент давлат юридик университети ҳузуридаги Юридик кадрларни халкаро стандартлар бўйича професионал ўқитиш маркази Қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари учун тайёрланган “Давлат ва хукук назарияси” модули Ўқув - услубий мажмуасига

### ТАҚРИЗ

Маълумки, бугунги кунда юридик таълимни ривожлантиришга катта аҳамият берилмоқда. Жумладан, 2020 йил 29 апрелда Ўзбекистон Президенти томонидан “Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони эълон килинган бўлиб, ушбу Фармон хукуқшунослик касби, хукуқшунос олимлар олдига, юридик кадрлар тайёрлаш тизими олдига яна аник йўл хартитасини белгилаб берганди.

Биринчидан, мазкур Фармон нафакат юридик таълим, балки юридик фанни ҳам ривожлантиришнинг янги ва концептуал масалаларини ишлаб чикиш, юридик соҳада илмий салоҳиятни янги босқичга олиб чиқишига туртки бўлса, иккинчидан, келгусида юридик соҳа ривожини тубдан такомиллаштириш ва бу борада қўшимча чора-тадбирлар белгилашнинг хукукий асоси бўлиб хизмат қиласи. Бу эса, янги ислоҳотлар даврида юридик соҳа ривожида муҳим вазифаларни кўйган эди. 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг “Илм, маърифат ва рақамли иктисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид давлат дастурида “Юридик фан ва таълимни такомиллаштириш, юридик кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини ривожлантириш” бандининг реал ижросига багишлиланган бўлиб, “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”даги белгиланган вазифалар билан уйғундир.

Тошкент давлат юридик университети “юриспруденция” мутахассислиги бўйича юридик кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш бўйича базавий олий таълим ва илмий-методик муассаса сифатида янги замонавий ўқув адабиётлар яратишга катта аҳамият бериладигани таҳсинга сазовордир. Жумладан, Тошкент давлат юридик университетининг профессор-ўқитувчилари С.Муратаев ва Ф.Махмудовлар томонидан тайёрланган янги дастур асосидаги “Давлат ва хукук назарияси” ўқув-услубий мажмуаси диккатга сазовордир. Мазкур кўлланма ўзаро кетма-кетликда ва изчиликда, яъни: ишчи дастур, модулни ўқитишда фойдаланиладиган интерфаол таълим

методлари, назарий материаллар, амалий машгулот материаллари, кейслар балки, глоссарий ҳамда тавсия этилган адабиётлар рўйхатидан иборат.

Мажмуанинг кириш кисмида ўқув модулининг долзарблиги ва ахамияти ҳамда ҳукукий асослари, модулнинг мақсад ва вазифалари ёритилган. Шунингдек, модул бўйича тингловчиларнинг билим, кўникма, малака ва компетенцияларига кўйиладиган талаблар келтирилган. Тингловчилар учун кўлланмада келтирилган модул бўйича соатлар таксимоти, баҳолаш мезонлари, назарий ва амалий машгулотлар мазмуни қулай ва содда баён этилган. Айниқса, хар бир тингловчининг фаоллигини оширишга қаратилган модулни ўқитишда фойдаланиладиган интерфаол таълим методлари ҳам ўринли ва таҳлилий ифода этилган. Мавзулар кетма-кетлиги ҳам изчилликда жойлаштирилган. Глоссарий кисмида терминларга ўзбек ва инглиз тилидаги шарх берилган.

Умуман, ўқув-услубий мажмуя мантикий асосда тузилган ва тинловчи ўзлатириши учун қулай матнда таёrlанган. Шу билан бирга, мазкур ўқув-услубий кўлланма 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сон, шунингдек Вазирлар Махкамасининг 2019 йил 23 сентябрдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сон карорларида кайд этилган вазифаларни қамраб олган ҳолда бажарилган бўлиб, уни чоп этишга тавсия этаман.

ТДЮУ “Давлат ва ҳукуқ назарияси”  
кафедраси профессори, ю.ф.л



**ТДЮУ Давлат ва ҳуқук назарияси кафедраси мудири, ю.ф.и. С.Муратаев ва ТДЮУ ҳузуридаги Профессионал ўқитиш маркази директор ўринбосари Ф.Махмудовлар томонидан тайёрланган Тошкент давлат юридик университети ҳузуридаги Юридик кадрларни халкаро стандартлар бўйича професионал ўқитиш маркази қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари учун тайёрланган “Давлат ва ҳуқук назарияси” модули Ўқув- услубий мажмуасига**

### **ТАҚРИЗ**

Мамлакатимизда сўнгги йилларда инсонпарвар демократик ҳуқукий давлат қуриш ва фукаролик жамиятини шакллантириш йўлида давлат ҳамда жамият ҳаётининг турли соҳаларида олиб борилаётган ислохотлар натижасида ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида, жумладан таълим соҳасида ҳам жиддий ўзгаришлар содир бўлмоқда.

Маълумки, таълим тизимини тубдан такомиллаштириш максадида республикамизда бир қанча конун ҳужжатлари кабул килинган. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ва 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармонлари шулар жумласидандир. Ана шу ва бошқа конунчилик ҳужжатлари бугунги кунда таълим тизимимизни ривожига ҳамда ўқув модуллари бўйича дарслик, ўқув- услубий мажмуа ва ластурларини такомиллашувига хизмат қилмоқда. С.Муратаев ва Ф.Махмудовлар томонидан “Давлат ва ҳуқук назарияси” модулидан тайёрланган ўқув- услубий мажмуа ҳам ҳозирги кунда ҳуқукшунослик йўналишида ишлаб чиқилган долзарб қўлланмалардан бири бўлиб, ушбу мажмуа ишчи дастур, модулни ўқитишда фойдаланиладиган интерфаол таълим методлари, назарий материаллар, амалий машгулот материаллари, кейслар банки, глоссарий ва адабиётлар рўйхатидан иборат. Мазкур мажмуа таълим тизимига оид конун ҳужжатларида белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиқкан ҳолда тузилган бўлиб, у замонавий талаблар асосида қайта тайёрлаш ва малака ошириш жараёнларининг мазмунини такомиллаштириш ҳамда олий таълим муассасалари педагог кадрларининг касбий компетентлигини мунтазам ошириб боришга хизмат қиласи. Мажмуанинг ижобий жиҳатлари ва янгилиги шундаки, унда давлат ва ҳуқукнинг келиб чиқишини масофавий таълим технологиялари асосида ўқитиш; давлат функциялари тўғрисидаги билимларни шакллантиришдаги ёндашувлар; ижтимоий муносабатлар ва

хуқукий масалалар мөхиятини очиб беришда казуслардан фойдаланиш; замонавий норма ва хуқук ижодкорлиги – норматив-хуқукий ҳужжатлар таҳлили; хуқукий ҳулқ-атвор, ҳуқукбузарлик ва юридик жавобгарлик тушунчаларини шакллантириш; мамлакатда қонунийликни таъминлашда хуқук устуворлиги ва хуқукий тартибот масалалари; давлат ва хуқуқнинг ривожланиш истиқболлари мавзулари кўпгина адабиётлар, манбалар ва қонун ҳужжатларидан фойдаланилган ҳолда ўзига хос тарзда ёрниб ўтилган. Ушбу мажмуанинг катор ижобий жиҳатларини зътироф этиш билан бирга, унинг баъзи камчиликларини ҳам кўрсатиб ўтиш жоиз. Масалан, биринчи мавзуда инсоният ривожининг 2500-3000 йиллик тарихидаги давлат ва хуқук масалалари юзасидан умумий кузатув таҳлилини ўtkазиш масаласининг келтириб ўтилганлнги максадга мувофик эмас. Бундан ташқари еттинчи мавзуда давлат ва хуқук ривожига оид сўнгги йилларда химоя килинаётган мавзулар билан танишириш масаласи ҳам етарли даражада ифодалаб ўтилмаган. Лекин, юқорида келтириб ўтилган баъзи камчиликлар, мазкур ўқув-услубий мажмуанинг умумий савиясига салбий таъсир кўрсатмаган ва уни оммавий нашрға ҳамда таълим соҳасида қўлланма сифатида фойдаланишга тавсия этиш мумкин.

Такризчи

О.Хусанбоев  
ТДЮУ Давлат ва хуқук  
назарияси кафедраси  
доценти, ю.ф.и.

